ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY

2023, №3

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

RUSTAMBAYEV M.X.
Xalqparvar davlar barpo etishning konstitutsiyaviy asoslari 3
MAMAYUSUPOV S.D.
Globallashuv sharoitida O‘zbekiston yoshlari tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari 8
USMONOV M.B.
Iqlim o‘zgarishi oldini olishning ekologik muammolari 11
ЧИНИЕВ Д.А.
О некоторых аспектах совершенствования уголовно-правового законодательства и правоприменительной практики во исполнение стратегии «Узбекистан – 2030» 15
XUDOYBERDIYEV A.Q., NURULLAYEV U.K.
Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi faoliyati 18
XATAMOV F.F.
Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas’ulligi 22
PARMANOV F.D.
Ichki ishlar organlarining davlat mexanizmini takomillashtirishda, aholining turmush-tarzi va farovonligini ta’minlashda yordam ko‘rsatish mexanizmlari 26
ISMAILOV A.
Voyaga yetmaganni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat kodeksi normalarining rivojlanish tarixi 32
KUCHKAROV X.Z.
Yuqori instansiya sudlarida tomonlar tengligini ta’minlashning ahamiyati 38
DAVLETOV O‘.M.
Fuqarolik sud ishlarini jadallashtirish 42

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

USMANOVA M.A., YARASHEV B.Ch.
Aholi bandligini ta’minlash va mehnatga oid muammolarni hal etish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim masalalari 46
MAXMUDOV R.M., IBRAXIMOV A.R.
Megapolislarda jamoat tartibini saqlashning o‘ziga xos xususiyatlari (xorijiy tajribalar) 50
ЖУМАЕВ А.Ж.
Вопросы совершенствования инфраструктуры и организации системы обеспечения безопасности на территории торговых рынков (на примере торгового комплекса «Урикзар») 55
ATAJANOV O‘.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari 60
TOSHMUXAMMATOV A.Y.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish 66
ГАНИЕВ Ш.А., БАРИЕВ Э.Ф.
Общественно-политическая составляющая системы обеспечения общественной безопасности 72

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR
III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

RASULMETOV M.N., KUVONDIKOV Z.K.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari 76

XAKNAZAROV X.D.
Harbiy xizmatchilar kundalik hayotida harbiy an'ana va odatlarning ahamiyati 82

ORINOV D.X.
Harbiy xizmatchilar ijtimoiy himoyasi tizimida Qurolli Kuchlar faxriylarini qo'llab-quvvatlashning zarurati va ahamiyati 86

ERNAZAROV A.A.
Harbiy xizmatchilarda yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyani oldini olish - harbiy intizomni mustahkamlashning muhim omili sifatida 90

QULMURODOV U.I.
Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarining yuridik shaxs sifatida huquqiy belgilari 93

SALIMBAYEV M.M.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tizimida autsorsing muammolari va rivojlanish istiqbollari 98

RAXMONOV X.P.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchi va xodimlarini shaxsiy xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishda kompleks yondashuv 101

RIZOYEV F.F.
Harbiy xizmatchilar intizomiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari 105

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

MIRZALIYEV N.A.
Tinchlik madaniyati tushunchasining falsafiy mazmun-mohiyati 109

ILHOMBEKOV J.I.
Global tarmoqdagi huquqiy munosabatlarning tahlili 112

ZAKIROV K.T.
Retsidiv jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi omillar 116

V. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI
V. EDUCATION, EDUCATIONAL PROCESS

TURAYEVA S.R.
Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida qurolsozlik haqida ma'lumotlar 121

MAQSUDOV Q.A.
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarining maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha pedagogik tajriba boshida olingan natijalar tahlili 124

XODIYEV R.X.
Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy asoslari 128

VI. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VI. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

XURSANDOV E.D.
Bo'linma va texnikalarni boshqarishda zamonaviy simsiz tarmoq texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 134

ABDURAYIMOV S.S., XURRAMOV A.I.
Universal chaqish qurilmasi xomashyosi kengligi bo'yicha dinamik qatorga matematik – statistik ishlov berish 138

IRISOV X.D., GULYAMOV N.Sh., BEKMURODOV I.R.
Avtomobilning sirpanib surilishini imitatsiya qilish qurilmasi parametrlarini asoslash 143

ABDISAMATOV A.M.
Bo'lajak mexanik-haydovchi shaxsini o'zini-o'zi harbiy-kasbiy tayyorlashining ijtimoiy-pedagogik muammosi 148

VII. XORIJIY TAJRIBA
VII. FOREIGN EXPERIENCE

АНАРБАЕВ Э.А.
Законодательство стран СНГ в области реализации концессионных договоров 153

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan “inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat” barpo etish g‘oyasi yangilangan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘zining mustahkam huquqiy poydevoriga ega bo‘ldi. Chunonchi, Asosiy qonunimizning 2-moddasida o‘rnatilishicha, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” [1].

Yurtboshimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaga ko‘ra xalqparvar davlat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u o‘z tarkibiga davlat suverenitetini mustahkamlash, adolatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqini oliy qadriyat sifatida tan olish, uning farovonligi uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, ekologik shart-sharoitlarni yaratib berish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning chinakam xalq xizmatida bo‘lishi, inson huquqlarini sud yo‘li bilan himoyasini ta'minlash kabilarni qamrab oladi.

Prezidentimiz farmoni asosida tasdiqlangan yetti yo‘nalishdan iborat O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi [2]dagi har bir yo‘nalish xalqparvar davlat barpo etishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mazmun-mohiyatida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish g‘oyalari mujassamlashgan.

Chunonchi, Taraqqiyot strategiyasining yo‘nalishlaridagi asosiy vazifalarga e’tiborni qaratsak, ularda davlat funksiyalarining katta qismini markazdan hududlarga o‘tkazish, xalq qabulxonalarini tom ma’noda xalq fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylantirish, odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligi ta’minlash, huquq-tartibot organlari faoliyati yanada takomillashtirish, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish [3] vazifalari belgilab berilgan. Sanab o‘tilgan vazifalarning yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasidan mustahkam o‘rin egallaganligini alohida e’tirof etish lozim. Masalan, Asosiy qonunning 14-moddasida ko‘rsatilishicha, “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” [4].

Shuni aytish kerakki, xalqparvar davlatni barpo etish yangi O‘zbekistonni shakllantirishga asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O‘zbekiston g‘oyasi ilgari surilib, uning tushunchasi ishlab chiqildi, belgilari ko‘rsatib berildi. Yurtboshimizning ta’rifiga ko‘ra, yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat tushuniladi [5].

Demak, yangi O‘zbekiston tushunchasining asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilishi, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lishi, hamma uchun

adolatni so‘zsiz ta’minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lishini e’tirof etish mumkin.

Ayniqsa, keyingi yetti yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam xalqparvar davlat barpo etilayotganligidan dalolat beradi.

Xalqparvar davlat barpo etish yo‘lidagi birinchi vazifa davlat suverenitetini mustahkamlashdan iboratdir. Shu sababdan, yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasidayoq, “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren davlat” [6] ekanligi muhrlab qo‘yildi. Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan to‘la mustaqilligi tushuniladi. Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo‘lib, uning to‘la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

Demak, Asosiy qonunimiz orqali O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va suveren demokratik respublika ekanligi rasmiylashtirildi. Konstitutsiyaning tegishli moddalarida O‘zbekistonning davlat hududi va chegarasi daxlsizligi, davlat hokimiyati O‘zbekistonning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligi mustahkamlandi.

Xalqparvar davlat barpo etish jarayonidagi asosiy vazifalardan biri ijtimoiy davlat qurish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlandi. Ijtimoiy davlat degani - bu uning aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishida va sog‘liqni saqlashda faol ishtirok etish, bepul umumiy ta’limni, ish haqining eng kam miqdorini belgilanishi, mehnat va bozor munosabatlarining adolatli ravishda qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi demakdir. O‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy davlatning siyosati to‘laligicha insonning munosib yashashi va erkin kamol topishini ta’minlashi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan bo‘ladi.

Umume’tirof etilgan yondashuvlarga ko‘ra, demokratik xarakterdagi har qanday davlat umumijtimoiy faoliyatni amalga oshirib, butun jamiyat, barcha sinflar, ijtimoiy guruhlar va jamiyat qatlamlarining manfaatlarini himoya qiladi. Ijtimoiy guruhlar va ayrim qatlamlarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muayyan farqlar ham mavjud bo‘lib, bunda ijtimoiy ta'minot masalasida nogironlar, yetim bolalar, kam daromadli oilalar davlatning alohida himoyasida bo‘ladi. Chunonchi, yangilangan Asosiy qonunimizda belgilanishicha, “Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi” [7] (57-modda).

Shu o‘rinda aytish lozimki, davlat ijtimoiy mohiyatining markazida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi to‘g‘risidagi qoidani ro‘yobga chiqarish yotadi.

Xalqparvar davlat barpo etishdagi muhim vazifalardan yana biri demokratik huquqiy davlatni shakllantirishdir. Xalqparvar davlat o‘z oldiga demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qiladi. Demokratik huquqiy davlat bu - huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta’minlanadigan, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlatdir.

Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilari bo‘lib huquqning hukmronligi,

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi, davlat va fuqarolarning o'zaro mas'ulligi, jamiyatda hokimiyatning qonuniyligi (legitimligi), hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi, huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi, demokratiyaning takomillashganligi hisoblanadi.

Demokratik huquqiy davlatda demokratiya yuqori darajada takomillashgan bo'ladi. Demokratizmning asosiy belgilari sifatida davlat xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi, hokimiyatning birdan-bir manbai xalq hisoblanishi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yilishi, xalq qonun chiqaruvchi organ va Prezident saylovlarida bevosita ishtirok etishi, davlat hokimiyati xalqqa hisob berishi, xalqning qarorlar qabul qilishdan xabardorligi, hukumat qarorlari xalq tomonidan nazorat qilinishi, oddiy fuqaroning davlatni boshqarishdagi ishtiroki, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi tan olinadi.

Demokratik huquqiy davlatda qonuniylik prinsipining belgilari sifatida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi, davlat, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar, birorta ham qonun Konstitutsiya normalariga zid kelishi mumkin emas, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi qaror topadi. Masalan, Konstitutsiyaning 15-moddasida o'rnatilishicha, "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar" [8].

Xalqparvar davlatni shakllantirishdagi asosiy masalalardan biri dunyoviy davlat barpo etishdan iboratdir. Ushbu maqsad O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida o'z ifodasini topdi. Dunyoviy davlat tushunchasi davlat bilan din o'rtasidagi o'zaro nisbatni, shu davlatning dinga munosabatini, aniqrog'i dindan holi mavjud bo'lishi va faoliyat yuritishini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, dunyoviy davlat deganda, hech bir dinga davlat dini maqomi berilmaydigan, diniy qarashlarni davlat mafkurasi sifatida tan olmaydigan, dinning davlat siyosatini yuritish, davlat boshqaruvi va ta'lim jarayonini amalga oshirishda aralashuvi man etilgan davlat tushuniladi.

Ma'lumki, Konstitutsiya va qonunga ko'ra davlat dindan ajratilgandir. Dinning davlatdan ajratilganligi quyidagilarda ko'rinadi: diniy muassasa va tashkilotlar zimmasiga davlatga tegishli biron bir funksiya yuklatilmaydi; davlat tomonidan hech bir diniy konfessiyaga moddiy yordam ko'rsatilmaydi, ularning hech biriga imtiyozlar berilmaydi; davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga aralashmaydi; diniy tashkilotlar va ular xizmatchilarining faoliyati faqat bir maqsadga - fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirishga, diniy ibodat va marosimlarni ado etishga qaratiladi. Ammo, davlat o'z fuqarolarining vijdon erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi [9].

Xalqparvar davlat barpo etish jarayonidagi asosiy vazifalardan biri inson huquqini ta'minlash va uni himoya qilish hisoblanadi. Inson huquqlari xalqparvar demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlatda xalq hokimiyatchiligini qay darajada o'rnatilganligini ko'rsatuvchi o'ziga xos mezondir. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi" [10], tahriridagi norma alohida joy egalladi (20-modda).

Shu maqsadda inson huquqini ta'minlashga bag'ishlangan quyidagi konstitutsiyaviy qoidalarning Asosiy qonunimizdan joy topganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir: insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida qonunchilikda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-

qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi; insonning huquq va erkinliklari tug‘ilishi bilan unga tegishli bo‘ladi, mutloq va ajralmas deb tan olinadi; O‘zR fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan fuqarolar va vatandoshlar bilan aloqalarning saqlab qolinishi hamda rivojlanishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi; ushlab turishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga yoki ozodlikni boshqacha cheklashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi; shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerak; mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasining yashashi uchun yetarli bo‘lishi kerak; har kim sog‘lom va qulay atrof tabiiy muhitga, uning holati haqidagi haqqoniy axborotga ega bo‘lish huquqiga ega; hech bir shaxs o‘z mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas. Mulkni jamoat ehtiyojlari uchun majburiy ravishda boshqa shaxsga o‘tkazish uning o‘rnini oldindan va teng qiymatda qoplash sharti bilan amalga oshiriladi; bolaning manfaatlari, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi va hokazo.

Bundan tashqari, insonning shaxsiy huquq va erkinliklariga bag‘ishlangan quyidagi tahrirdagi qoidalarning yangilangan Konstitutsiyaga kiritilganligi diqqatga sazovordir: yashash huquqi har bir insonning tabiiy va uzviy huquqidir. O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. Hech kim tutqunlikda saqlanishi, majburiy mehnatga, hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan ishlarga jalb qilinishi mumkin emas; har qanday shaxs uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas va x.z.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, mamlakatimizda yangilangan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi belgilab bergan normalar asosida xalqparvar davlatni barpo etish mustaqil, ijtimoiy, demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat sifatidagi yangi O‘zbekistonni bunyod etishga va bu ijtimoiy makonda fuqarolarning tinch, osoyishta va farovon yashashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон;
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон;
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
5. Миллий мустақиллик – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам асосидир //Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи;
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023;
10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2023.

Rustambayev M.X. Xalqparvar davlat barpo etishning konstitutsiyaviy asoslari

Maqolada mamlakatimizda xalqparvar davlat barpo etishning konstitutsiyaviy asoslari, yangilangan Konstitutsiyadagi ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning mohiyati, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xalqparvar davlat, yangi O‘zbekiston, demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, suveren davlat, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

Рустамбаев М.Х. Конституционные основы создания народного государства

В статье анализируются конституционные основы построения в современном

Узбекистане гуманного государства, понятие гуманного государства, его основные черты, задачи и особенности.

Ключевые слово: гуманное государство, новый Узбекистан, демократическое правовое государство, социальное государство, светкое государство, суверенное государство, демократия, права человека, приоритет закона.

Rustambayev M.Kh. Constitutional foundations of building a nationalistic state

The article analyzes the constitutional foundations of the establishment of a nationalistic state in our country, the essence, tasks and peculiarities of the norms governing these relations in the updated constitution.

Key words: nationalistic state, New Uzbekistan, democratic legal state, social state, secular state, sovereign state, democracy, human rights, rule of law.

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON YOSHLARI TAFAKKURI VA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayotning barcha sohalarida globallashuv jarayoni jadallashganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining tarqalishi jamiyatning asosiy qatlami bo‘lgan yoshlar madaniyati hamda turmush tarzini etnosotsiologik materiallar asosida tadqiq qilishni ilmiy zaruriyatga aylantirmoqda.

Dunyo mamlakatlari milliy siyosatining faol yo‘nalishlari sifatida yoshlar siyosatini amalga oshirish hozirgi vaqtdagi eng dolzarb masalalardandir. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Yoshlar kundalik hayotida bo‘sh vaqtdan foydalanish, undan samarali mashg‘ulotlarga sarflash, ajratilgan ortiqcha vaqtdan o‘ziga xos natija chiqarish muhim hisoblanadi. Bu borada bo‘sh vaqtdan sifatli foydalanish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, aniq rejalar va ularni samarali amalga oshirishga oid mexanizmning mavjudligi dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilib, xususan, aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida mintaqa davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim imzolanishi alohida ta’kidlanib, BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish hamda uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini ishlab chiqish kabi takliflar dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Bugungi kunda globallashuv va dunyo mamlakatlarida modernizatsiya jarayonlarining keskin rivojlanib borishi din niqobi ostidagi guruhlarning ham urchib ketishiga sharoit yaratib bermoqda. Diniy murosasizlik, ekstremizm, terrorizm kabi tahdidlar dunyoda beqarorliklarni keltirib chiqarib, davlatlarning ravnaqiga tobora tahdid solib borishi, fuqarolarda davlat siyosatiga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg‘onishiga sabab bo‘lib, davlatlar siyosiy tizimini zaiflashib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Albatta yuqoridagi kabi illatlar va tahdidlar jamiyatni barqarorligi va ijtimoiy xavfsizligiga raxna soladi. Shu bois, din niqobi ostidagi ekstremizm va terrorizm kabi tahdidlarga qarshi kurashish, uning oldini olish nafaqat davlatning vazifasi, balki jamiyat vakillari hisoblangan fuqarolarning ham fuqarolik vazifasi ekanligini anglab yetish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bugungi kunda dunyoda din niqobi ostida buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga berilish asnosida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga fuqarolik pozitsiyasi bilan yondashish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko‘chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya’ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish - bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi” – degan fikrlari juda qimmatlidir [2].

Yuqoridagi jarayonlarda yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga xizmat qiluvchi vatanparvarlik, mas’uliyat, burch kabi xislatlar shakllanib boradi. Bunday xislatlar esa, fuqarolik pozitsiyasining mezonlarini tashkil etadi. “Fuqarolik pozitsiyasi – bu shaxsning o‘z mamlakati, fuqarolik jamiyati va o‘ziga nisbatan ijtimoiy shartli munosabatini aks ettiruvchi hamda shaxsiy va ijtimoiy rejada atrof-muhit bilan bog‘liq ravishda ongli real harakatlarni (harakatlarni) taxmin qiladigan bilimlar, qadriyatlar, shaxsning axloqiy fazilatlari majmuini o‘z ichiga olgan shaxsning integral

sifatidir" [5].

"Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – har bir bolada o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari, vatanimizning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o'z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to'laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir" [6, 4-5].

Bugungi kunda yoshlarga ta'lim va tarbiya asosida ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, ularda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari nafaqat O'zbekistonning, balki butun dunyoning ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Binobarin, davlat taraqqiyotini belgilashda ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bugungi kunda yoshlarning huquqiy, siyosiy hamda diniy bilimlari ushbu soha mutaxassislari tomonidan beriladigan ma'lumotlar hisobiga boyib, dunyoqarashi kengayadi.

O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman" degan so'zlari ham bu tahdidning sabab va kelib chiqish omilini o'rganishni talab qiladi [3].

O'tgan asrning oxirlarida mustamlaka davlatlarining parchalanishi natijasida, diniy jarayonlar milliy jarayonlar bilan bir chiziqqa kelib, ularning o'rtasida o'zaro ta'sirlanish yuz berdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida joylashgan davlatlarni global yaxlitlash tendensiyasi vujudga kelib, din omilidan sun'iy foydalanish natijasida ekstremizm, terrorizm kabi illatlarning chuqurlashuvi kuzatildi. "...aqidaparast, ekstremist guruhlar, bir tomondan, diniy e'tiqod erkinligi amalda ta'minlanganidan, ikkinchi tomondan vujudga kelgan mafkuraviy bo'shliqdan g'arazli maqsad yo'lida foydalana boshladilar. Shu ma'noda, hozirgi kunda mustaqilligimizga tahdid solayotgan aqidaparastlik ildizlari va uning oqibatida yuzaga kelgan ekstremistik harakatlar sobiq sho'rolar tuzumi bag'rida vujudga kelgan edi". Shuning uchun, dindan dezintegratsiya maqsadida foydalanish oqibatida vujudga keladigan diniy ekstremizmni tahlil qilganda, avvalo uni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagan bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma'rifat asosida ish olib borishimiz zarur" [4, 496].

Zero, terrorizm, shuningdek, uning oqibatlari zamonaviy dunyo oldida turgan asosiy va eng xavfli muammolardan biridir. Bu demokratik mamlakatlarda ham, siyosiy o'tish bosqichidagi davlatlarga ham birdek taalluqlidir. Terrorizm ko'pchilik davlatlar xavfsizligiga tobora ko'proq tahdid solayotgani hozirgi zamon haqiqatidir. Har qanday davlat, har qanday shaxs uning qurboniga aylanishi mumkin [7, 164].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yoshlarning dunyoqarash va tafakkurini ijobiy motivlar bilan mustahkamlash, bunda ularning vatanparvarlik va yurtparvarlik kabi ezgu g'oyalar asosida tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash naqadar dolzarb masala sanaladi. Yosh avlodning ongini salbiy ta'sirlardan himoya qilish, adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish o'zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir O'zbekiston fuqarosi, ayniqsa yoshlarning asosiy burchi bo'lib qolishi darkor.

Xulosa o'rnida ta'kidlash o'rinliki globallashuv sharoitida yoshlarning tafakkur va dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy omillarni o'rganish yuzasidan doimiy ravishda ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalariga yoshlar kundalik turmush-tarziga singdirishning

zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi. 2023-yil 20-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 iyun.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi. 2017 yil 19 sentabr.

4. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 496.

5. Домбек S.O., Лебедева N.B. Ponimanie гrajdanskoy pozitsi i budushimi редагогами. https://cyberleninka.ru/article/n/ponimanie-grazhdanskoy-pozitsii-buduschimi-pedagogami

6. Pirnazarov G'.N. Faol fuqarolik pozitsiyasira era bo'lran ësh avlodni tarbiyalashda huquqiy tarbiyaninr o'rni // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2016, 3. – B. 4-5.

7. Гalkina E. B., Коубаев Б.Г. Lijnevostochnaya politika Rossii cherez prizmu borbi s mejdunarodnim terrorizmom i ekstremizmom. Politicheskie nauki. Severo-kavkazskiy federalniy universitet. – S.164.

Mamayusupov S.D. Globallashuv sharoitida o'zbekiston yoshlari tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Mazkur maqola O'zbekiston yoshlari dunyoqarashi va tafakkurining shakllanishi, o'ziga xos xususiyaltari, mexanizmlari va prognozlashtirish muammolariga bag'ishlangan. Maqolada globallashuv sharoitida yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning ahamiyati ham ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, tafakkur, dunyoqarash, fuqarolik pozitsiyasi, fanatizm, jamoatchilik nazorati.

Мамаюсупов С.Д. Особенности формирования мышления и мировоззрения молодежи узбекистана в условиях глобализации

Данная статья посвящена формированию мировоззрения и мышления молодежи Узбекистана, его специфическим особенностям, механизмам и проблемам прогнозирования. В статье научно анализируются факторы, влияющие на мышление и мировоззрение молодежи в условиях глобализации, и их значение.

Ключевые слова: молодежь, мышление, мировоззрение, гражданская позиция, фанатизм, общественный контроль.

Mamayusupov S.D. Features of the formation of the thinking and worldview of the youth of uzbekistan and the methodology of globalization

This article is devoted to the formation of the worldview and thinking of the youth of Uzbekistan, its specific features, mechanisms and problems of forecasting. The article scientifically analyzes the factors influencing the thinking and worldview of young people in the context of globalization, and their significance.

Key words: youth, thinking, worldview, citizenship, fanaticism, public control.

Usmonov Muhammadi Bahritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

IQLIM O‘ZGARISHI OLDINI OLISHNING EKOLOGIK MUAMMOLARI

Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik muammosi hisoblanadi. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishining oldini olish bugungi kunda milliy xavfsizlik, barqaror rivojlanishni ta’minlash, kishilik jamiyatini saqlab qolishning asosiy talablaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “atrof-muhit muvozanatining buzilishi, tabiiy resurslardan nomutanosib foydalanish, chiqindilarga beparvo munosabatda bo‘lish va ifloslanish ekotizimlarga va aholi salomatligi va farovonligiga, barqarorlik va davlatlar xavfsizligiga ta’sir qilib, salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o‘zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda” [1].

Yurtboshimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [2]gi farmonida mamlakatimizda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Ekologik xavf-xatarlar bugungi kunda insoniyat va tirik mavjudotning qulay atrof tabiiy muhitda yashashi uchun global muammolar, ya’ni ekologik inqiroz, ekologik ofat, ekologik tanglik, ekologik halokat va ekologik fojialarni keltirib chiqarmoqda. Shunday fojiali ekologik xavf-xatarlar sirasiga atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, chiqindilar bilan muomalada bo‘lish munosabatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, sel bosishi ofatlari, sanitariya-epidemiologik holatning yomonlashuvi, turli infeksiyalar (masalan, koronavirus)ning keng tarqalishi oqibatida odamlarning kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining pasayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishi, atmosfera havosida zaharli gazlarning ko‘payishi, toza ichimlik suvining kamayishi, hayvonot va o‘simlik dunyosi noyob turlarining yo‘qolib borishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat shu qadar murakkabki va o‘zaro bog‘liqki, uning buzilishi tabiat va jamiyatda inqiroz, falokat yoki halokatga olib kelishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, sayyoramiz aholisi 8,0 mlrdga yetdi. Rivojlangan noekologik texnologiyalar sharoitida bu atrof-muhit sifatining keskin yomonlashuvi, suv va havo havzalarining o‘ta ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, og‘ir iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat hamda ijtimoiy-siyosiy muammolarga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasida ta’kidlaganidek, “Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilmaxillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda. ... Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda” [3].

Global iqlim o‘zgarishiga to‘xtalib, Yurtboshimiz ushbu minbardan turib “keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko‘tarilganligi, bu dunyodagi o‘rtacha isishdan ikki karra ko‘pligi, oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo‘qolib ketganligi, ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin 20 yilda mintaqadagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 % ga qisqarishi, aholi jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 % ga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 % ga kamayishi” [4] mumkinligiga alohida e’tibor qaratdi.

Agar insoniyatning barcha tarixiy tamadduni davomida butun tabiat va uning resurslari cheksiz va bitmas tuganmasdek

ko‘ringan bo‘lsa, sanoat taraqqiyoti davri, ya’ni oxirgi ikki asr bunday tasavvurning butunlay xato ekanligini isbotlab berdi. BMT 2030 yilga borib, global isish tufayli jahon iqtisodiyotiga yiliga 2 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetishi mumkinligini ma’lum qildi. Ma’lumki, iqlimning o‘zgarib borishi va uning atrof-muhitga ta’siri XXI asrning eng asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Bunda antropogen holatning faol ta’siri ostida tuproq qatlami va biologik xilma-xillikni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Yer iqlimi ham tabiiy ravishda, ham antropogen omillar ta’sirida o‘zgaradi. Tabiiy iqlim o‘zgarishlarini bilish inson faoliyati tufayli kechadigan iqlim o‘zgarishi jarayonlarini chuqur anglab yetishga imkon beradi. Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish muammolari keskinlashib, o‘ta ziddiyatli tus olgan hozirgi davrda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorlik tizimida inson markaziy o‘rinni egallaydi. Inson bir vaqtning o‘zida ham tabiat, ham jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, bioijtimoiy mohiyatga ega.

Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishida biogen, antropogen va texnogen (nanogen) bosqichlar ajratiladi. Atrof-muhitni himoya qilish, ekologik me’yor, tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlarga tejamkorlik bilan foydalanib yetkazish bugungi kunda dolzarb muammodir. Bizni o‘rab turgan barcha o‘rmonlar, muzliklar, tog‘-u dashtlar, havo-suvlar, xullas, tabiatning har bir shahobchasi odamning a’zolari kabi bir-biri bilan uzviy, muvozanatli tarzda bog‘langandir. Tabiatning biron-bir joyida sodir bo‘ladigan o‘zgarish, o‘z navbatida, uning muvozanatiga qandaydir ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek, tabiatga antropologik (insonning bevosita qatnashishi) ta’sir etishning tobora kuchayishi natijasida tabiiy omillarning o‘zaro bog‘lanishi ma’lum darajada muvozanatdan chiqmoqda, bu esa yer yuzida hayotni risoladagidek kechishiga xavf solmoqda.

Tabiatga qo‘pol va o‘zboshimcha munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi... Afsuski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqda. Issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar konsentratsiyasining o‘sishi tabiiy issiqxona effektining kuchayishiga va Yer yuzasining isishiga olib keldi. Agar tegishli chora ko‘rilmasa, kelgusi yuz yillikning har o‘n yilligida harorat 0,3°C ga ortib boradi. Isish o‘z navbatida qutblardagi muzliklarning erishiga va dunyo okeani sathining ko‘tarilishiga olib keladi. 2030 yilga borib, dunyo okeani sathi o‘rtacha 20 sm ga, XXI asr oxirida esa 65 sm ga ko‘tarilishi taxmin qilinmoqda.

Global iqlim o‘zgarishining eng noqulay oqibatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: ko‘pgina tropik va subtropik mintaqalarda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining yalpi kamayishi kuzatiladi; mo‘tadil kengliklardagi ko‘plab mintaqalarda hosildorlik kamaygan, buning asosiy sababi o‘rtacha yillik haroratning bir necha darajaga ko‘tarilishidir; uy mollari va yovvoyi hayvonlarga issiqlik tazyiqi ortadi; tuproq eroziyasi va sho‘rlanishi kuchayadi; suv yetishmaydigan ko‘plab mintaqalarda, ayniqsa, subtropiklarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan suv miqdori yanada kamayadi; suv resurslarining sifati va miqdori kamayadi; kuchli yog‘inlar va dengiz sathining ko‘tarilishi toshqin xavfini oshiradi, bu esa o‘n millionlab odamlarni halokatga olib keladi; toshqinlar va qurg‘oqchilik miqyosining hamda ularning Osiyoning mo‘tadil va tropik iqlimli rayonlariga keltiradigan ziyoni ortadi; toshqinlar, tog‘ ko‘chkilari, qor surilmalari va sel toshqinlari natijasida keladigan ziyon ortadi; o‘rmon yong‘inlari xavfi ortadi; qirg‘oq bo‘yi eroziyasi va undan qirg‘oq bo‘yidagi imoratlar va infrastrukturaga bo‘ladigan ziyon ortadi; yozgi haroratning ko‘tarilishi havoni sovitish maqsadida ishlatiladigan energiyaga bo‘lgan talabni orttiradi.

Ta’kidlash lozimki, iqlim o‘zgarishining dunyo bo‘yicha quyidagi foydali imkoniyatlari ham mavjud: o‘rta kengliklarning ayrim mintaqalarda haroratning bir necha darajaga ko‘tarilishi tufayli qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi ortadi; o‘rmonchilik bo‘yicha yaxshi tajribaga ega bo‘lgan mintaqalarning jahon bozoriga taklif etadigan yog‘och materiallari miqdori ortadi; ayrim mintaqalarda, masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida suv ko‘payadi; o‘rta va yuqori kengliklardagi aholi orasida qishki davrdagi o‘lim kamayadi; qishki haroratning ko‘tarilishi uy-joylarni isitishga sarflanadigan energiyani kamaytiradi.

Bugungi kunda aholi sonining keskin ortishi, tabiiy resurslarga bo‘lgan talab va ehtiyojning o‘sishi, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, insonning tabiatga ta’sir kuchining ortib borishi yer shari iqlimining o‘zgarishiga olib keldi hamda bu jarayon shiddat bilan davom

etmoqda. Bu kabi jarayonlarni quyidagi dalillar bilan asoslash mumkin: atmosferaga inson faoliyat ta'sirining ortib borayotganligi, Ozon qatlamini yemiruvchi turli is gazlarini hamda karbonat angidrid va boshqa issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlarni chiqarish, turli organik yoqilg'ilarni yoqish; dunyo okeani suv sathining ko'tarilishi va suv tarkibining ifloslanishi; turli etnik nizolar, davlatlararo kelishmovchiliklar, urushlar, xalqaro terrorizm, maishiy va sanoat chiqindilarining tabiatga tartibsiz katta miqdorda chiqarilishi; insoniyat tomonidan o'zga sayyoralarni o'zlashtirish maqsadida raketalarni kosmosga chiqarilishi natijasida Ozon qatlamiga yetkazilayotgan zarar va boshqalar.

O'zbekistonda iqlimning mintaqaviy o'zgarishi ekstremal ob-havo hodisalari sonining ortishiga turtki bo'ladi, ya'ni qurg'oqchilik davri va yozgi yuqori darajalarning ortib ketishi, suv resurslarining shakllanishi rejimi, yerlarning degradatsiyasi (buzilish) holatlari bunga misoldir.

Iqlim o'zgarishi – bu nafaqat istiqbolning, balki bugungi kunning ham muammosidir. Zamonaviy dehqonchilik strategiyasi mazkur stress holatlarning vujudga kelishini hisobga olishi kerak. O'zbekistonda tuproqdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda oqilona foydalanishning umumiy muammolari alohida o'rin tutadi.

Iqlim o'zgarishida yerdan foydalanishni moslashtirish uchun ikkilamchi sho'rlanishning oldini olish bo'yicha ishlarni olib borish, tuproqning degradatsiyasini to'xtatish imkonini beradigan amaliy chora-tadbirlarni qabul qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish samaradorligini oshirish, buzilgan yerlarni qayta tiklash (rekultivatsiya qilish), tuproqni eroziya va sho'rlanishdan, cho'llanish, ifloslanish, zichlanish, tuproq unumdorligini hamda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilish bo'yicha tezkor choralarni ko'rish lozim.

Yashil iqtisodiyotga o'tish siyosati tufayli keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi salomatligini saqlash masalalariga e'tibor yanada kuchaymoqda va ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayniqsa, mintaqadagi global ekologik muammo hisoblangan Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududning ekologik holatini sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ijrosini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari mazkur ekologik muammoni hal etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarning oldini olish va bartaraf etishga BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasida Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan takliflar, ya'ni BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'sis etish; Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish; Markaziy Osiyo iqlim muloqotini joriy etish; BMT Bosh assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolutsiyasini qabul qilish; iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish [5] xizmat qilishini alohida ta'kidlamoqchimiz. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Yashil iqtisodiyot" dasturi ushbu muammoni ijobiy hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021, 383, 389-бетлар;
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082;
3. Халқ сўзи, 2023 йил 21 сентябрь;
4. Халқ сўзи, 2023 йил 21 сентябрь;
5. Халқ сўзи, 2023 йил 21 сентябрь.

Usmonov M.B. Iqlim o'zgarishi oldini olishning ekologik muammolari

Maqolada iqlim o'zgarishining ekologik xavfsizlik va milliy xavfsizlikka ta'siri, ekologik barqarorlikni ta'minlashda ekologiya qonunchiligining roli va ushbu qonunchilikni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: экология, иқлим ўзгариши, экологик хавфсизлик, миллий хавфсизлик,

экологик барқарорлик, экология ҳуқуқи, экология қонунчилиги, атроф табиий муҳит, табиат объектлари, барқарор ривожланиш.

Усмонов М.Б. Экологические проблемы предотвращения изменения климата

В статье исследуются вопросы влияние изменение климата на экологической и национальной безопасности, роль экологического законодательства в обеспечении экологической стабильности и совершенствование экологического законодательства.

Ключевые слова: экология, изменения климата, экологическая безопасность, национальная безопасность, экологическая стабильность, экологическое право, экологическое законодательство, окружающая природная среда, природные объекты, стабильное развитие.

Usmonov M.B. Enviromental problems of climate change prevention

The article searches the matters of ecological safety. Its influence on national security, the role of ecological legislation and providing ecological firmness is also given in the article.

Key words: ecology, ecological safety, national security, ecological legislation, environment, natural objects, and steady development.

Чиниев Дилшод Абдимуминович,
и.о. профессора кафедры Уголовного процесса Академии МВД,
доктор юридических наук, доцент

О НЕКОТОРЫХ АСПЕКТАХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНО-ПРАВОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПРАВОПРИМЕНИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКИ ВО ИСПОЛНЕНИЕ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»

Обеспечение реализации принципов светского государства в актах законодательства и правоприменительной практике, защита прав и законных интересов граждан, прежде всего молодежи от воздействия деструктивных сил является важной задачей государства.

Обеспечение соблюдения законодательства на национальном информационном пространстве, повышение культуры использования информации, защита населения от воздействия чуждой и деструктивной информации, предотвращение радикализации является одним из приоритетных целей, изложенных в Стратегии «Узбекистан – 2030» утвержденных Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 (*направление 5.2. Реформы по усилению безопасности и оборонного потенциала страны указанной Стратегии*)

Следует отметить, что свобода совести – это гарантированное конституционное право граждан исповедовать любую религию или не исповедовать никакой. Вовлечение несовершеннолетних в религиозные организации вопреки их воле, воле родителей или их законных представителей; использование религии в целях насильственного изменения конституционного строя, подрыва суверенитета и территориальной целостности республики, ущемления конституционных прав и свобод граждан, пропаганды войны, национальной, расовой, этнической или религиозной вражды не допускается (*ст. 4 Закона «О свободе совести и религиозных организациях»*).

Обеспечение свободы совести, защита населения, прежде всего молодежи от пагубного влияния деструктивных сил, в частности от влияния распространяемых в Интернет пространстве запрещенных религиозных материалов на сегодняшний день остается весьма актуальным.

На сегодняшний день сфера противодействия распространению запрещенных религиозных материалов регулируется в основном **8** актами законодательства, из них **4** закона, **2** Указа Президента, **2** Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан.

Законодательство Республики Узбекистан, как и международное, ориентировано в первую очередь на защиту прав человека, обеспечение стабильности деятельности государства. В Узбекистане принят ряд нормативно-правовых актов, содержащих нормы, обеспечивающие борьбу с распространением религиозного экстремизма и терроризма.

Узбекистан является участником **14** международных соглашений и региональных договоренностей по борьбе с терроризмом.

Базовые конвенции ООН по борьбе с терроризмом: «О преступлениях и некоторых других актах, совершаемых на борту воздушных судов» (1963 г.) и «О борьбе с незаконным захватом воздушных судов» (1970 г.), «О борьбе с захватом заложников» (1979 г.), «О борьбе с финансированием терроризма» (1999 г.), «О взаимной правовой помощи и выдаче в целях борьбы с терроризмом» (2008 г.), и др. легли в основу принятия национальных профильных законов.

Так, в целях борьбы с религиозным экстремизмом и терроризмом приняты законы «О борьбе с терроризмом», «О противодействии экстремизму», «О противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения», специальные нормы (ст.244^1, 244^2, 244^3, 157, 159 и др.) Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Законы «Об органах внутренних дел», «О службе государственной безопасности Республики Узбекистан», «О национальной гвардии Республики Узбекистан» также позволили укрепить правовую основу профилактики в сфере борьбы с религиозным экстремизмом и терроризмом.

В соответствии с рекомендациями Глобальной контртеррористической стратегии ООН (ГКТС ООН), других международных документов указом Президента Республики Узбекистан принята Национальная стратегия Республики Узбекистан по противодействию экстремизму и терроризму на 2021–2026 годы. Она предусматривает поэтапную реализацию комплекса эффективных мер, направленных на предупреждение и предотвращение экстремизма и терроризма, устранение источников их финансирования, а также объединение национальных и международных усилий в данной сфере.

Справочно: Глобальная контртеррористическая стратегия ООН, (резолюция: A/RES/60/288), состоит из четырех следующих компонентов:

– устранение условий, способствующих распространению терроризма;

– меры по предотвращению терроризма и борьбе с ним;

– меры по укреплению потенциала государств по предотвращению терроризма и борьбе с ним и укреплению роли системы Организации Объединенных Наций в этой области;

– меры по обеспечению всеобщего уважения прав человека и верховенства права в качестве фундаментальной основы для борьбы с терроризмом.

Предпринятые меры позволили Узбекистану в новом «Глобальном индексе терроризма» за 2023 год среди 163 государств занять 70 место и вновь войти в категорию стран с низким уровнем террористической опасности. Сегодня, Узбекистан находится среди безопасных стран мира.

Предпринимаемые меры.

Согласно «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы (*УП №60, от 28 января 2022 г.*) предусмотрено формирование следующих эффективных механизмов противодействия экстремизму и терроризму (цель 82):

– осуществление эффективной государственной политики по противодействию экстремизму и терроризму, позволяющей обеспечивать права и свободы граждан;

– совершенствование превентивных механизмов, направленных на предупреждение факторов, способствующих экстремизму и терроризму, улучшение социально-духовной атмосферы, предотвращение воздействия чуждых идей и устранение проблем лиц, оказавшихся под их влиянием, путем проведения системной работы;

– формирование у населения, особенно молодежи, твердого и устойчивого иммунитета против идеологии терроризма и экстремизма;

– совершенствование международно-правовых основ противодействия экстремизму и терроризму, а также расширение договорно-правовых основ сотрудничества с зарубежными государствами, региональными и международными организациями в сфере противодействия экстремизму и терроризму и др.

В 2019 году создан уполномоченный орган в сфере выработки и реализации единой государственной информационной политики – Агентство информации и массовых коммуникаций, одними из основных функций которого является принятие мер по недопущению распространения в средствах массовой информации, в сети Интернет запрещенной информации, оказание содействия по защите физических и юридических лиц от распространения через средства массовой информации запрещенной информации.

Вместе с тем, наблюдаются случаи совершения преступлений со стороны лиц, прежде всего молодежи, которые в поисках в религиозном образовании ответов на волнующие их вопросы, зачастую попадают под влияние различных деструктивных религиозных идей в сети Интернет и социальных сетях.

В этой связи, в список запрещенных в Узбекистане информационных материалов на основании решений Верховного суда признаны более **500** материалов радикального содержания, которые запрещениы к изготовлению, распространению, хранению, ввозу и демонстрации.

Справочно: *ст. 244[1] УК предусматривает ответственность за изготовление, хранение, распространение или демонстрацию материалов, содержащих угрозу общественной безопасности и общественному порядку.*

В зарубежных государствах также актуальными остаются вопросы составления списков запрещенных организаций и информационных источников.

Так, в США под запретом находятся **68** экстремистских и террористических организаций, России – **47**, в Великобритании – **78**, Турции – **15**. Кроме того, в РФ запрещены **5342** материалов радикального характера, Казахстане – **1133**, Кыргызстане – **167**, Таджикистане – **2417**.

В этой связи, следует отметить, что **неопределенность, расплывчатость нормы** могут привести к **произвольному ее применению** государственными органами и должностными лицами.

Поэтому они должны быть сформулированы таким образом, **чтобы каждый точно знал, за какие именно деяния –за хранение литературы, какой литературы, в каком количестве, с какой целью и т.д. – будет нести ответственность**.

Говоря о пробелах, «белых пятнах» национального законодательства, правоприменительной практики, следует отметить, что совершентствование законодательства является одним из важных направлений профилактики правонарушений в этой сфере.

В частности, в диспозициях ст. 244[1] УК **не раскрыты и не детализированы** условия

наступления ответственности, **форма вины** за **изготовление**, **хранение**, **распространение** или **демонстрацию** материалов, прежде всего связанных с **хранением** с целью распространения такого рода материалов, **демонстрацией** атрибутики или символики религиозно-экстремистских, террористических организаций.

Документом, регулирующим **судебно-следственную практику** в этой сфере, является Постановление Пленума Верховного суда № 32 от 27 ноября 2021 г. «О некоторых вопросах судебной практики по уголовным делам о финансировании терроризма и экстремизма», который был принят для решения вопросов, связанных с финансированием терроризма и экстремизма, обеспечения правильного, единообразного применения норм закона на практике.

Однако, в нормах данного акта, кроме описания известных случаев, изложенных в диспозициях 1 и 2 части ст. 244[1] УК (*пункты 16 и 17*), каких-либо комментариев, характеристики наступления ответственности за **изготовление**, **хранение**, **распространение** или **демонстрацию** материалов, прежде всего связанных с **хранением** с целью распространения такого рода материалов, **демонстрацией** атрибутики или символики религиозно-экстремистских, террористических организаций не приведены, не раскрыты.

В Положении о порядке изготовления, ввоза и распространения материалов религиозного содержания и проведения религиоведческой экспертизы, утвержденном Постановлением Кабинета Министров от 14 апреля 2022 года № 180, определены общие требования к **изготовлению**, **ввозу** и **распространению** материалов религиозного содержания и **проведению религиоведческой экспертизы**.

Ответственным за производство экспертизы определен Комитет по делам религии, отрицательное заключение которого является основой привлечения лица к ответственности.

И в данном документе **не предусмотрено проведение экспертизы** по материалам которые находились (*обнаружены, выявлены*) на **хранении** или связаны с **демонстрацией** атрибутики или символики религиозно-экстремистских, террористических организаций.

В целях совершенствования нормативно-правовых актов, а также правоприменительной практики целесообразно:

1) внести изменения и дополнения в Закон «О противодействии экстремизму» касательно необходимости **опубликования** и **обновления** на официальных веб-сайтах Министерства юстиции и Верховного суда перечня, запрещенных ввозу, изготовлению, хранению, распространению и демонстрации на территории республики экстремистских материалов, атрибутики и символики экстремистских организаций;

2) разработать проект Закона о внесении изменений и дополнений в ст. 244[1]УК, в диспозициях которого необходимо **раскрыть**, **детализировать** условия наступления ответственности, **форму вины** по каждому элементу данного преступления – **изготовление**, **хранение**, **распространение, демонстрация** материалов, содержащих идеи религиозного экстремизма, сепаратизма и фундаментализма;

3) разработать новое или дополнить действующее Постановление Пленума Верховного суда № 32 от 27 ноября 2021 г., в котором целесообразно **раскрыть**, **детализировать** условия наступления ответственности, **форму вины** за **изготовление**, **хранение**, **распространение** или **демонстрацию** материалов, прежде всего связанных с **хранением** с целью распространения такого рода материалов, **демонстрацией** атрибутики или символики религиозно-экстремистских, террористических организаций не приведены, не раскрыты.

4) внести изменения и дополнения в Постановление Кабинета Министров от 14 апреля 2022 года № 180, в котором следует раскрыть условия **проведения экспертизы** по материалам которые находились (*обнаружены, выявлены*) на **хранение** или связаны с **демонстрацией** атрибутики или символики религиозно-экстремистских, террористических организаций.

Обеспечение реализации принципов светского государства, защиты прав и законных интересов граждан, прежде всего молодежи от воздействия деструктивных сил будет служит совершенствованию уголовно-правового законодательства и правоприменительной практики, а также безусловному выполнению требований Стратегии «Узбекистан – 2030».

Xudoyberdiyev Axror Qosimaliyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
1-sonli Toshkent litseyi kafedra boshlig‘i, yuridik fanlari doktori professor;
Nurillayev Umidjon Kupalovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamenti boshqarma boshlig‘i
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

MA’MURIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQ IJODKORLIGI FAOLIYATI

Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ongi darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi mamlakat qonun ijodkorligi faoliyatining takomillashib borishiga ijobiy ta’sir etmay qolmaydi. Jumladan, qonunlar ijrosini ta'minlash va ularni ijtimoiy hayotga to‘liq joriy etishda ichki ishlar organlarining xizmati alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini himoya qilish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va 2017 –2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga erishish davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg‘un faoliyatini tashkil etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o‘tkazilayotgan islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga hamda qo‘yilgan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu islohotlarni huquqiy asosi sifatida 2017-yil 8-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5185-sonli Farmoni qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish va liberallashtirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishning muhim maqsadlaridan kelib chiqib mamlakat uchun muhim **huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy islohotlar Konsepsiyasi** ham qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy islohotlar Konsepsiyasi qabul qilinishidan ko‘zlangan maqsad shuki, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarining to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta’minlay oladigan, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini o‘z vaqtida aniqlaydigan va samarali hal qiladigan davlat boshqaruvi tizimining aniq faoliyatini belgilab berishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–269-son Farmoni bilan vazirlik, qo‘mita, agentlik va inspeksiyalarni o‘z ichiga oladigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yagona tizimi belgilab berildi.

Jumladan, davlat organlarining sohaga oid bo‘lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o‘rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o‘rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish

bekor qilindi.

Yuqorida ko‘rsatilgan islohotlarda ichki ishlar organlarining samarali faoliyatini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Shunday ekan, ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi va norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirish borasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ichki ishlar organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrochilarga yetkazilishi va ularning ahamiyati bo‘yicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini barqarorlashtirish islohotlarning muhim omiliga aylanmoqda.

Ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi faoliyati samaradorligining asosiy sharti jamoatchilik fikrini izchil o‘rganish va unda turli mutaxassislik olimlari va huquqni muhofaza qiluvchi amaliyotchilarning keng ishtirok etishidir [1].

Shuningdek, ichki ishlar organlari huquq ijodkorligi faoliyatida eng muhim omillardan biri shuki, ushbu organlarning davlatning oliy organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligi hamda ushbu sohada uchraydigan muammolarni nazariy-huquqiy jihatdan asoslantirishidir. Bu jarayonda ular faoliyatining sotsiologik jihatdan ta’minlash muhim o‘rin tutadi.

Ichki ishlar organlarining faoliyatini sotsiologik ta’minlash ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv va tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligini baholash tizimining tarkibiy qismidir. Tadqiqotchi A.V.Boykoning fikricha, ichki ishlar organlarining faoliyatini sotsiologik ta’minlash to‘rtta asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin: 1) ichki ishlar organlarining faoliyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijobiy qiyofasi (imidji)ni shakllantirish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun ijtimoiy fikrni o‘rganish; 2) patrul-post xizmati, tezkor va tergov bo‘linmalari, profilaktika inspektorlari, migratsiya masalalari bo‘yicha bo‘linmalarning qonuniylikka rioya etish va inson huquqlarini ta’minlash sohasidagi aniq vaziyatni o‘rganishi; 3) huquq-tartibotning ahvolini o‘rganish, fuqarolarning xavfsizligi darajasini baholash maqsadida viktimologik tadqiqotlar o‘tkazish va ularni kuchaytirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish; 4) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aholi turli qatlamlari bilan hamkorlik qilish hamda ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan ishlash bo‘yicha ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqish [2].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham ichki ishlar organlari faoliyatida sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalaridan samarali foydalanish masalalari yuzasidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ichki ishlar organlarining huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, ijtimoiy voqelikning bir qismi sifatida huquq-tartibotning (hududdagi tezkor vaziyatning) ahvoli bir butun tizim hisoblanadi. Ushbu tizim quyidagi elementlardan iborat:

1) u haqida axborot to‘plash, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish, so‘rovlar o‘tkazish, ichki ishlar organlarining ish tajribasini, ular faoliyatining natijalarini tavsiflash, qaror topayotgan amaliyotni umumlashtirish;

2) ichki ishlar organlarida (yoxud jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida) yuz berayotgan jarayonlarni tahliliy (sotsiologik, kriminologik) jihatdan tadqiq etish [3].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ichki ishlar organlari jamoatchilik fikrini ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganganlari ma’qul: *birinchisi* – jamoat fikrining holatini va uning mintaqalardagi ijtimoiy guruhlarda amal qilish jarayonini tahlil qilish; *ikkinchisi* – jamoat tartibini saqlash va jamiyat xavfsizligini ta’minlash masalalari borasida jamoat fikrining shakllanishi (aholining ichki ishlar organlariga xabar berishi) jarayonini tahlil qilish [4].

Bundan tashqari Ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi faoliyati bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi IIV ning “Ichki ishlar organlarida ichki idoraviy hujjatlarni tayyorlash, kelishish va qabul qilish qoidalari»ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 24 iyunda 156-son buyrug‘i qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV ning 2017 yil 23 martda qabul qilingan «Ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjatlarning ijrochilarga yetkazilishi hamda mohiyati va ahamiyatining aholi o‘rtasida tushuntirish yuzasidan na’munaviy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 44-sonli buyrug‘ining 7-bandida «Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyati va ahamiyatini aholiga ommaviy axborot vositalari orqali yetkazish, bunda mustaqil ekspertlar, mutaxassislar va aholining fikri va munosabatini aks ettiruvchi tahliliy tok-shoular, bahs-munozaralar hamda qonun hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini keng muhokama qilishning boshqa zamonaviy shakllarini nazarda tutuvchi media-reja ishlab chiqish» belgilangan. Bunda tegishli Respublika oliy organlari tomonidan qonun yoki normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan so‘ng ularning ijrosini tashkil etishda ichki ishlar organlarining faoliyat yo‘nalishlari alohida tahlil qilinishi belgilangan. Ichki ishlar organlari tomonidan viloyatlar, shaharlar va tumanlarda qonunlarning ijrosini tashkil etish, kerak bo‘lsa

tumanlarning chekka-chekka qishloqlari va mahallalarida qonunlarning mazmunini tushuntirish, odamlarning dardini tinglash bilan bog‘liq masalalar tadqiqot ishining o‘rganish predmeti hisoblanadi.

Aholiga qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, targ‘ibot tadbirlarida aholi tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni umumlashtirish hamda tegishliligi bo‘yicha kiritish (zarur hollarda, belgilangan tartibda ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish) muhim. Huquqiy tartibni ta’minlash masalalari borasidagi jamoatchilik fikri, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Fuqarolar ichki ishlar organlari ularning huquqiy tartibni ta’minlash borasidagi faoliyatini ifodalovchi axborot bilan qiziqishini bilganlaridan keyin jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda yordam berishga harakat qiladi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz bo‘lib boradi [5].

Ichki ishlar organlarining qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligining asosiy sharti jamoatchilik fikrini izchil o‘rganish va unda turli mutaxassisliklar olimlari va huquqni muhofaza qiluvchi amaliyotchilarning keng ishtirok etishidir [6]. Tadqiqotning sotsiologik, ijtimoiy, psixologik, huquqiy, iqtisodiy, statistik va boshqa usullari yordamida operativ vaziyatning shakllanish qonuniyatlarini va real holatini, ichki ishlar organlarining apparatlari va xizmatlari tashkiliy faoliyatining uslubiga xos xususiyatlarni, ichki ishlar organlari samarali faoliyat ko‘rsatishining sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni, jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni ochish borasidagi choralarning samaradorligini aniqlash va ifodalash mumkin bo‘ladi [7].

Shunday qilib, qonunchilikda ishtirok etgan ichki ishlar organlari huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish, qonun loyihalari bo‘yicha sharhlar, xulosalar va tuzatishlar kiritishga jalb qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ichki ishlar organlarining vakillari qonun ijodkorligi bilan bog‘liq davlat organlari ishida ishtirok etishlari lozim.

Ichki ishlar organlari oliy davlat hokimiyati organlari, xususan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan va ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishda faol ishtirok etadi. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ichki ishlar organlari vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash ularning bevosita vazifasi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari tegishli davlat organlariga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar kiritish huquqiga ega. Davlat hokimiyati ijro etuvchi organlarining qonun loyihalari ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Qonun loyihasining rejalari odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qonun loyihasining dastlabki nomi, loyihani ijro etuvchi bo‘limlar va qonunchilik organiga taqdim etish muddati, shuningdek qonun loyihasining ijrochilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Ichki ishlar organlari davlat boshqaruvi va ma’muriy islohotlarni amalga oshirishda muhim organ hisoblanadi va jarayonlarning faol ishtirokchisidir. Shuningdek, ushbu jarayonni amalga oshirishda huquq ijodkorligi sohasida o‘ziga xos vakolatlarga ega bo‘ladi. Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy faoliyati ichki ishlar organlari ijro va ma’muriy faoliyatining huquqiy shakli bo‘lib, boshqaruv jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari huquq ijodkorligi faoliyatining maqsadi boshqaruvning huquqiy asoslarini yaratish, boshqaruvga oid ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Ichki ishlar organlarining normativ faoliyati o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan va turli yo‘nalishdagi ko‘plab texnologik usullar, texnikalar, protseduralarni qamrab olgan maxsus texnologik jarayon hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdagi vakolatlari asosan qonunchilik tashabbusi subyektlari uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqishda ishtirokida namoyon bo‘ladi. Ichki ishlar organlarining qonunchilikda ishtiroki tashabbuskor tartibda ham, boshqa davlat hokimiyati organlari topshirig‘iga binoan ham amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi – jamiyat maqsadlariga erishishga qaratilgan, ichki ishlar organlarining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda va ularning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash, belgilangan talablarga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish va ularni yaratishda ishtirok etish bo‘yicha vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan faoliyati hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligining asosiy sharti jamoatchilik fikrini izchil o‘rganish va unda turli

mutaxassislik olimlari va huquqni muhofaza qiluvchi amaliyotchilarning keng ishtirok etishidir.

Ichki ishlar organlarining faoliyatini sotsiologik ta'minlash to'rtta asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: 1) ichki ishlar organlarining faoliyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijobiy qiyofasi (imidji)ni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish uchun ijtimoiy fikrni o'rganish; 2) patrul-post xizmati, tezkor va tergov bo'linmalari, profilaktika inspektorlari, migratsiya masalalari bo'yicha bo'linmalarning qonuniylikka rioya etish va inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi aniq vaziyatni o'rganishi; 3) huquq-tartibotning ahvolini o'rganish, fuqarolarning xavfsizligi darajasini baholash maqsadida viktimologik tadqiqotlar o'tkazish va ularni kuchaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish; 4) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aholi turli qatlamlari bilan hamkorlik qilish hamda ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan ishlash bo'yicha ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqish.

Qonunchilik faoliyatida ishtirok etgan ichki ishlar organlari huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, qonun loyihalari bo'yicha sharhlar, xulosalar va tuzatishlar kiritish uchun jalb qilinadi. Ichki ishlar organlari vakillari qonun ijodkorligi bilan bog'liq davlat organlari ishida ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соловьев А.А. Правотворческая деятельность органов внутренних дел субъектов российской федерации. – С. 7.

2. Бойко А.В. Социологическое обеспечение деятельности полиции в современных условиях // Азимут научных исследований: педагогика и психология, 2017. Т.6. – № 4(21).– С. 384.

3 (7). Ички ишлар органларида бошқарув-ахборот-таҳлил фаолияти асослари. – Б. 251.

4. 2017 йил 8 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ 5185 сонли Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси ИИВ нинг 2017 йил 23 мартдаги «Ички ишлар органларида норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ижрочиларга етказилиши ҳамда моҳияти ва аҳамиятининг аҳоли ўртасида тушунтириш юзасидан наъмунавий чора-тадбирлар режасини тасдиқлаш тўғрисида»ги 44-сонли буйруғи,

6. Ўзбекистон Республикаси ИИВ нинг "Ички ишлар органларида ички идоравий ҳужжатларни тайёрлаш, келишиш ва қабул қилиш қоидалари»ни тасдиқлаш тўғрисида"ги 2017 йил 24 июнда 156-сон буйруғи.

Xudoyberdiyev A.Q., Nurillayev U.K. Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquq ijodkorligi faoliyati

Maqolada respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinib, ichki ishlar organlarining ma'muriy islohotlarni amalga oshirishdagi huquq ijodkorligi faoliyati, shuningdek uni sotsiologik ta'minlash, jamoatchilik fikrini o'rganish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: ma'muriy islohot, huquq ijodkorligi, ichki ishlar organlari, sotsiologik tadqiqotlar, qonunchilik, jamoatchilik fikri.

Xudoyberdiev A.Q., Nurillayev U.K. Legal activity of the internal affairs in the implementation of administrative reforms

The article analyzes the main directions of administrative reforms implemented in our republic, discusses the law-making activities of internal affairs bodies in the implementation of administrative reforms, as well as its sociological support, public opinion research.

Key words: administrative reform, law creation, internal affairs bodies, sociological research, legislation, public opinion.

Худойбердиев А.Қ., Нуриллаев У.К. Правовая деятельность органов внутренних дел при осуществлении административных реформ

В статье анализируются основные направления административной реформы, реализуемой в нашей республике, рассматривается правотворческая деятельность органов внутренних дел при реализации административной реформы, а также ее социологическое обеспечение, изучение общественного мнения.

Ключевые слова: административная реформа, правотворчество, органы внутренних дел, социологическое исследование, законодательство, общественное мнение.

Xatamov Farxod Faxriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori

HUQUQNING REGULYATIV FUNKSIYASI VA SHAXS MAS’ULLIGI

Huquq falsafasi pozitivlikni ma’lum bir huquq tizimida qarashga undaydi, ushbu tizimga xos xususiyatlar ijtimoiy-huquqiy borliqqa qanday regulyativ ta’sir etayotganini (yoki ta’sir etmayotganini) obyektiv o‘rganishga yordam beradi. Huquq “o‘zi o‘zi uchun mavjud” voqelik emas, u o‘zidan tashqaridagi hayotni, ya’ni ijtimoiy borliq, ushbu borliqdagi munosabatlar, shaxs va jamiyat, davlat, boshqaruv idoralari o‘rtasidagi koordinatsion va subordinatsion aloqalarni tashkil etish, yo‘lga qo‘yish uchun mavjuddir. Uning ushbu tashkiliy va regulyativ funksiyalari pozitiv bo‘lishi, ma’lum bir muammolarni ijobiy hal etishga yordam berishi shart, aks holda huquqning o‘zi ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun huquqshunoslar huquq fenomenini o‘z ichiga oluvchi huquqiy tizimni:

“davlatning turli me’yoriy hujjatlarida, qonunlarida ifoda etilgan obyektiv (pozitiv) huquqning o‘zi; huquqiy ideologiya (huquqiy ongning faol tomoni); sud (yuridik) amaliyot” bilan bog‘lab qarashga undaydilar [1]. Demak, huquq fenomeni haqida gap ketganida uning ushbu tizimlar bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor berish, undagi pozitiv jihatlarni ular orqali aniqlashni taqozo etadi. Obyektiv pozitiv huquq davlat va uning boshqaruv institutlarining me’yoriy hujjatlarida, qonunlari va normativ aktlarida ifoda etilishi ilm-fanda aksioma sifatida qabul qilingan. Biroq bu davlat va uning boshqaruv institutlari qabul qiladigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mutlaq obyektivligini, mutlaq to‘g‘riligini hali isbotlamaydi. Ba’zi me’yoriy-huquqiy hujjatlar gipotetik yoki prognostik xususiyatga ega bo‘lishi, ba’zilari esa umuman bajarilmasligi mumkin. Bunday holda huquqning pozitiv voqeligi nima bo‘ladi? Bunday qonun ijodkorligini qanday baholash kerak bo‘ladi?

Bizning fikrimizcha, birinchidan, har qanday qonun, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’lum bir ijtimoiy-huquqiy vazifalarni bajarishga qaratilgani uchun ijobiy hodisa sifatida baholanishi kerak. Ha, ushbu hujjatni ishlab chiqish jarayonida subyektivizmga berilgan, ma’lum bir omillar yetarli hisobga olinmagan va huquq fenomenining roliga ko‘proq urg‘u berilgan yoki boshqaruv institutlarining faolligiga ortiqcha ishonilgan bo‘lishi mumkin. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarning kerakli natijaga olib kelmaganining boislari rang-barang, xilma-xil bo‘lishi, goho ichki va tashqi omillar ta’siri e’tiborga olinmay qolishi obyektiv holdir. Qanday bo‘lganida ham, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijtimoiy borliqdan, hayotdan ustun tura olmaydi, shuning uchun ularni ijtimoiy borliqqa, hayotga xizmat qiluvchi vositalar, deb hisoblash darkor.

Hayot esa mutlaq haqiqatga qurilmaydi, uning sotsiodinamik xususiyatlari barcha vositalarga, shu jumladan, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, kerak bo‘lganida ularni normativ hujjatlar reyestridan chiqarib olishga undaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy borliqqa, boshqaruv faoliyatiga va inson-jamiyat-davlat munosabatlariga yetarli ijobiy ta’sir etmaydigan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar ma’lum bir ma’noda huquqdagi bo‘shliqni to‘ldirgani bilan e’zozlidir. Samarasi kam qonunlardan ko‘ra, huquqdagi bo‘shliq jamiyatga, davlatga qimmatga tushadi, chunki bu bo‘shliqdan destruktiv kuchlar darrov foydalanib qoladi, boshqaruv ishlarini, institutlardagi subordinatsiya aloqalarini o‘z qo‘llariga olishga intilishini siysiy-tarixiy bosqichlar tasdiqlaydi.

To‘g‘ri, yetarli samara bermaydigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilmaslik, qonun ijodkorligida “yetti o‘lchab bir kes” naqliga amal etish lozim, agar shunday hujjat qabul qilingan bo‘lsa, uni takomillashtirish yoki undan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar hali davlatning, boshqaruvning to‘la o‘zi emas, balki ularning bir tomonidir. Shuning ushbu tomonni obyektning umumiy maqsadiga muvofiqlashtirish imkoni mudom mavjuddir. Bizning mavzumizda umumiy maqsad boshqaruv institutlarining to‘laqonli, samarali va kreativ ishlashidir.

Kreativlik yaratuvchanlikka qaratilgan faollikni, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini nazarda tutgan izlanishlarni anglatadi. Bu kreativlik boshqaruv institutining to‘laqonli va samarali faoliyat olib borayotganini ifodalaydi. Aslida huquqning pozitivligi ham kishilarning, jamiyatning to‘laqonli, samarali va kreativ yashayotganida namoyon bo‘ladi. Buni huquqshunoslar huquqning regulyativ funksiyasiga yo‘yadilar. Ha, huquqning regulyativ

funksiyasi davlat va har qanday institutlarga boshqaruv mexanizmlarining operativ va samarali ishlashiga yordam beradi, buni inkor qilib bo'lmaydi. Lekin boshqaruv faoliyatining samarali kechishi faqat huquq regulyativ funksiyasining mahsuli, natijasi emas. Hatto subordinatsiya ham huquqning regulyativ aralashishi bilan cheklanib qolmaydi, unda boshqarishning barcha vositalari va mexanizmlari qatnashadi.

Pozitiv huquq va uning boshqaruv faoliyatiga ta'siri ustida gap ketganida shaxsning jamiyat, kishilar, mehnat jamoasi oldidagi mas'ulligi, bu mas'ullikning iroda, erk va qiziqishlar bilan bog'liqligi alohida ta'kidlanishi zarur. Huquqning regulyativ funksiyasi shaxs mas'ulligini belgilashga muhim e'tibor qaratadi. Mas'ulliksiz boshqaruv yo'q, shaxsning jamoadagi o'rni unga yuklatilgan mas'ullik hajmi orqali belgilanadi. Pozitiv huquq ushbu mas'ullik hajmini, uning doiralarini va mexanizmlarini belgilab beradi. Boshqaruv ishlarida mas'ullik hajmi barchada bir xil, barobar bo'lolmaydi, kimgadir ular ko'proq beriladi, kimlardir ularning amaliy ijrosi bilan shug'ullanadi. Mas'ullik hajmi qaror qabul qiluvchida kengroq, ko'proq bo'ladi. Bu hayotiy, tabiiy hol. Shu bilan birga mas'ullikning ayrim bir kishilarga to'la berilishi boshqarishni maxsus huquq (masalan, ma'muriy huquq)ga taalluqli voqelikka aylantiradi. Demak, pozitiv huquq mas'ullik elementi orqali maxsus huquqqa aylanadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, pozitiv huquq ijtimoiy hayotning o'zidan kelib chiqadigan, urf-odatlar, axloqiy imperativlar bilan belgilanadigan tabiiy huquqdan farq qiladi, u maxsus institutlar va davlat tomonidan ijtimoiy zarur va foydali norma sifatida qabul qilinadi, kishilar hayotiga, munosabatlariga, sotsiumga joriy etiladi [2]. Shuning uchun mazkur normativlarda, qonunlarda ma'lum bir kamchiliklar, takomilini topmagan qoidalar bo'lsada, ular jamiyat tomonidan ijobiy narsa sifatida qabul qilinadi.

Agar jamiyat, davlat tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni pozitiv voqelik deb atasak, mazkur hujjatlar keltirib chiqaradigan natijalar ham pozitiv bo'lishi darkor. Bois (hujjat, qonun) bilan natija (yutuq, xulq atvor) mohiyatan aynan, ya'ni ijobiy narsadir. Ming afsuski, real hayotda ular mudom aynan bo'lavermaydi. Hujjatlar qanchalik pozitiv ahamiyat kasb etmasin, ularning to'la amal qilishiga xalaqit beradigan obyektiv va subyektiv to'siqlar paydo bo'laveradi.

Birorta qonun to'la-to'kis amal qilgan, mutlaq pozitiv natijalarga olib kelgan emas, bunday hujjat bo'lganini jamiyatlar bilmaydi. Agar biz qonunlarni, hujjatlarni natijalariga qarab baholaydigan bo'lsak, bois funksiyalarini bajaruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ijtimoiy-huquqiy borliq nuqtai nazaridan bir qator talablar qo'yishimiz zarur bo'ladi. Chunki bunday hujjatlar shunchaki ermak uchun qabul qilinmaydi, ular kishilar va sotsium hayotidan joy olishi, real voqelikka aylanishi kerak. Bu talablarga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin:

– obyektivlik;
– dolzarblik;
– reallik;
– zarur mexanizmlar bilan ta'minlanganlik;
– konstruktivlik;
– kreativlik;
– ijobiylik;
– uzluksizlik;
– rad etilish.

Obyektivlik huquqqa qo'yiladigan bosh talabdir. "Huquq anatomiyasi" [4] ushbu talabga quriladi va uning xususiyatlariga muvofiq amal qiladi. Shu bilan birga, obyektivlik huquq tayanadigan, barcha talablarida undan kelib chiqadigan, bazaviy ahamiyatga ega reallikdir. Huquq fenomenining qanday bo'lishini, hujjatlarning qanday ifodada kelishini, normativ talablarning qanday mexanizmlar vositasida bajarilishini ana shu reallik belgilab beradi. Bu reallik jamiyat barqarorligi, davlat ehtiyojlari, taraqqiyot talablari, boshqaruv xususiyatlari kabilardan iborat. Demak, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar kimningdir subyektiv xohishi, egoistik irodasi bilan qabul qilinmaydi, ular yuqoridagi talablar ifodasi sifatida kelganidagina kerakli natijalar beradi.

Shu bilan birga, bu o'rinda yetakchining, rahbarning roli masalasi o'rtaga chiqadi. Uning roli, mas'ulligi, yetakchilik xususiyatlari qayerga ketadi, haqiqatan ham, uning faoliyati obyektivlik talablariga muvofiq keladimi, degan savollar uyg'onadi. Jamiyat, davlat, sotsiumdagi munosabatlar ma'lum bir barqaror boshqarish tizimlarini taqozo etadi. Bu tizim boshqarish uchun mas'ullikni o'z ustiga olgan rahbarsiz, tashkilotchilik salohiyatiga ega yetakchisiz bo'lishi mumkin emas [4]. Boshqarishdagi ziddiyatlar ko'pincha jamoa bilan yetakchi, rahbar munosabatlariga, simpatiya va antipatiyalarga borib taqaladi. Ularni har doim ham me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan regulyatsiya qilib bo'lmaydi, bu o'rinda jamiyatda

amal qiladigan va obyektiv normalarga aylangan axloqiy imperativlar, urf-odatlar, burch haqidagi tasavvurlar muhim rol o'ynaydi. Huquqshunoslikda "tabiiy huquq" deb ataladigan ushbu normalar obyektivlikning eng ta'sirchan mexanizmlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Obyektivlik ko'pincha ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining ifodasi sifatida keladi. Bu qonunlar xalq manfaatlari, ijtimoiy munosabatlar dinamikasi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, turli ehtiyoj va talablarning majmuasi, ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar, siljishlar kabilarda namoyon bo'ladi[5]. Obyektiv hayot va subyektiv omillar uyg'unligi, ularning rang-barang vaziyatlarda o'zgarib, evrilib, goho to'xtab, hatto orqaga qaytib turishi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ta'sir etsa-da, ulardagi barqarorlikni yo'q qilolmaydi. Qonunlar barqarorligi bilan obyektiv borliq talablariga javob bera oladi, tinmay o'zgaradigan hujjatlar jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda boshboshdoqlikni, xaosni keltirib chiqaradi. Obyektiv hayotda shunday barqaror narsalar, qadriyatlar mavjudki, me'yoriy-huquqiy hujjatlar ularni hisobga olishga majbur. Dolzarblik ijtimoiy hayotning dinamik xususiyatlaridan, borliqni o'zgartirishga, takomillashtirishga bo'lgan intilishlardan kelib chiqadi, jamiyatdagi transformatsiyaga moyillik, yangi-yangi narsalarning yaratilishi, boshqarish usullari va mexanizmlarining murakkablashuvi kabi omillar uni, ya'ni dolzarblikni zaruriyat sifatida qabul qilishga undaydi. Dolzarblik hayot kun tartibiga qo'yayotgan muammoga munosabat, uning yechimlarini izlashdir. Muammoga munosabat subyektning fuqarolik pozitsiyasini, muammoni tushunish va unga yechim topish qobiliyatini ifoda etadi. Muammoni anglash boshqa, unga kreativ munosabat boshqa. Metafizik talqinda muammoga munosabatni subyektiv baholash, fikrlash va mushohadalarga yo'yish mumkin, ushbu imkoniyatning kishi miyasida, ongida aks etishi mudom nafaqat miya tuzilishiga, shuningdek shaxsiy hayotiy tajribaga, bu tajribani gnoseologik sintezdan o'tkazishga bog'liq bo'ladi.

Bu o'rinda, bizning fikrimizcha, rus faylasufi I.A.Ilinning metafizik mushohadalarning shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'liqligi yoki obyekt bilan subyektning yaqinligi haqidagi fikrlarini keltirish mumkin. U yozadi: "Falsafa haqida mulohaza yuritish uchun u bilan yashamoq zarur; kim falsafa predmeti bilan yashay olmas yoki yashashni istamasa, falsafaning o'zi haqida ham, uning predmeti haqida ham xulosa chiqarishdan o'zini tiyishi shart.Demak, falsafa, o'z mohiyati bo'yicha, nafaqat hayotga begona, balki o'z predmeti va manbai orqali u bilan bog'liq. Falsafa qanday anglanmasin, u mudom bilim bo'ladi. Ammo bilim obyekt va subyekt o'rtasidagi uchrashuv yoki yaqinlik, yoinki, birikish shaklida kelishidan boshqacha bo'lishi mumkin emas" [5].

Gap falsafaning shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'liqligi ustida ketayotgan bo'lsa-da, uni har qanday metafizik, shu jumladan, huquq haqidagi metafizik mulohazalarga ham, taalluqli deyish mumkin. Hatto huquq haqidagi metafizik mushohadalarning hayotiy tajriba bilan uzviy bog'liqligi ilmiy falsafadagidan ham ko'proqdir. I.A.Ilin nazarda tutgan shaxsiy hayotiy tajriba falsafa predmetini mudom real hayot, u kun tartibiga qo'yayotgan dolzarb muammolar bilan bog'liqligini mutlaq zaruriy shart qilib qo'yadi, bu bilan u har qanday spekulyativ, spiritualistik va transsendental yondashishlarga joy qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеев С.С. Право: азбука теория философия: Опыт комплексного исследования. - Москва: Статут, 1999. С. 47.

2. O'sha asar. C.31 32.

3. Политическая психология. Москва: Академ. проект, Екатеринбург, Деловая книга, 2003. С.406-410.

4. Haydarov X. Islohotlar qonuniyati. Toshkent: O'zbekiston, 2010. 17- 21 b.

5. Ilin I.A.Falsafa va hayot//Tafakkur, 2018, №4. 24 b.

Xatamov F.F. Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi

Mazkur maqolada huquqning regulyativ funksiyasi shaxs mas'ulligini belgilashga muhim e'tibor qaratilishi va mas'ulliksiz boshqaruv, shaxsning jamoadagi o'rni unga yuklatilgan mas'ullik hajmi orqali belgilanishi hamda boshqaruv ishlarida mas'ullik hajmi barchada bir xil, barobar bo'lolmasligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: mas'ullik, hayotiy, maxsus huquq, ma'muriy huquq, -konstruktivlik, kreativlik, ijobiylik, uzluksizlik, rad etilish, huquq, metafizik, subyektiv baholash, fikrlash.

Хатамов Ф.Ф. Регулирующая функция права и личная ответственность

В данной статье говорится о том, что регулирующая функция закона важна для определения ответственности личности и управления без ответственности, роль человека в коллективе определяется размером возложенной на него ответственности, а размер Ответственность в управленческой работе не может быть одинаковой для всех.

Ключевые слова: ответственность, жизнь, ответственность, специальное право, административное право, -конструктивность, творчество, позитивность, преемственность, неприятие, право, метафизичность, субъективная оценка, мышление.

Khatamov F.F. The Regulatory Function of Law and Personal Responsibility

This article states that the regulatory function of the law is important for determining the responsibility of the individual and management without responsibility, the role of a person in a team is determined by the amount of responsibility assigned to him, and the amount of responsibility in managerial work cannot be the same for everyone.

Key words: Responsibility, life, responsibility, special law, administrative law, constructiveness, creativity, positivity, continuity, rejection, law, metaphysicality, subjective assessment, thinking.

Parmanov Furqat Djumabayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING DAVLAT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA, AHOLINING TURMUSH TARZI VA FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA YORDAM KO‘RSATISH MEXANIZMLARI

Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi degan muammoga duch kelayotgan bugungi kunda har qarich yerdan unumli foydalanish davr talabiga aylanib ulgurdi. Serquyosh zaminimizda tomorqadan unumli foydalangan har bir xonadon, avvalo, ro‘zg‘or uchun zarur qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zlari yetishtirmoqda. Qolaversa, ko‘plab oilalar o‘z tomorqasini qo‘shimcha daromad manbaiga aylantirib, yaxshigina foyda ko‘rishyapti.

Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida serhosil va yuqori daromad beradigan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, moddiy-texnik resurslarni tizimli yetkazib berish orqali ichki iste’mol va eksport uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish hamda qishloq aholisining moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida Hukumat qarori qabul qilingan [1]. Ichki ishlar organlari xodimlariga ushbu qaror bilan bir qator vazifalar belgilab berilganligi ahamiyatlidir. Masalan, endilikda har bir dehqon xo‘jaligida va tomorqa yer uchastkasida yuqori daromad beradigan eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, moddiy-texnik resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish tashkil etiladi.

Qarorda tashqi bozor talablari asosida mahallalarning eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish, “Tomorqa xizmati” MChJlarga mahallalarni biriktirgan holda ular tomonidan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalariga shartnoma asosida urug‘lar, ko‘chatlar va boshqa zarur moddiy resurslarni belgilangan tartibda yetkazib berish, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalariga amaliy yordam ko‘rsatish, “Tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi” hamda boshqa ixtisoslashtirilgan kasbga o‘qitish muassasalarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kasb-hunarga tayyorlash, agrotexnologiya, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik hamda asalarichilik sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish vazifalari ham belgilab qo‘yildi.

Fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish sektor rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hududdagi tomorqa egalari va tomorqa hajmi, yetishtirilishi mumkin bo‘lgan mahsulot to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lish orqali yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva, parrandachilik va hokazolarni tashkil etish bo‘yicha “Yo‘l xarita” tuziladi. Joylardagi mas’ullar bilan hamkorlikda aholiga tomorqadan samarali foydalanish usullari to‘g‘risida tushuntirish ishlari bilan birga amaliy yordam ko‘rsatiladi. Bunda faoliyat yuritayotgan mahalla raislarining tomorqa va obodonlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash masalalari bo‘yicha o‘rinbosar hamda jamoatchilik asosida mahallada faoliyat yurituvchi ishchilar kuchidan foydalaniladi.

Fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha har bir sektor hududida doimiy ravishda har bir xonadonga kirib ularni hovlisidagi yerdan qanday foydalanayotganini o‘rganish choralarini ko‘rish;

har bir mahallada yashovchi fuqarolarni yig‘ib ularga tomorqasidan qanday foydalanish, yerga qanday ekinlar ekib undan foyda olish borasida tegishli qishloq xo‘jaligi xodimlarini, agronomlarni tavsiyalarini olish borasida tushuntirish ishlarini tashkil etish, oilalar o‘rtasida yerdan unumli foydalanish borasida musobaqalarni tashkil etish va tomorqalardan unumli foydalanish borasida “mahallabay” nazoratini kuchaytirish;

tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva -sabzavotchilik, chorvachilik, baliqchilik asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish hamda tomorqani rivojlantirish borasida ko‘maklashish choralarini ko‘rish;

tomorqadan maqsadli foydalanishda aholiga kreditlarni banklardan olish borasida ularga

yordamlar ko‘rsatish choralarini ko‘rish.

Ichki ishlar organi 3 sektor xodimlari uy-ma-uy yurishi natijasida fuqarolarning yashab turgan hovlilaridagi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish borasida tushuntirish ishlarini olib borishlari va tomorqa yerlarga har xil ekinlarni ekish borasida amaliy yordam ko‘rsatishlari kerak.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududida meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo‘jaligi faoliyati turlarini rivojlantirish.

So‘nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

2016–2019 yillar davomida respublikamizda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi – 171,2 foizga, jumladan meva-sabzavotchilik – 172,6 foizga, chorvachilik mahsulotlari – 170 foizga, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish – 177,5 foizga oshdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport hajmi 1,4 mln tonnadan oshib, 2016 yilga nisbatan 1,5 barobarga o‘sishga erishildi[2].

Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo‘yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab qilmoqda.

Ayni vaqtda respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun quyidagi qulay sharoitlar mavjud:

– zaharli moddalar bilan zararlanmagan ekin maydonlari;

– tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan organik mahsulotlarni eksport qilish natijasida aholi daromadini oshirish imkoniyati;

– organik ishlab chiqarish bo‘yicha agroklasterlogistika va kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish natijasida aholi bandligini oshirish imkoniyati;

– laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini tahlil qilish imkoniyati;

– genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan holi mintaqalar.

O‘zbekistonda asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar fermer va dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, bir qismi qishloq xo‘jaligi korxonalari hisoblanadi. Bugungi kunda yetishtirilayotgan kartoshka – 75,3%, sabzavot – 64,1%, poliz mahsulotlari – 48,7%, meva – 52,3% va uzumning – 45,3% dehqon xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda va ular kichik hajmdagi yer uchastkalarida yuqori sifatli, ham ichki, ham tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar. Yetishtirilayotgan kartoshkaning – 23,9%, sabzavot – 35,0%, poliz mahsulotlari – 49,6%, meva – 45,6% va uzumning – 53,2% fermer xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda [3].

Ichki ishlar organi xodimlari faoliyat olib borayotgan 3-sektorda meva sabzavotchilik va uzumchilikning samaradorligi hamda raqobatdoshligini oshirish uchun ham davlat, ham xo‘jaliklarning o‘zlari tomonidan anchagina investitsion mablag‘lar sarfini talab qiluvchi quyidagi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, zaxlab, sho‘rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli va tizimli amalga oshirish;

tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olish;

suv tanqisligi sharoitida sug‘orish texnikalari va texnologiyalarni takomillashtirish, jumladan, tog‘li va tog‘oldi hududlarida tejamkor sug‘orish usullaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

respublikamiz hududlarida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, tashish va qayta ishlash jarayonlarida resurs tejovchi texnologiyalar va ekologik xavfsiz chora-tadbirlarni keng qo‘llanilishidan manfaatdorligini rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

paxta xomashyosi yetishtirilayotgan rentabelligi past yerlarda zamonaviy agro va innovatsion texnologiyalarga asoslangan meva-sabzavot plantatsiyalarni yaratish;

mahsulot ishlab chiqarishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash va uni iqtisodiy rag‘batlantirish;

keskin iqlim o‘zgarishlari ta’siriga chidamli va sho‘rxok yerlarda yetishtirish mumkin bo‘lgan kartoshka, sabzavot, poliz urug‘lari, meva va uzumning ko‘chatlar navlarini yaratish;

iqlim o‘zgarishlariga moslashish bo‘yicha jahon tajribalaridan samarali foydalangan holda, keskin sovuq, do‘l o‘rishi va quyosh nuridan saqlovchi maxsus qoplamalar hamda tomchilatib sug‘orishga asoslangan innovatsion himoya va

yetishtirish texnologiyalari majmuini joriy qilish;

eski bog‘ va tokzorlarni yangilash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini ishlab chiqish;

energiya va resurslar tejash texnologiyalariga asoslangan zamonaviy issiqxonalarni tashkil etishni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish

zamonaviy omborxonalar va muzlatkichlar tizimini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

respublikada meva-sabzavot mahsulotlar asosan kichik maydonlarda yetishtirilayotganini inobatga olgan holda ixcham va kichik gabaritli qishloq xo‘jaligi texnikalar ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish meva-sabzavot mahsulotlari raqobatbardoshliligini oshirishi, aholi bandligini ta’minlash va daromadlari oshirish, qayta ishlash sanoatini yanada rivojlantirish, mamlakat valyuta tushumining o‘sishiga imkon yaratadi.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududlarida asalarichilikni rivojlantirish:

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida asalarichilik sohasini rivojlantirishga, asal mahsulotlarini yetishtirishga bo‘lgan e’tibor va talab yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, ekologik toza asal ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda yuqori.

Ichki ishlar organi xodimlari o‘zlari faoliyat olib borayotgan 3 sektor hududida yashovchi barcha fuqarolarni asalarichilik bilan shug‘ullanishlari uchun targ‘ibot ishlarini olib borishlari lozim va mutaxassislarni jalb qilgan holda fuqarolarga asalarichilikdan kelib tushadigan daromadlarni, ularni boqish va ulardan foydalanish tartiblarini tushuntirishlari lozimdir.

O‘tgan yillar ichida respublikamizda asalarichilikni rivojlantirish bo‘yicha birmuncha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, asalarichilik xo‘jaliklari soni 2011 – yilga nisbatan 2016 – yilga kelib 216,0 – foizga ko‘payib, asal mahsuloti ishlab chiqarilish 405,3% ga ko‘paygan. Respublikamiz rahbariyatining mustaqillik yillarida asalarichilikka bo‘lgan e’tibori, xususan asalarichilik to‘g‘risida har yili davlat Dasturlarining qabul qilinishi tarmoqni rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu boradagi ishlarning izchil davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2017 – yil yanvardagi bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Respublikada 2017 – yilda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi”da belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan viloyatlarda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Asalarichilik naslchilik xo‘jaliklari tomonidan asalari zotlarini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish maqsadida jami 3000 – dona naslli ona asalari keltirilgan.

Respublikamiz ichki bozorlarida har yili ishlab chiqarilgan asal mahsulotlarining o‘rtacha 5560 – foizi sotilmoqda. Qolgan 4045 – foizi 3500 - 4000 tonna) asalarichilar qo‘lida, sotilmasdan, saqlanib qolmoqda. Bu holat asalarichilikni rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammoning oldini olish va kelgusida sohani rivojlantirish uchun asalarichilikda 2 ta yo‘nalishni izchil rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

I yo‘nalish: Respublikamiz ichki bozorlarida ehtiyojdan oshiqcha bo‘lgan asal mahsulotlarini xalqaro talablar darajasida qadoqlangan holda xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni yo‘lga qo‘yish lozim. Buning uchun Toshkent viloyati asalarichilik uyushmasi bazasida Respublikada xalqaro standartlar talabiga javob beradigan "Asalarichilik mahsulotlari sifatini aniqlash laboratoriyasi va qayta ishlash, qadoqlash kompleksi"ni tashkil etish va asal mahsulotlarini xorijga eksport qilishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Buning uchun, birinchidan, asalarichilik mahsulotlari sifatini aniqlovchi xalqaro standartga javob beruvchi sifat laboratoriyasini va ikkinchidan, asal mahsulotlarini qayta ishlovchi va qadoqlash sexlarini tashkil etish lozim.

II yo‘nalish: O‘zbekiston iqlim sharoitining qulayligini hamda asalarichilik sohasida shug‘ullanib kelayotgan asalarichilarning ko‘p yillik tajriba va malakalarini inobatga olib xorijiy davlatlar talabiga ko‘ra asalari paketlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirib, eksport qilishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Buning uchun ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, markazlashgan holda Rossiya, Qozog‘iston hamda Yevropa davlatlari bilan (Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya va boshqa davlatlar) qishloq xo‘jaligi ekinlarini changlatish uchun asalari paketlarini eksport qilishda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim.

Buning uchun: 2018 yildan boshlab, iqlim sharoitini hisobga olib 4 ta alohida maxsus "izolyatsiya qilingan" hududlarda (Toshkent, Jizzax,

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida) asalari paketlarini yetishtiruvchi asalarichilik xo'jaliklarini (pitomniklar) tashkil etish lozim.

Asalari paketlarini yetishtiruvchi asalarichilik xo'jaliklariga o'rmon xo'jaliklariga qarashli o'rmon fondi yerlaridan 2030 – km radiusli, boshqa asalari zotlari bilan aralashib ketmasdan, ularni parvarish qilish uchun alohida hududlar ajratib berish maqsadga muvofiq.

Kelgusida asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

1. Asalarichilikda mahalliy asalari populyatsiyasi genofondini sof holda saqlab qolish, ko'paytirish, tanlash, seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish va asalarichilik subyektlarini zotdor asalari oilalari bilan ta'minlash maqsadida, asalarichilik bilan shug'ullanadigan yirik fermer xo'jaliklari negizida har bir viloyatda 23 tadan naslli asalarichilik fermer xo'jaligi tashkil etish va ularni sertifikat bilan ta'minlash.

2. Har yili o'rtacha 3540 – ming dona asalari qutisi talab etilishini inobatga olib, Respublikadagi mavjud asalari jihozlari ishlab chiqaruvchi sexlarni (ob-havoning issiq va sovuq paytlarida ham o'z holatini o'zgartirmaydigan va o'zidan yoqimsiz hid chiqarmaydigan) 45 ming kub. metr ekologik toza yog'och (sosna, yel daraxti) materiallari bilan, kerakli miqdorda ta'minlashni va uni chetdan keltirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni konvertatsiya qilishni amalga oshirish.

3. Chorvachilik uchun zarur takroriy ekinlardan perko, raps, javdar kabi servitamin ekinlarni ko'proq ekish: erta bahorda asalarilar uchun gulshira va gulchangi beruvchi o'simliklar hisoblanib, qo'shimcha asal ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Bug'doydan bo'shagan yerlarga tez pishar kungaboqar navlarini ekish ham yoz-kuz oylarida asal to'plash uchun asosiy omil hisoblanadi.

4. Asalari oilasi mahsuldorligini oshirishning imkoniyatlaridan yana biri yilning mavsumiga qarab, asalari oilalarini ko'chirishni reja asosida tashkil qilib, ularning texnologik kartalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.5. Respublikadagi barcha yirik asalarichilik fermer xo'jaliklarida olingan asalning hisob-kitoblarini to'g'ri olib borish va asal mahsulotlarini eksportga chiqarishni tashkil etib, asalarichilarini moddiy tomondan qo'llab quvvatlash.

6. O'rmon xo'jaligida asalarichilikni 3040 – foizga ko'paytirishni yo'lga qo'yish hisobiga, asal ishlab chiqarish hajmini oshirish, respublikadagi paxtachilik, bog'dorchilik, poliz va boshqa ekinlar bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga asalarichilik subyektlarini biriktirish hisobiga ekinlarni asalari bilan changlatish natijasida, ularning hosildorligini oshirishni tashkil etish lozim.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududlarida aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirishni tashkil etish:

Respublikamiz aholisini turmush darajasi va sifatini yaxshilashda kommunal xizmatlar sohasining o'rni juda kattadir. Bu holat kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasi faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berishni talab etadi. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlar xususan, Uy-joy, Shaharsozlik kodekslari, "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Ijara to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi, "Elektr energiyasi to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir. Ushbu qonunlardan unumli foydalangan holda aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi samaradorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy sohaning yuksalishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish sohasidagi islohotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi bu murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi[4]. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyati uning ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil topganligidadir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turidan kelib chiqib, asosan kuyidagi guruhlarga bo'linadi:

– uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va uy-joy fondini ta'mirlash qurilish tashkilotlari;

– elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;

– issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;

– suv ta'minoti va oqova quvur xo'jaligi;
– gaz ta'minoti xo'jaligi;
– muhandislik tizimlari va inshootlariga xizmat ko'rsatish korxonalari;

Aholiga bevosita shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan sakkiz guruhga bo'linadi:
– elektrenergiya ta'minoti;
– gaz ta'minoti;
– suv ta'minoti va oqova quvur xo'jaligi;
– issiqlik ta'minoti;
– uy-joy fondini ta'mirlash qurilishi;
– muhandislik xizmati ko'rsatish;
– ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish.

Hozirgi davrda kommunal xizmat ko'rsatish tizimini samarali faoliyatini ta'minlashda birinchi navbatda sohadagi jismoniy va ma'naviy eskirgan asbob uskunalarni tubdan yangilash, zamonaviy texnikalarni, texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun sektor rahbari mazkur sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni kiritishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda issiqlik ta'minoti sohasida bir qator dasturlar qabul qilingan bo'lib, samarali faoliyat olib bormoqda. Biroq, hozirgi davrga kelib issiqlik ta'minoti tizimida qator kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Xususan, iste'molchilar tomonidan issiq suv uchun to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik holatlari, issiqlik tizimi issiq suv bilan aholi ehtiyojlarini qondira olmayotganligi, bir qator shaharlarda issiqlik manbalarining samarali faoliyat ko'rsatmayotganligi, issiq suv ta'minoti tizimi ta'mir talab bo'lib qolgan holatlar kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda [5].

Kommunal xizmati, yo'l qurilishi, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat xususiy sektor hamkorligi mexanizmini qo'llash bo'yicha bugungi holat va rivojlanish istiqbollari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "O'zkommunxizmat" agentligi ma'lumotiga ko'ra, yiliga 100 – million tonna sanoat chiqindilari, 35 – million metr kub maishiy ro'zg'or chiqindilari hosil bo'ladi. Bu chiqindilarni utilizatsiya qiladigan, qayta ishlaydigan tizimli korxonalarning yo'qligi natijasida mamlakatimiz miqyosida 2 – milliard tonna chiqindi yig'ilib qolgani ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ham bu borada zarur choralar ko'rishni taqozo etadi. Ichki ishlar organlari 3 sektor hududlarida aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirishni tashkil etish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

– ichki ishlar organlari xodimlari sektordagi mahalla raislari va ularning obodonlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash masalalari bo'yicha o'rinbosarlari yordamida ko'p qavatli uylarda kommunal xizmat ko'rsatuvchi shirkatlarni tashkil etish va ularni ishlarini muntazam nazorat qilib borish, hovlili xonadonlar egalaridan obodonlashtirish talablariga rioya etishlarini muntazam nazorat qilib borish lozim;

Sektor hududida chiqindini qayta ishlash va undan sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqarish, qattiq maishiy chiqindilardan organik o'g'itlar ishlab chiqish, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan xodimlarning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari muntazam ravishda tegishli idoralarga taqdimnomalar kiritib borishlari maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, ekologik va sanitariya muhitini yaxshilanadi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi ishlar amalga oshiriladi;

– 3 – sektor hududida kommunal xizmat ko'rsatish tizimini samarali faoliyatini ta'minlashda, jismonan va ma'nan eskirgan asbob uskunalarni tubdan yangilash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, sohada zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mazkur sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni kiritishga alohida e'tibor berish;

– ichki ishlar organlari 3 – sektorda kommunal xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligi uning tarmoqlari faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan uzviy bog'liq bo'lib, buning uchun "O'zkommunalxizmat" agentligi va uning barcha bo'g'inlari bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga quyish va natijalarni monitoringi va baholab borish;

– 3 – sektor hududida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi kommunal xizmat sohasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uni yechimi masalasi fikrimizcha, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tarmog'ida texnik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy masalalarda yangicha mexanizmni joriy etish lozim;

– 3 – sektor hududida ko'p qavatli uylardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan kommunal xizmatlar ko'rsatishning arzon va muqobil turlarini rivojlantirish lozimdir[6].

Yuqorida e'tirof etilgan holatlar bir tomondan kommunal tizimi samaradorligini oshirishsa, ikkinchi tomondan aholi turmush sifati va darajasini yuksaltiradi.

Bir so'z bilan aytganda ichki ishlar organlari tizimlarida o'zlariga biriktirilgan sektor hududlarida aholini bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, har tomonlama yashash sharoitini yaxshilashga ko'maklashish, yoshlarni, ayollarni va ishsiz fuqarolarni bandligi ta'minlash borasida olib borayotgan ishlarida sadoqat bilan xalqiga xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 30–yanvardagi "Dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalari yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 53son qarori // https://lex.uz/docs/4720426.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 18 – maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF5995son farmoni // https://lex.uz/docs/4815923.

3. Yuldashev G'.T. O'zbekiston meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari// 339Tekst%20stati6501102019122 5.pdf.

4. Boboqulov S.Kommunal xizmat ko'rsatish tizimi samaradorligini oshirish usullari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2017. № 3.

5. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2017. – № 3.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 3182sonli qarori.

Parmanov F.D. Ichki ishlar organlarining davlat mexanizmini takomillashtirishda, aholining turmush tarzi va farovonligini ta'minlashda yordam ko'rsatish mexanizmlari

Maqolada Ichki ishlar organlarining davlat mexanizmini takomillashtirishda, fuqarolarga tomorqa uchastkalarida va qishloq xo'jaligi faoliyati turlarini rivojlantirishni samaradorligini oshirish muammolarni yechimini topishda amaliy yordam ko'rsatishiga oid masalalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, yerlardan maqsadli foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsuloti, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, va kommunal xizmat.

Парманов Ф.Д. Механизмы оказания помощи в обеспечении образа жизни и благополучия населения при совершенствовании государственного механизма органов внутренных дел

В статье рассматриваются вопросы, связанные с совершенствованием оказания практической помощи населению в секторах, закрепленных за органами внутренних дел, в решении задач повышения эффективности развития сельскохозяйственной деятельности на приусадебных участках.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, землепользование, сельскохозяйственное производство, животноводство, птицеводство, рыболовство, пчеловодство и коммунальное хозяйство.

Parmanov F.D. Mechanisms for providing assistance in ensuring the lifestyle and well-being of the population in the improvement of the state mechanism of the internal affairs body

The article deals with issues related to the improvement of the provision of practical assistance to the population in the sectors assigned to the internal affairs bodies, in solving the problems of increasing the efficiency of the development of activities related to agricultural activities in household plots.

Key words: food security, land use, agricultural production, livestock, poultry, fisheries, beekeeping and utilities.

Ismailov Ahmad,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

VOYAGA YETMAGANNI O'ZINI O'ZI O'LDIRISH DARAJASIGA YETKAZISH UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT KODEKSI NORMALARINING RIVOJLANISH TARIXI

O'tgan yuz yillik tarixdan ma'lumki, barcha davrlar, barcha davlatlar va dinlarda o'zini o'zi o'ldirish qoralab kelingan.

Suitsid – ongli ravishda o'zini o'zi o'ldirish (lotincha ***sui*** – o'zini, ***cedere*** – o'ldirmoq). Insoniyat tarixi mobaynida o'z joniga suiqasd qilish muammosini yechishga nisbatan avval texnologik, keyinchalik – falsafiy va axloqiy nuqtayi nazarlardan yondashilgan.

Tarixiy rivojlanish jarayonida, jamiyat shakllanishining tegishli bosqichida va unda hukm surgan ijtimoiy, mafkuraviy va etnomadaniy tasavvurlarga qarab, insonning hayotini ixtiyoriy tark etishining mohiyatiga nisbatan qarashlar ham, unga berilgan axloqiy baho ham (gunoh, jinoyat, me'yor, qahramonlik) o'zgarib borgan. Qadim zamonlardan boshlab, o'z joniga suiqasd qilishga munosabat, uning sabablari va texnologiyasi u yoki bu jamiyat, ijtimoiy guruh, etnik birlik yoki muayyan millatning madaniyati o'lim tushunchasini qanday idrok etgani bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Qadimgi Gretsiyada o'z joniga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblangan. Hatto ushbu ishni amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxs qo'lga tushganda, u qattiq jazolangan, uning qo'llari kesilgan. O'zini o'zi o'ldirgan shaxslar qabristonlarga qo'yilishi taqiqlangan [1].

Ikki xil ko'rinishda: Maxayana yoki Lamaizm (Tibet, Buryatlar va Mo'g'ullar orasida keng tarqalgan) va Xinayana ("kichik charxpalak" –Xitoy, Yaponiya va Janubiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan) ko'rinishida mavjud bo'lgan buddizmga o'z joniga suiqasd qilishning mohiyati qayta tug'ilishlar ("sansaru")ning cheksizligiga bo'lgan ishonchdan iborat. Hayotini to'xtatish birgina Buddaning qo'lidan keladi, oddiy odam bunga qodir emas. Etnopsixiatr V.B.Minevichning fikricha: "Birovning hayotiga to'g'anoq bo'lyapti" deb hisoblangan. Bu vaziyatdan chiqishning yo'li shunday bo'lganki, qariyalarni moyli tasmani yutishga majburlashgan va ular nafasi tiqilib o'lgan, o'z joniga suiqasd qilgan [2].

G'arbda "Odam o'ldirma" degan taqiqqa asosan suitsidni rasmiy darajada odam o'ldirish sifatida e'tirof etgan Trident sobori qarori (1568-yil)ga muvofiq mustahkamlangan xristianlikning qat'iy qoidalari din va huquqda unga qarshi harakat bo'yicha tegishli choralarni Yevropaning aksariyat davlatlarida deyarli bir yarim ming yil mobaynida shakllantirgan va jamiyatda o'z joniga suiqasd qilgan kishilarga bo'lgan asosiy munosabatni belgilab bergan [3].

"Jinoiy qilmishlar ham, boshqa taqiqlangan, qoralanadigan va nomaqbul amallar ham islom huquqida "Alloh chegaralarini" buzish deb baholanadi [4].

"Qadimda ba'zi davlatlarda o'z joniga qasd qilish, duel ham jinoyat hisoblangan va o'lim jazosi bilan jazolangan [5].

N.S.Tagansev ixtiyoriy ravishda hayotni tark etishni axloqqa zid va gunoh deb tan olgan holda, o'z joniga suiqasd qilish jinoyat, ya'ni muayyan jazoga tortilishiga sabab bo'luvchi qilmish deb hisoblanishiga qarshi bo'lgan. Uning fikricha, o'z joniga suiqasd qilishda faqat o'zining muayyan boyligi, ya'ni o'z hayotiga tajovuznigina ko'rish mumkin. Hamonki o'z joniga suiqasd qilish jinoyat emas ekan, o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish ham, o'z joniga suiqasd qilishga da'vat etish ham jazoga loyiq bo'lishi mumkin emas, deb hisoblangan [6]. Shunday qilib, o'z joniga suiqasd qilishga falsafa va huquq tarixida berilgan baholarning qisqacha tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. O'z joniga suiqasd qilish qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolardan biridir. Suitsid munosabat, uning sabablari va texnologiyasi qadim zamonlardan boshlab u yoki bu jamiyat, ijtimoiy guruh, etnik birlik yoki muayyan millatning madaniyati o'lim tushunchasini qanday idrok etgani bilan bog'liq bo'lgan.

2. Jahonda ayniqsa, keng tarqalgan dinlar: xristianlik, islom va buddizmda o'z joniga suiqasd qilish axloqqa zid va xudoning izmiga qarshi bo'lgan qilmish sifatida taqiqlanadi. Bunda, xristianlik va islomning kuchli ta'siri ostida, o'rta asrlar feodal qonunchiligi suitsidni og'ir jinoyatlar qatoriga kiritgan.

3. Oradan uzoq vaqt o'tgach, XIX asr – XX asr boshlariga kelib, qonunchilikda o'z joniga suiqasd qilishning tarkibidan yangi jinoyat tarkibi – o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish ajralib chiqa boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan jinoyat

qonunida o‘z joniga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlikdan voz kechiladi va o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik o‘rnatiladi.

O‘z joniga suiqasd qilishning jazoga loyiqligiga qarshi o‘z vaqtida G‘arbiy Yevropaning taniqli olimlari fikr bildirganlar. Jumladan, Ch.Bakkeriya shunday deb yozadi: “O‘z joniga suiqasd qilish so‘zining o‘z ma’nosidagi jazo qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan jinoyatdir, chunki u yo aybsizlarni, yo hissiyotidan holi sovuq tanani vujudga keltiradi” [7]. E.Ferri o‘z joniga suiqasd qilish uchun jazolanishni eskilik sarqiti sifatida qoralagan [8]. XIX asr oxiriga kelib yevropalik olimlarning aksariyati o‘z asarlarida huquqda o‘z joniga suiqasd qilishga jinoiy jazo loyiq qilmish sifatida yondashishdan voz kechish lozimligini asoslashga harakat qila boshlaganlar.

1922-yilgi RSFSR JK da o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyatning maxsus tarkibi sifatida qaralmagan. Sud amaliyotida o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish hollari “Odam o‘ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalar bilan o‘xshashlik bo‘yicha” kvalifikatsiya qilingan [9]. JKning 148-moddasida quyidagi harakatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan: “Voyaga yetmagan shaxsni yoki o‘z qilmishining xususiyati yoki ahamiyatini anglashga yoki o‘z harakatlarini boshqarishga qodir emasligi ayon bo‘lgan shaxsni o‘z joniga suiqasd qilishga og‘dirish yoki bunga turtki berish, basharti o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish yuz bergan bo‘lsa”. Buning uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

1922 yildagi JK da o‘z joniga suiqasd qilishga turtki berish uchun javobgarlik to‘g‘risidagi masalaning yechimida muayyan norozichillik kuzatiladi. Bir tomondan, o‘z joniga suiqasd qilishning mohiyatidan kelib chiqib, bu qilmishga turki berish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan, boshqa tomondan esa - voyaga yetmagan yoki aqli noraso shaxsning o‘z joniga suiqasd qilishiga turtki berish uchun javobgarlik odam o‘ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalarning sanksiyalari bilan taqqoslaganda yengilroq sanksiya uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan.

Yuqorida nomi keltirilgan Kodeks 1926-yilga qadar mamlakatimiz hududida amalda bo‘lgan. O‘zbekiston SSRning 1926-yilgi JK da o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan bo‘lsada, JK 192-moddasida voyaga yetmagan shaxsni yoki o‘z qilmishining xususiyati yoki ahamiyatini anglashga yoki o‘z harakatlarini boshqarishga qodir emasligi ayon bo‘lgan shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish yuz berganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi.

1955-yilgi SSSR Jinoyat kodeksining loyihasida “Biror kimni rahmsiz muomala yoki quvg‘in qilish yo‘li bilan o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish” jazoga loyiq deb topilgan. Unda jabrlanuvchi moddiy tomondan yoki boshqa jihatdan aybdorga bog‘liq yoki bog‘liq emasligidan qat’iy nazar, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlikni belgilash taklif qilingan. Loyihada o‘zini o‘zi o‘ldirish og‘dirish yoki ko‘maklashish ham jinoiy jazoga loyiq deb e’tirof etilgan (115-modda). Voyaga yetmagan yoki aqli noraso shaxsgina emas, balki har qanday shaxs jinoyatdan jabrlanishi mumkinligi nazarda tutilgan. Loyihani muhokama qilish jarayonida V.Menshagin shunday deb yozgan: “Amaldagi RSFSR JK 141-moddasining ikkinchi qismi... mutlaqo qoniqarsiz ekanligini tan olish lozim. Bu yerda o‘zini o‘zi o‘ldirishga ko‘maklashish va og‘dirish voyaga yetmagan yoki aqliy noraso ekanligi ayon bo‘lgan shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirish yoki bunga ko‘maklashish yuz bergan hollardagina jinoiy ta’qib ostiga olinadi. Muxtasar qilib aytganda, amaldagi jinoyat kodeksi faqat voyaga yetmagan va ruhiy kasallarni o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirish yoki bunga ko‘maklashish uchun jazolaydi. SSSR JKning loyihasida voyaga yetmaganlar va ruhiy kasallarga ishora ushbu moddadan chiqarib, u bo‘yicha jazoga loyiq qilmishlar doirasi kengaytirilganki, bu mutlaqo o‘rinlidir. Loyihaga binoan har qanday shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirish ham, bunga ko‘maklashish ham jinoyat tarkibi vujudga kelishiga sabab bo‘ladi ” [10]. Bunda Melshagin voyaga yetmagan yoki ruhiy xasta shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki bunda unga ko‘maklashishni odam o‘ldirish qatoriga kiritmagan.

Boshqa tadqiqotchi – I.Aliyev esa, aksincha, voyaga yetmagan yoki ruhiy xasta shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki bunda unga ko‘maklashish “alohida usulda sodir etilgan odam o‘ldirish” sifatida qoralanishi lozim deb hisoblagan [11]. Uning fikricha, bunday jinoiy tajovuz uchun sanksiya hayotga qarshi jinoyatlarning imtiyozli tarkiblari sanksiyalaridan yengilroq bo‘lmasligi kerak. U jinoyat qonuni insonning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’lon qilgan holda, ularni lozim darajada qattiq qo‘riqlamaydi, deb hisoblaydi. Shu sababli u o‘zini zikr etgan qilmishlar javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarda sodir etilgan hayotga qarshi

jinoyatlarga qaraganda qattiqroq jazolanishi lozim deb hisoblagan [12].

1959-yildagi O‘zSSR JKda o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlikni o‘rnatishda 1926-yilgi RSFSR JK dan andoza olgan. Uning 87-moddasida “moddiy tomondan yoki boshqa jihatdan aybdorga bog‘liq bo‘lmagan shaxsni doimiy ravishda quvg‘in, bo‘hton va haqorat qilish natijasida o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘z-o‘zini o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish”ga ishora qilingan [13].

1959-yilgi O‘zSSR JKda, 1926-yilgi JK 192-moddasining ikkinchi qismida bo‘lgani kabi, voyaga yetmagan yoki aqli noraso shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirish yoki bunda unga ko‘maklashgani uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Mazkur muammoni yechishda sud amaliyotida voyaga yetmagan yoki aqli noraso shaxsni o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirish yoki bunda unga ko‘maklashishni odam o‘ldirish deb topish yo‘lini tanlagan. Shu tufayli ham 1973-yilda nashr etilgan Sovet jinoyat huquqi kursining Maxsus qismida “Kimki ruhiy kasal odam o‘z joniga suiqasd qilishi uchun uning qo‘liga to‘pponcha tutqazsa, yosh bolani o‘z-o‘zini otishga og‘dirar ekan, u amalda bu odamni o‘ldiradi, deb qayd etilgan [14]. Aqli raso shaxs o‘zini o‘zi o‘ldirishga og‘dirilgan holda javobgarlik to‘g‘risidagi masala ham shu yo‘l bilan hal qilingan. Aybdorga odam o‘ldirishga doir moddani qo‘llash orqali jazo tayinlangan.

Mazkur moddaning ikkinchi qismida moddiy tomondan yoki boshqa jihatdan aybdorga bog‘liq bo‘lgan shaxsni rahmsiz muomala qilish, quvg‘in yo‘llar bilan yoki uni doimiy xo‘rlash yoki shunga o‘xshash yo‘llar bilan o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik belgilangan edi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida ham o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, ilgari normalarga nisbatan ancha takomillashtirildi, ya’ni moddaning dispozitsiyasi “Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilgan.

1994-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari shaxsni jinoiy tajovuzlardan samarali muhofaza qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlash uchun huquqiy poydevor yaratdi.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimiz jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida uning normalarini takomillashtirishga, jinoyat protsessiga jalb etiladigan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini so‘zsiz ta’minlash maqsadida ilg‘or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni implementatsiya qilishga qaratilgan sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatiga ega bo‘lgan bosqich bo‘ldi. Xususan, jinoyat qonunchiligining yanada liberallashuvi hamda alohida toifadagi jinoyatlarni jinoiy yurisdiksiyadan chiqarish amalga oshirildi, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ro‘yxati kengaytirildi.

2017-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan O‘zR JKning 103-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilgan:

“Shaxsni qo‘rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishiga suiqasd qilish darajasiga yetkazish, - uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

Moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;

Voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

Telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, - yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi – degan tahriri bo‘yicha o‘zgartirish kiritilgan.

Jamiyatda sodir etilgan istalgan jinoiy qilmish o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatidan kelib chiqib bir-biridan farqlanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat huquqida insonning ijtimoiy munosabatlariga

zarar yetkazuvchi tashqi dunyodagi g'ayriqonuniy, ongli, faol yoki passiv xulq-atvoridir. Qilmish har qanday jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Har qanday jinoiy qilmish ijtimoiy xavflidir, qilmishning bunday xavfliligi uning qonun bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xavfli qilmishning darajasi, eng avvalo, yetkazilgan zararning hajmi va tajovuz qilingan obyektning qiymati bilan belgilanadi.

Ijtimoiy xavflilik jinoyatning qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchi organlar erki bilan bog'liq bo'lmagan obyektiv belgisidir. Lekin bu toifaning qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchi organlar uchun ahamiyati shundaki, bu toifa orqali qanday ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat ekanligi belgilanadi.

Ijtimoiy xavflilik quyidagilarga ko'ra belgilanadi:

a) jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi;

b) yetkazilgan zararning hajmi, xususiyati va darajasi;

c) ijtimoiy xavfli qilmishning xususiyatlari;

d) ayrim holatlarda – jinoyat sodir etgan subyektning xususiyatlari [15].

O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati ancha keng tarqalgan jinoyat hisoblanib, u asosan **latent** ko'rinishlarda bo'ladi. Yuqorida qilmishni ijtimoiy xavflilik darajasiga berilgan ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shundaki, u odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib keladi.

Demak, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining **ijtimoiy xavfliligi,** o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati **natijasida inson o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar vujudga kelishini ko'rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda** o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatini **sodir etgan shaxsning jamiyatdagi huquqiy himoya obyektlariga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazishga real xavf tug'dirishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilaydi.**

Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi jinoyatlarning ko'pchiligi insonning sog'ligi va hayotiga qarshi sodir etiladi. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining dispozitsiyasi Jinoyat kodeksi 103-moddasining 1-qismida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra shaxsni qo'rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yoki o'zini o'zi o'ldirishiga suiqasd qilish darajasiga yetkazish deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi "O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 1-bandida: "Sudlarning e'tibori o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish bo'yicha har bir jinoyat ishini ko'rishda sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish to'g'risidagi qonun talabiga rioya qilishi zarurligini hamda, shakl va mazmuni bo'yicha qonuniy bo'lgan harakatlar natijasida o'zini o'zi o'ldirish yoki unga suiqasd qilish sodir etilgan taqdirda, bu harakatlarni sodir etgan shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksining 103-moddasi tatbiq etilmasligi keltirilgan" [16].

Huquqshunos olim M.X.Rustambayev ta'kidlashicha, "O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmagan yoki moddiy yoxud boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish bilan ifodalanadi" [17]. Mazkur holatda jabrlanuvchi mustaqil ravishda o'zini o'zi o'ldiradi yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qiladi, aybdor xulqi esa, jabrlanuvchining o'limiga bevosita munosabatda bo'ladi. Qandaydir noaniq omillar emas, balki jabrlanuvchining rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitishdan iborat bo'lgan aybdor shaxsning harakatlari jabrlanuvchi o'zini o'zi o'ldirishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 2-qismida "Ushbu kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi" [18],- deyilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo'lsagina u jinoyat deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo'lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqida bunday harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat belgilari qilmishning jinoiyligini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, jinoyatning moddiy (tashqi) belgisi – "ijtimoiy xavflilik" bo'lsa, jinoyatning formal belgisi – "huquqqa xiloflilik" deb hisoblanadi,

shuningdek, jinoyatning "aybning mavjudligi" va "jazoga sazovorlik" belgilari huquqqa xiloflilik belgisidan kelib chiqadi.

Demak, yuqorida sanab o'tilgan to'rtta belgining barchasi qilmishda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lsagina, qilmish jinoyat deb topiladi va aksincha ana shu belgilardan bittasi bo'lmasa, qilmish jinoyat deb hisoblanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet manba: www.refu.ru
2. Миневич В.Б., Баранчик Г.М. Психологическая антропология. – Томск. Улан-Удэ, 1984. – 3 с.
3. Эльмурзаев Д,И. Уголовная ответсвенность за доведение до самоубийства. Дисс...канд.юрид.наук. – М., 2005. – С. 13.
4. Rahmanov A. Islom huquqi. – T.: TDYI, 2007. – 345-b.
5. Payzullayev K.P. O'lim jazosi: o'tmishda, hozirda va kelajakda. – T.: Turon-Iqbol, 2005. – 32-b.
6. Таганцев Н.С. О преступлениях против жизни по русскому праву. Т. 2. – СПб., 1870. – С.415.
7. Беккария Ч. О преступлениях и наказаниях. – М., 1939. – С.345-355.
8. Ferri E. Homicido-suicido. 1895. – P.51.
9. Пионтковский А.А. Уголовное право. Часть Особенная. – М., 1938. – С.35.
10. Меньшагин В. Преступления против личности по проекту УК СССР. – «Социалистическая законность», 1957. №9. – С.38-39.
11. Алиев И.А. Ответственность за доведение до сумоубийства. Дисс. ...канд. юрид. наук. – М., 1969. – С.51.
12. Алиев И.А. Ответственность за доведение до сумоубийства. Дисс. ...канд. юрид. наук. – М., 1969. – С.51
13. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar. –T.: O'zbekiston. 1988. – 204-b.
14. Курс советского уголовного права. Часть особенная / Отв. ред. Н.А.Беляев, М.Д.Шаргородский. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1973. – 546.
15. Ветров.Н.И, "Угаловное право". Обшая часть: Учебник для вузов. – М.: Юнити – Дана, Закон и право, 1999. – С. 48.
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami. (1998-yil) – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. – T.: "dolat", 1998-yil.
17. Jinoyat huquqi. Darslik /M.H.Rustamboyev; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: - T.: "Adolat", 2007. 65-bet.
18. Ikromov.Sh.T., Jinoyat huquqi (darslik). O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014-yil. 89-bet.

Ismailov A. Voyaga yetmaganni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat kodeksi normalarining rivojlanish tarixi

Mazkur maqolada voyaga yetmagani o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksi normalarining rivojlanish tarixiga doir masalalar bayon etilgan.

Bundan tashqari maqolada o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati ancha keng tarqalgan jinoyat hisoblanib, u asosan latent ko'rinishlarda bo'lishi ham ta'kidlangan. Shuningdek, mazkur qilmishni ijtimoiy xavflilik darajasiga berilgan ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shundaki, u odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, o'z joniga qasd qilish, ijtimoiy xavfli, o'zini o'zi o'ldirish, suitsid, jinoyat, sha'n, qadr-qimmat, muhofaza, shaxs.

Исмаилов А. Рассмотрена история развития норм Уголовного кодекса в которых установлена ответственность за доведение несовершеннолетнего до уровня самоубийства

В данной статье изложены вопросы истории развития норм Уголовного кодекса,

устанавливающих ответственность за доведение несовершеннолетнего до самоубийства.

Кроме того, в статье подчеркивается, что преступление доведения до самоубийства является гораздо более распространенным преступлением и в основном проявляется в скрытых проявлениях. Также, исходя из определения степени общественной опасности данного деяния, можно сказать, что общественная опасность преступления доведения до уровня самоубийства заключается в том, что оно влечет смерть человека или иные тяжкие последствия.

Ключевые слова: несовершеннолетний, самоубийство, общественная опасность, самоубийство, самоубийство, преступление, честь, достоинство, защита, личность.

Ismailov A. The history of the development of the norms of the Criminal Code, which establishes responsibility for bringing a minor to the level of suicide, is considered

This article outlines the issues of the history of the development of the norms of the Criminal Code, establishing responsibility for bringing a minor to suicide.

In addition, the article emphasizes that the crime of incitement to suicide is a much more common crime and is mainly manifested in latent manifestations. Also, based on the definition of the degree of public danger of this act, we can say that the public danger of the crime of bringing to the level of suicide lies in the fact that it entails the death of a person or other grave consequences.

Key words: minor, suicide, public danger, suicide, suicide, crime, honor, dignity, protection, personality.

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Jinoiy-huquqiy fanlar" kafedrasi professori,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA TOMONLAR TENGLIGINI TA'MINLASHNING AHAMIYATI

Istiqlolga erishganimizdan so'ng, har jihatdan yangi demokratik qonunchilikka asos solish maqsadida, birlamchi vazifalardan biri – sudlar mustaqilligini ta'minlash bo'ldi va bunga erishish uchun dastavval uning faoliyatiga tashqi aralashuv, tazyiq yoki boshqa ta'sirlarga chek qo'yish lozim edi. mamlakatda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan mutlaqo yangi konsepsiya ishlab chiqilib, odil sudlovni amalga oshirishda katta o'zgarishlar davri bo'ldi.

Darhaqiqat, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq nihoyatda muhim va mas'uliyatli iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy vazifalar qatorida sud tizimining eski qaramlik holatiga barham berish, uning qudratli, mustaqil, odil bo'lishiga erishish imkoniyatlari izlandi, buning uchun eng avvalo huquqiy poydevoriga asos solindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida "Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi", 54-moddasida esa, "Davlat fuqarolarning Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" deyilgan talab bo'yicha yuqori instansiya sudlarida, xususan, apellyatsiya va kassatsiya instansiya sudlarida jinoyat ishlari ko'rilishida sudlanuvchi va uning himoyachisining ishtiroki ta'minlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi ham albatta, asosiy Qonunimizning ushbu talabini ta'minlashi kerak.

Sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida tomonlarning tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayrim manbalarda, ayblov va himoyaning tengligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgani bejiz emas. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-sonli Farmoni [2] advokatura tizimini tubdan takomillashtirish, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to'liq ro'yobga chiqarish kabi maqsadlarni nazarda tutadi.

Yuqori turuvchi instansiya sudlari o'z-o'zidan sudlanuvchi ahvolini og'irlashtirish borasidagi qonunbuzarliklarni tuzatishga intilavermaydi. Xuddi ana shu texnologiya uzoq yillar davomida odamlar ongida "sud jazo organi" degan fikrning shakllanishiga va jinoyat-sudlov jarayonida adolat tarozisini buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, sud muhokamasi chog'ida ayblov bilan himoyaning teng huquqliligini ta'minlash zarurligi haqidagi talablari juda ko'p aytib o'tilmoqda.

Jinoyat ishlarini ko'radigan sudlarni isloh qilish orqali yaratilajak yangi sud, sud muhokamasini jinoyat protsessi prinsiplariga to'liq amal qilib olib boradigan, jinoyat sodir etganlikda aybi isbotlangan har bir shaxsga qonuniy jazo tayinlaydigan, jinoyat qilmagan shaxslarning sudlanmasligini kafolatlaydigan bo'lmog'i lozim. Aniq bir ishni ko'rayotgan sud, birinchi navbatda, o'zidan yuqori turuvchi suddan, qolaversa, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishi lozim.

Quyi sudlar yuqori sudlarga tobe ekanligi, tuman sudyasi aniq bir ish bo'yicha viloyat sudi mutasaddilaridan maslahat, tavsiya olib hukm chiqarishi kerakligi, Oliy sud Plenumi hujjatlarida ta'kidlangan bir paytda sudlarning mustaqilligi to'g'risida gapirib o'tirishning o'zi ortiqcha. Sud ochiq, oshkora jarayon, u odamlar ko'z o'ngida bo'lib o'tadi. Basharti, sud shaxsga nisbatan nohaq hukm chiqarsa, bu haqda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari bong ursinlar, tanqid qilsinlar. Siyosiy partiyalar jamoatchilikning sud to'g'risidagi fikrini o'rganib borsalar, sud qarorlarini qayta ko'rishda ularni o'rganish va protest kiritish vakolatiga ega bo'lgan mansabdorlar, mamlakatdagi odil sudlovning ahvoli haqida jamoatchilikka hisobot berib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Nazarimizda, sud-huquq tizimi isloh qilish natijasida haqiqatni yuzaga chiqaradigan sud yarata olsak, bu bizning eng katta yutug'imiz bo'ladi. Aytaylik, shu ish bo'yicha hukm

chiqqandan keyin, basharti taraflar shikoyat yoki protest yozsalargina chiqarilgan hukm va ajrimning qonuniy, asosli va adolatliligiga baho beradigan boshqa sud paydo bo'ladi. Bu sud ham o'z vakolati doirasida mustaqil bo'lishi lozim.

G'.Namozov tahlil qilishicha, qonunda protest kiritish vakolati shikoyat berish huquqiga ega mansabdorlar qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya tartibida ko'rib chiqishni so'rab protest keltirsalargina, bu protestni ish bilan birga ko'rib chiqadigan butunlay boshqa sud paydo bo'ladi. Jismoniy shaxslar, viloyat sudi raisi, o'rinbosarlari, sudyalari hamda Oliy sud raisi, o'rinbosarlari va sudyalarini tumanda ko'rilayotgan aniq bir ish uchun Sud deb tushunmaslik kerak. Bu shaxslar ma'sul mansabdorlardir. Qonuniy kuchga kirgan sud aktiga protest kiritish vakolati berilgan rahbarlar sud emas-ki, shu sababli ular mustaqil bo'lishi mumkin emas [3].

Sudlanuvchi nafaqat birinchi instansiya, apellyatsiya bosqichlari sudlarida balki shu bilan birga kassatsiya instansiya sudlarida ham himoyachi ishtiroki bilan ta'minlanadi. Garchi, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining (yangi tahrirdagi) 497^3-moddasida, mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o'rinbosari esa, protest bildirishga haqlidir.

Fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviy da'voga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Mazkur shaxslar ishni kassatsiya tartibida ko'rish chog'ida hamma ishtirok etishga haqlidir, jazoni ijro etish muassasasidagi mahkum bundan mustasno", deb ko'rsatilgan bo'lsa, amaldagi kassatsiya tartibida ish ko'rilayotgan bosqichda advokatlik orderi taqdim qilinganda ham himoyachi aksariyat hollarda ishtirok etmaydi. Chunki mazkur huquqiy norma himoyachining sud bosqichida ishtirok etishga (shart emas balki) haqli ekanligini belgilagani bois, advokatni taklif qilish yoki qilmaslik masalasini sudning ixtiyoriga havola qilgan.

Bizningcha, ushbu nomutanosiblikni bartaraf qilish maqsadida mazkur moddaga, agar advokat sudning kassatsiya bosqichida ishtirok etish uchun himoyachilik orderini taqdim qilgan bo'lsa, sud uning ishtirokini ta'minlashi shartligini nazarda tutuvchi holatlarni huquqiy norma sifatida kiritish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasida, ya'ni himoyachining huquq va majburiyatlarida, shuningdek, himoya funksiyasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan advokatning protsessual harakatlarini belgilab beruvchi barcha huquqiy normalarda himoyachi huquqlarining biri sifatida "iltimosnoma berish", jumlasi ko'rsatilgan. Mazkur jumlani "xodataystvo" so'zini o'zbek tiliga so'zma-so'z o'girishdan yaratilgan. Lekin, "iltimosnoma" so'zi advokatning protsessual huquqlarining mazmun mohiyatini ochib bera olmaydi. Chunki, himoyachi buzilgan huquqni tiklash, bartaraf etish, rad etish va shunga o'xshash o'zining kasbiy vakolatiga kiruvchi protsessual vazifalarni bajarish borasida iltimos qilish kerak emas. U oddiy shaxs sifatida emas, balki protsessual vakolatga ega bo'lgan shaxs sifatida jinoyat ishida ishtirok etadi. Zero, advokat o'zining shaxsiy manfaatlarini himoya qilmay, balki davlat tomonidan unga yuklatilgan konstitutsiyaviy vazifani bajaradi.

Sud, alohida, mustaqil hokimiyat sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklashga taalluqli barcha hollarda "monopolist" bo'lmog'i zarur. Masalan, sud muhokamasida prokurorning bor-yo'g'i taraf ekanligini na sud va na prokurorning o'zi singdira olmayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi, deb o'ylaymiz. Bu tartib so'zsiz, sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etishi lozim bo'lgan prokurorga, sud qarorlari ustidan "nazorat" qilishni protsessual tarzda mustahkamlaydi. Vaholanki, sud muhokamasida teng huquqli taraf deb e'tirof etilgan himoyachiga bu huquq berilmagan. Shuning uchun ham bizningcha, "iltimosnoma" so'zini "talabnoma" yoki "shikoyat" so'zlari bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 56^1-bobi kassatsiya tartibida ish yuritishning umumiy tartibi sharoitlarini bayon qiladi. Uning 509^{12}-moddasida belgilangan talablar prokurorning haqiqatdan ham sud ustidan nazoratini e'tirof etadi. Ushbu moddaga ko'ra, tegishli prokuror tomonidan kiritilgan kassatsiya protesti bo'yicha sud ishni kassatsiya tartibida takroran ko'radi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur bosqichda ishlarni qayta ko'rish uchun himoya tomoni hech qanday to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish huquqi mavjud emas. Mazkur holat himoya huquqini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilikni liberallashtirishga va O'zbekiston Respublikasi JPKning 25-moddasidagi sudda ishlarini yuritishda tortishuv tamoyiliga zid keladi.

Jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida takroran ko'rishga tegishli sud raisi hamda

prokuror tomonidan kiritilgan protest asos bo‘ladi. Nimagadir, JPK da kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan sudlanuvchi, mahkum, uning himoyachisi hamda jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili takroran kassatsiya tartibida shikoyat berishi huquqiy jihatdan nazarda tutilmagan. Vaholanki, sudda ishlarni ko‘rishning har qanday bosqichida shikoyat berish mumkinligi to‘g‘risida konstitutsiyaviy norma mavjud. Holbuki, himoyachi bunday huquqqa ega emas. Sud raisi yoki prokurorga ishni kassatsiya tartibida takroran qayta ko‘rish uchun protest kiritish vakolati berilgan bo‘lib, himoyachiga mazkur bosqichda shikoyat kiritish huquqi berilmagan. Binobarin, ayblov va himoya o‘rtasidagi bunday muammoni hal etish uchun, bizningcha, qonunchilikka zarur o‘zgartirishlar kiritish lozim.

O.M.Madaliyev fikricha, albatta, sud muhokamasining teng huquqli ishtirokchilari bo‘lishi lozim bo‘lgan qonun bo‘yicha shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan protsess ishtirokchilarining qonun bo‘yicha protest kiritish huquqiga ega bo‘lgan ishtirokchilari bilan teng huquqliligini buzadi. [4]

Darhaqiqat, bu notenglik aynan kassatsiya tartibida takroran qayta ko‘rish quyi turuvchi sudlarni chiqargan qarorlariga nisbatan e’tiroz bildirish va qonunga muvofiqligini ta’minlash borasida kiritiladigan shikoyat berish va uni albatta, ko‘rib chiqilishi kerakligi namoyon bo‘ladi.

Himoyachining huquqlarini nafaqat sud jarayonida ham tenglashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sudlar o‘z hukm, ajrim va qarorlarida sud muzokarasida hamda taraflarning berilgan shikoyat va kiritilgan protestlarida bildirilgan fikrlarining asosiy mazmunini to‘liq ifoda etishlari shartligi va ularning asosliligi yoki asoslanmaganligi haqida ish bo‘yicha to‘plangan dalillardan kelib chiqib, baho berilishi haqidagi holatlarni, ya’ni taraflarning fikrlari sud majlisida ko‘rib chiqib, aynan qanday holatlarga ko‘ra, rad qilinishi yoki e’tirof etilishini sud aktlarida aniq aks ettirilishi lozimligi haqida qonun normalarida mustahkamlab qo‘yish zarur [5].

Bizning fikrimizcha, qonun yo‘li bilan sud muhokamasining teng huquqli ishtirokchilari bo‘lishi lozim bo‘lgan, qonun bo‘yicha shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan protsess ishtirokchilarining kassatsiya tartibida takroran ko‘rish bo‘yicha bergan protest (shikoyat) larini yuqori turuvchi sud, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida kassatsiya tartibida takroran qayta ko‘rilishi shartligi qonunda imperativ tarzda belgilab qo‘yilsa, ayni muddao bo‘lar edi.

Taraflarning tengligini ta’minlash maqsadida, prokurorning vakolatlarini sud jarayonining boshqa ishtirokchilari huquqlari singari tenglashtirish zarurdir. Binobarin, ishlarni kassatsiya tartibida takroran qayta ko‘rilishi uchun sudlanuvchi, mahkum yoki uning qonuniy vakili tomonidan shikoyat berish huquqini belgilash lozim. Bu esa, mazkur bosqichda tomonlar tengligi va tortishuvchanlik prinsipini ta’minlanishi uchun xizmat qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, demokratik huquqiy davlatda sud faoliyati ustidan prokuratura organining nazorati maqbul emas va shu bois, prokuraturaning faoliyat yo‘nalishi jinoyat-sudlovni amalga oshirishning barcha bosqichlarida davlat ayblovini ta’minlash va sudning chiqargan hukmi, ajrimi va qarorlari yuzasidan shikoyat tarzida shikoyat berishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адвокатлик фаолиятининг ҳуқуқий асослари: (илмий-амалий қўлланма) / М.М.Мамасиддиқов ва бошқалар.; масъул муҳаррир Ш.Х.Файзиев; ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги ин-ти. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. - 40 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 майдаги “Адвокатура институти самарадорлигини тубдан ошириш ва адвокатларнинг мустақиллигини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5441-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).

3. Намозов Ғ. Суд ислоҳоти: Муаммо ва таклифлар. Адвокат. 2000, № 3. – Б. 31-32.

4. Мадалиев О.М. Судланувчининг юқори инстанция судида иштироки ҳамда шикоят қилишда тарафлар тенглиги таъминланиши зарур. // “Адвокатура институтини ислоҳ қилишнинг айрим йўналишлари” мавзусидаги давра суҳбати материаллари тўплами. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. - 55 б.

5. Саломов Б.С. Ҳимоя ҳуқуқини таъминлашга қаратилган миллий қонунчиликни либе-

раллаштириш муаммолари. Адвокат. 2002, № 1. Б. 8-9.

Kuchkarov X.Z. Yuqori instansiya sudlarida tomonlar tengligini ta'minlashning ahamiyati

Maqolada yuqori instansiya sudlarida tomonlar tengligini ta'minlashning ahamiyati asoslantirib berilgan. Amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida yuqori instansiya sudlarida tomonlar tengligini ta'minlash huquqiy jihatdan takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: apellatsiya, odil sudlov, kassatsiya, yuqori instansiya sudi, shikoyat, protest, hukm, ajrim.

Кучкаров Х.З. Важность равенства состязательных возможностей в судах высшей инстанции

В статье обоснована значимость обеспечения равенства сторон при рассмотрении дел в судах высшей инстанции. На основе научного анализа действующего законодательства, а также мнений исследователей разработаны выводы и предложения по совершенствованию правового обеспечения равенства сторон в судах вышестоящих инстанций.

Ключевые слова: апелляция, правосудие, кассация, вышестоящий суд, жалоба, протест, решение, постановление.

Kuchkarov X.Z. The importance of equality of arms in higher courts

The article substantiates the importance of ensuring equality of the parties when considering cases in the courts of the highest instance. Based on the scientific analysis of the current legislation, as well as the opinions of researchers, conclusions and proposals have been developed to improve the legal provision of equality of the parties in higher courts.

Key words: appeal, justice, cassation, higher court, complaint, protest, decision, resolution.

Davletov O'tkirbek Matmurotovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig'ining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

FUQAROLIK SUD ISHLARINI JADALLASHTIRISH

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilashda, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishda eng muhim kafolat sifatida fuqarolik sud ishlarini yuritishni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son, 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son, 2018 yil 13 iyuldagi "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5482-son, 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son farmonlari hamda 2020 yil 3 sentabrdagi "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-sonli qarori va 2023 yil 16 yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF –11-son Farmoni sud hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishning yangi, zamonaviy davrini boshlab berdi.

Mazkur qaror va farmonlar odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, ishlarni sudda ko'rish sifatini oshirish, xolis, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi islohotlar, sud hokimiyatining nufuzini oshirish, sud orqali himoyalanishiga bo'lgan huquqlarni kafolatlash, sud tizimining qonunchilik asoslarini huquqiy demokratik davlat talablariga moslashtirish hamda fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish va hal etishni soddalashtirishga qaratilgan normalarini fuqarolik protsessual qonunchilikda mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, umumyurisdiksiya sudlariga taalluqli bo'lgan fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning sud amaliyotida ko'pchilikni tashkil etishi fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni hamda uning protsessual normalarini tartibga soluvchi tizimini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan ko'rib chiqilayotgan fuqarolik ishlari hajmining yildan-yilga ortib borayotganligi fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlashda, ishlarni ko'rish va hal qilish jarayonida protsessual muddatlarga rioya qilish masalalarida, sud hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat berish va sud qarorlarini ijro etish bosqichida ayrim muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Hozirda sudlar tomonidan fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan protsessual huquq normalariga to'la rioya qilmasdan qarorlar qabul qilish, ishlarni sudda ko'rishga lozim darajada tayyorgarlik ko'rmasdan fuqarolik ishlarini sudda mazmunan hal qilishni boshlab yuborish hamda ayrim hollarda sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilmasdan ishni ko'rish hollari tez-tez uchrab turmoqda. Bunday holatlarning asosiy sabablaridan biri sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalarning ish hajmini yildan-yilga ortib borayotganligi ko'rsatishimiz mumkin[1].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, MDH tarkibiga kiruvchi mamlakatlardagi singari, O'zbekistonda ham fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilayotgan ishlarning hajmi yil sayin ortib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi bir yilning o'zida birinchi instansiya sudlarida ko'rilgan fuqarolik ishlari va chiqarilgan sud buyruqlarining soni bir necha baravar ko'paygan. Masalan, 2021 yilda fuqarolik ishlari bo'yicha barcha sudlarda birinchi instansiyada ko'rilib, tamomlangan fuqarolik ishlarining soni 351 275 tani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 562 286 tani tashkil etgan va o'tgan yilga qaraganda 211 011 taga ko'paygan[2]. 2021 yil 31 martga qadar ishlagan sudyalar soni 245 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022 yil 31 martga qadar 250 tani tashkil etgan. Shu o'rinda bir sudyaga o'rtacha oylik ish hajmi 2021 yil 1-choragida 97,3 tani tashkil etgan bo'lsa, bu

ko‘rsatkich 2022 yil 1-choragida 143,2 tani tashkil etadi. Sudyalar ish yuklamasining yuqoriligi fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda ham uchraydi. Binobarin, ma’lumotlarga qaraganda, ushbu sud sudyalarining o‘rtacha oylik ish hajmi 2021 yil 1-choragida 90 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022 yil 1-choragida 110 tani tashkil etgan[3]. Masalan, birgina fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar tumanlararo sudlarida 44 nafar sudyalik shtati mavjud bo‘lib, 2022 yil yakunida 43 nafar sudya faoliyat ko‘rsatdi. Har bir sudyaning o‘rtacha oylik ish hajmi 271 ta ishni tashkil etgan [4].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi B.J.Islomov o‘z intervyusida ham sud tizimidagi og‘riqli muammo sifatida sudyalarning ish yuklamasini ko‘rsatgan. Uning fikricha, O‘zbekiston aholisining o‘sish sur’ati kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq bugungi kunda sudyalarning shtatlar soni hududlarning aholi soniga nisbatan mutanosib ravishda belgilanmagan. Statistik raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘tgan yil davomida jinoyat ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudida 58 697 ta jinoyat ishi, 539 686 ta ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar 562 304 ta, iqtisodiy sudlar 277 865 ta, ma’muriy sudlar 15 347 ta ishni ko‘rib chiqqan. Jami ko‘rilgan ishlarga nisbatan olinadigan bo‘lsa, eng ko‘p ish hajmi va ish yuklamasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning sudyalariga to‘g‘ri kelib, umumiy hisobda 50 foizga yaqinini tashkil etmoqda. Ushbu raqamlarni o‘rtacha oylik ish hajmiga nisbatan hisoblaydigan bo‘lsak, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudining bir sudyasi bir oyda 181 ta ishni, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudining sudyasi 269 ta, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudining sudyasi esa 163 ta ishni ko‘rib chiqishiga to‘g‘ri kelmoqda[5].

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har 100 ming aholiga Germaniyada 24 nafar sudya to‘g‘ri kelsa, bu ko‘rsatkich Rossiyada 18, Qozog‘istonda 16, Qirg‘izistonda 7-8, Tojikistonda 5 nafarni, O‘zbekistonda esa 3-4 nafarni tashkil etmoqda. Fransiyada 67,39 million aholiga 8 ming nafar sudya, Angliyada 1 million aholiga 200 nafardan ko‘proq sudya, Italiyada 101, Shvetsiyada 100, Hindistonda 21-22 nafar sudyalar to‘g‘ri kelmoqda[6].

Ko‘rib turganimizdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyalar ish hajmining yuqoriligi, undan tashqari tuman sudlari tuzilmasidagi, ularning hududiy joylashuvidagi mavjud jiddiy muammolar fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, qolaversa, sud qarorlarining o‘z vaqtida ijro etilmasligiga sabab bo‘ladi. Bu esa odil sudlovning sifatini pasaytirib, aholining jiddiy e’tirozlariga olib keladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga kelib tushayotgan ishlar hajmining yildan-yilga jiddiy tusda ortib borishi o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lgan ixtisoslashgan sudning sudyalari oldida ham bir qator muammolarni vujudga keltirmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, muntazam ravishda ortib borayotgan fuqarolik ishlarining hajmini faqat sudyalar sonini (shtatini) ko‘paytirib borish orqali kamaytirish har doim ham maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. Mavjud muammolarni fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish va bu borada xorijiy davlatlar hamda hamdo‘stlikdagi davlatlarning qonunchilik tajribasidan foydalangan holda hal qilishga erishish lozim.

Shunday ekan, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga kelib tushayotgan da’vo arizalari, ariza va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko‘rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni imkoni boricha soddalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu borada buyruq tartibda ish yuritish institutidan amalda samarali foydalanish va uni qo‘llash doirasini kengaytirish;

2) fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tez fursatlarda himoya qilishdagi hamda fuqarolik ishlarini kam xarajat sarflab, soddalashtirilgan tartibda ko‘rib hal qilishdagi ahamiyatini inobatga olgan sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha talablar ro‘yxatini mumkin qadar kengaytirish.

3) fuqarolik ishlarini qo‘rish va hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan sudlarni yangi tuzilmalar bilan to‘ldirish va ayrim toifadagi murakkab bo‘lmagan fuqarolik ishlarini ushbu tuzilmalar tomonidan ko‘rib, hal etish tartibini belgilash.

Darhaqiqat, ayrim murakkab bo‘lmagan fuqarolik ishlarini sud tizimida tashkil etiladigan yangi tuzilmalar tomonidan ko‘rib hal etilishi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudyalarining ish hajmini nisbatan kamayishiga, ishlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib, hal etishiga olib keladi.

Huquqshunos olimlar B.N. Lapin va N.A. Chechinalar (sudlarni yangi tuzilmasi hisoblangan kelishtiruvchi sudlar (Mirovoy sudlar)ni tashkil qilish orqali birinchi instansiya sudining ish hajmini 70% ga kamaytirishga erishish mumkinligi to'g'risida fikr bildirib, qonunchilikda fuqarolik-huquqiy nizolarni sudga qadar (taraflarni kelishtirish orqali) hal qilish tartibini belgilash lozimligini ta'kidlaydilar[7]. Shuningdek, ayrim amaliyotchilar ham sudyalarning ish hajmini mumkin qadar kamaytirish maqsadida sud tizimida yangi tuzilmalar tashkil etish va shu orqali tuman sudlarining kam ahamiyat kasb etuvchi ishlarni ko'rishdan ozod qilish haqida fikrni ilgari suradilar[8].

Ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga muvofiq, ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudga qadar boshqa organlar ham ko'rish va hal qilish vakolatiga ega. Xususan, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 iyundagi №380-son Qaroriga ko'ra, fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasi yosh oilalarni va voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan er-xotinlarning nikohlarini mustahkamlash va ularning barqarorligini saqlab qolish maqsadida faoliyat olib boradi. Lekin mazkur komissiyalarning hozirgi kundagi faoliyatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Qolaversa, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, sud-huquq tizimida ro'y berayotgan demokratik islohotlar fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning rivojlanishi va kengayishiga olib kelmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng samarali va demokratik usuli sud orqali himoya qilish ekanligi ayon bo'lib bormoqda. Shunday ekan, sudga qadar fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish vakolatiga ega bo'lgan ayrim organlar o'rnini sud tizimida tashkil etiladigan yangi tuzilmalar bilan to'ldirish zarur.

Albatta, fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalarning nisbatan yuqori bo'lgan ish hajmining kamayishida sud majlisiga qadar ***taraflar o'rtasida kelishuv bitimini tuzish*** orqali ish yuritishni tugatishga erishish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash fuqarolik protsessining muhim bosqichlaridan biri hisoblanishi bilan birga taraflarning kelishuv bitimi tuzish orqali fuqarolik ishlarini tugatishga imkon yaratib berish bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ayrim rivojlangan demokratik mamlakatlarning sud tajribasi shundan dalolat beradiki, fuqarolik ishlarini kelishuv bitimi tuzish yo'li bilan yakunlash masalasiga alohida e'tibor beriladi. Xususan, Fransiya Respublikasida mehnatga oid ishlarni ko'rib, hal qiluvchi maxsus sudlar tashkil etilgan bo'lib, ushbu sudlar ikki bo'limdan:

4) kelishuv bo'limi;
5) sudlov bo'limidan iborat.

Sudga kelib tushgan da'vo arizalari dastavval majburiy tartibda kelishuv bo'limiga beriladi va mazkur nizo yopiq sud majlisida kelishuv asosida hal qilinadi. Kelishuv bo'limida ish ko'rishning muhim protsessual xususiyatlari sifatida ushbu bosqichda ikkala tomondan saylangan sudyalarning ishtirok etishini e'tirof etish mumkin. Ushbu bosqichda har ikki sudya taraflarni ishni kelishuv asosida tugatishga chaqiradilar. O'z navbatida, kelishuvga erishish bir tomonning da'vodan voz kechishi yoki ikkala tomonning ham o'zaro teng manfaatlari asosida kelishuv bitimlarini tuzishlarida o'z aksini topadi. Fuqarolik ishlari yuzasidan tuzilgan kelishuv bitimini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan usulining qo'llanilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, ushbu bosqichda ish bo'yicha guvohlar jalb etilmaydi hamda ishdagi mavjud dalillar sud tomonidan tekshirilmaydi va baholanmaydi. Shuningdek, taraflarning kelishuv bitimi sud hal qiluv qarorlari kabi kuchga ega bo'lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ish yuzasidan kelishuvga erishilmagan taqdirdagina ish sudlov bo'limida mazmunan hal qilinadi[9].

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlashda taraflar o'rtasida kelishuv bitimini tuzish ehtimolining mavjudligini aniqlash va uning huquqiy oqibatlarini tushuntirish ishlarini amalga oshirishda taraflarni so'roqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim sudyalar ishni sud muhokamasiga tayyorlashda taraflarni so'roqlash masalasiga yetarlicha e'tibor bermaydilar.

Shu va boshqa o'rganilgan ma'lumotlar asosida fuqarolik sud ishlarini yuritishni jadallashtirishga xizmat qiladigan quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi FPKning 203-moddasi talabida taraflarni so'roqlash muddati haqida yangi band kiritish;

fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlashda bosqichida taraflarni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish ehtimolini aniqlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish borasida ayrim MDH mamlakatlari fuqarolik protsessual qonunchiligidagi ba'zi ijobiy jihatlarini o'rganish.

fuqarolik sud ishlarini jadallashtirishda Oliy sudning qonun ijodkorligi faoliyatida yanada ko'proq va professional tarzda ishtirok etishini

ta'minlashga xizmat qiladigan sud va parlamentning o'zaro hamkorligi kuchaytirish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ish yuritishni jadallashtirish, ishni sud muhokamasiga tayyorlashda taraflarni so'roqlash manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarining tez fursatlarda himoya qilinishiga, taraflar o'rtasidagi ijtimoiy keskinlikni pasaytirishga, turli xil ovoragarchiliklar va ortiqcha sud xarajatlarini oldi olishga, sudyalarning ish yuklamalarini kamaytirish imkoni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.М.Мамасиддиқов. Фуқаролик процессуал қонун ҳужжатларининг ҳолати ва самарадорлигини ошириш истиқболлари // Монография. –Тошкент, ЮМОМ нашриёти. 2012. -180 бет.

2. Фуқаролик ишлари бўйича судларнинг 2022 йил давомидаги иш фаолияти тўғрисида статистик маълумотлар тўплами. Ўзбекистон Республикаси Олий суди. -Тошкент, 2023. - 2 бет.

3. Фуқаролик ишлари бўйича судларнинг 2022 йил 1-чорак давомидаги иш фаолияти тўғрисида статистик маълумотлар тўплами. Ўзбекистон Республикаси Олий суди. -Тошкент, 2022. -Б. 2, 59-60.

4. Шамшидинов У.Т. Фуқаролик суд ишларини юритишда прокурор иштирокини такомиллаштириш масалалари // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Тошкент, ЎзР Бош прокуратура. 2023. –155 б.

5. Шамшидинов У.Т. Фуқаролик суд ишларини юритишда прокурор иштирокини такомиллаштириш масалалари // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Тошкент, ЎзР Бош прокуратура. 2023. –155 б.

6. Ўша жойда

7. Лапин Б.Н., Чечина Н.А. Реформа гражданского судопроизводства в странах СНГ // Правоведение, № 4, 2000. -140 с.

8. Абдраимов Б.Ж. Проблемы совершенствования гражданского процессуального законодательства Республики Казахстан // Законодательство. № 5, 2001. -74 с.

9. Оробец В.М. Специализированные трудовые суды: зарубежный опыт и российское законодательство // Журнал российского права. 2003. -№ 9. http://www.lawmix.ru/comm.php?id=107

Davletov O'.M. Fuqarolik sud ishlarini jadallashtirish

Maqolada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishda fuqarolik sud ishlarini jadallashtirish, maxsus soddalashtirilgan tartib-taomillarini joriy etish, sud muhokamasini talab etmaydigan nizolarni muqobil hal etish usullarini qo'llash, ishni sud muhokamasiga tayyorlashda taraflarni so'roqlash bilan bog'liq masalalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: jadallashtirish, soddalashtirish, kelishuv bitimi, sudyalar ish yuklamasi, fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash, ish yuritish, sud orqali himoyalanish va xorijiy tajriba.

Давлетов Ў.М. Ускорение рассмотрения гражданских дел

В статье нашли свое выражение вопросы, связанные с интенсификации гражданского судопроизводства при эффективной защите прав, свобод и законных интересов человека, введением специальных упрощенных процедур, применением альтернативных методов разрешения споров, не требующих судебного разбирательства, допросом сторон при подготовке дела к судебному разбирательству.

Ключевые слова: Интенсификации, упрощение, соглашение об урегулировании, нагрузка на судей, подготовка гражданских дел к судебному разбирательству, ведение дел, судебная защита и зарубежный опыт.

Davletov O'.M. Acceleration of civil court cases

The article expresses the issues related to the intensification of civil proceedings with the effective protection of human rights, freedoms and legitimate interests, the introduction of special simplified procedures, the use of alternative dispute resolution methods that do not require judicial proceedings, the interrogation of the parties in preparing the case for trial.

Key words: Intensification, simplification, settlement agreement, burden on judges, preparation of civil cases for trial, case management, judicial protection and foreign experience.

Usmanova Muborak Akmaldjanovna,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor
Yarashev Bobomurod Chalgashevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi boshlig'ining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA MEHNATGA OID MUAMMOLARNI HAL ETISH ORQALI JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamoat xavfsizligi bu jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. [1] Ta'rifdan ko'rinib turibdiki jamoat xavfsizligini ta'minlashda jamiyatni barcha qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoya qilish zarurdir.

Fikrimizcha jamoat xavfsizligiga tahdidlarning asosiy qismini ijtimoiy – iqtisodiy tahdidlar tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki bu kabi muammolarning kelib chiqishiga asosiy sabablarni jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi va huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslarning ish bilan band bo'lmaganligi o'zining mehnat faoliyatiga ega bo'lmaganligi, bo'sh ish o'rinlarining yetishmasligi kabi salbiy holatlardir.

Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.[2]

Xuddi shu tushunchani akademik Q.X.Abdurahmonov ham quyidagicha ta'riflaydi "Ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi va daromad keltiradigan faoliyatidir".[3]

Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki inson qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, zarur ish haqi va daromad keltiradigan faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lar ekan jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi xatti–harakatlar sodir etishga sabab bo'lmaydi. Shunday ekan kasalni davolash bilan bir qatorda uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash zarur bo'lganidek jamoat xavfsizligini ta'minlashda ham aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib, bu inson uchun eng muhim bo'lgan jamoat xavfsizligi, huquqshunoslik va iqtisodiyot sohalarida alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari" [4] asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifani bajarishga esa tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish orqali erishish mumkinligi belgilab berilgan.

Keltirilgan fikrlarning dalili sifatida esa birgina yoshlar bandligini ta'minlash borasidagi qilinayotgan ishlarga bir nazar qaratsak: Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "2021 yil 1 yanvardan talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar bo'yicha fuqarolarning malaka darajasini tasdiqlash tizimini joriy etish. Yoshlar forumidagi uchrashuvda yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlash uchun 100 million AQSh dollari ajratish to'g'risida qaror qabul qilinganligi. Bundan tashqari yoshlarning biznes loyihalarini kreditlagan xolda ularni kasb-hunarga o'qitish uchun 1 trillion so'm va 50 million AQSh dollari ajratilishi" borasida so'z yuritilgan. [5]

Eng faol aholi qatlami sanalmish yoshlarning bandligi ta'minlanib mamlakatimizdagi aholi o'rtasida ishsizlik hamda yangicha loyihalarni qo'llagan holda mamlakatimizning iqtisodiy rivojiga hamda jamoat xavfsizligi va tashqi davlatlar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarimizni rivojlantirish barchamizning oliy maqsadimiz desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun amalga oshirilayotgan islohotlar insonni har tomonlama kamol topish maqsadlariga yo'naltirilgan. Shunga ko'ra, respublikamiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik, ijtimoiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Shuning barobarida jamoat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiyotimizning turli soha hamda tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi va barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi, ertangi kunga bo'lgan ishonchini tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida 2021 – yil 29 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27 sonli farmoniga asosan "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" tasdiqlandi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari balki barcha davlat organlari mas'ul ekanligiga alohida e'tibor qaratilib, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar ko'rsatib o'tildi va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyida keltirilganidek belgilab olindi:

1) jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash;

2) jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta'minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

3) ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish;

4) har qanday ko'rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo'yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

5) ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

6) transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo'l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo'l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o'lim bilan bog'liq holatlarning oldini olish;

7) jinoyat sodir etishga moyil, ma'muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo'lgan g'oyalar ta'siriga tushib adashgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, shu jumladan ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

8) aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda aholining ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

9) voyaga etmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

10) jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

11) jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-

harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda. [1]

Taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan ta'minlashni tashkiliy huquqiy jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda jinoyatchilikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlash muhim masaladir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi muammo va jamoat xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgust kunidagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ham aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. [6]

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri - bu takomillashgan mehnat bozorini shakllantirish va uning samarali amal qilishini ta'minlash hisoblanadi.

Respublikamizda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan aholi, jumladan yoshlar orasida ishsizlar soni ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, ularning ishsizligini kamaytirishning samarali usullari va mexanizmlarini tadqiq etishni talab qilmoqda. Mamlakatimiz aholisi yosh jihatidan ancha yosh hisoblanadi, mehnat resurslari tarkibiga kirib keluvchilar, ya'ni mehnat qobiliyati yoshiga kelib qo'shiluvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Shunday ekan yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish orqali mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash, aholining mehnat bozoridagi hatti-harakati qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog'i yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligi va ularni kasbga tayyorlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi kuzatilmoqda [7].

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi, ya'ni qishloq yoshlari ishsizligi darajasining yuqori bo'lishi ko'proq ishchi kuchini dastlabki kasbga tayyorlash tizimi (shu jumladan, kasbga yo'naltirish)ni takomillashmaganligi, ularni ishga joylashishining past darajasi va operativ emasligi, ish beruvchilarga yosh kadrlar uchun ish o'rinlarini tahlil qilish va saqlab qolishga hamda yaratishga moddiy rag'bat va imtiyozlar yo'qligi, qishloq yoshlari tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va mehnat bozori infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi, yoshlarda malaka yetishmasligi, istiqbolda ish bilan bandlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

Zero, bugungi kunda sodir etilayotgan jamoat tartibi va xavfsizligi bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etayotganlarning aksariyat qismini aholining band bo'lmagan qismi va yoshlar hissasiga to'g'ri kelayotganligi albatta achinarli holatdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

1. Bugun huquqbuzarlik olamiga kirib kelayotganlarning ko'p qismi yoshlar (bolalar) bo'lib ularning deyarli 75 %ini noto'liq oilada tarbiya topayotganlar tashkil etmoqda. Shundan kelib chiqib joylarda oilalar mustahkamligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish, ajrimlarni kamaytirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq.

2. Turli huquqbuzarliklar sodir etgan fuqarolarni o'rganishlar jarayonida ularning munosib yashash va ish joyi mavjud emasligi kelib chiqqanligini hisobga olib Sanoat zonalari yaqinida "Ijtimoiy mahalla"larni joriy etish va sanoat zonalarida mavjud ish o'rinlari hisobidan ularni ish bilan band bo'lishini ta'minlash zarur.

Bizning fikrimizcha mehnat bozorida aholining ishsizligini kamaytirish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlovchi omillardan biri, ularning bilim darajasi va kasbiy malakasini oshirish hamda ish o'rinlarini yaratish, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishning alohida

ahamiyatga ega ekanligi hisoblanadi. Yoshlarning ish bilan bandligiga ko'maklashish sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish, ularning ishsizligini kamaytirishning huquqiy-ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mehnat bozorida yoshlarga mehnatni diversifikatsiyalash asosida chuqur tahlil va tadqiq etish natijasida ularning ish bilan bandligi darajasini oshirish bo'yicha tegishli ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni. www.lex.uz.

2."O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni // Toshkent. 2020-yil 20-oktyabr, O'RQ-642-son.

3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). -T.:Mehnat.-2009.-512 b.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF 60-son farmoni. www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. https://nrm.uz

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2020 yildagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4804-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/-4945748

7. Usmanova M. A., Axmedova M. T. huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 162-167.

Usmanova M.A., Yarashev B.Ch. Aholi bandligini ta'minlash va mehnatga oid muammolarni hal etish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashning ayrim masalalari

Mazkur maqolada aholi bandligini ta'minlash va mehnatga oid muammolarni hal etish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat xavfsizligiga tahdidlarning asosiy qismini bo'lmish ijtimoiy – iqtisodiy tahdidlar, aholi bandligini ta'minlash borasidagi ayrim muammolar, jamoat tartibi va xavfsizlikka oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarning ayrim jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bandlik, mehnat, mehnatga oid munosabatlar, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik, oldini olish tadbirkorlik.

Усманова М.А., Ярашев Б.Ч. Некоторые вопросы обеспечения общественной безопасности путем решения проблем занятости и труда

В данной статье проанализированы некоторые аспекты обеспечения общественной безопасности путем решения проблем, связанных с занятостью и трудом, социально – экономические угрозы, составляющие основную часть угроз общественной безопасности, некоторые проблемы, связанные с обеспечением занятости населения, факторы, вызывающие нарушения общественного порядка и безопасности.

Ключевые слова: занятость, труд, трудовые отношения, общественная безопасность, поддержание общественного порядка, правонарушения, предупреждение предпринимательства.

Usmonova M.A., Yarashev B.Ch. Some issues of ensuring public safety by solving employment and labor problems

This article analyzes some aspects of ensuring public safety by solving problems related to employment and labor, socio–economic threats that constitute the main part of threats to public safety, some problems related to ensuring employment of the population, factors causing violations of public order and security.

Key words: employment, labor, labor relations, public safety, maintenance of public order, offenses, prevention of entrepreneurship.

Maxmudov Rozmet Muratovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori;
Ibraximov Anvar Rajabovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

MEGAPOLISLARDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Xorijiy tajribalar)

Megapolis aholisining ko‘payishi, odamlarni bir-biriga befarqligi kabi xatti-harakatlari tufayli politsiya faoliyatining xususiyatlari og‘irlashib bormoqda. Zamonaviy yirik shaharlarda yuzaga keladigan tahdidlar-terroristik harakatlar, falokatlar, tartibsizliklar – katta olomon va shu bilan birga fuqarolarning uyushqoqligi natijasidir. Bunday sharoitda politsiya faoliyati qiyinlashadi. Huquqbuzarliklarga qarshi kurashdan tashqari, Megapolis transport kompleksining yo‘lovchilar, yuk va yo‘lovchi oqimlarini boshqarishni tartibga solish funksiyalari ham bunga qo‘shiladi. Huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurash uchun ilm-fan va texnikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalanish kerak, bu bizga huquqbuzarlik to‘g‘risida tezkor ma’lumot olish, uni qayd etish, unga munosabat bildirish, uni sodir etgan shaxslarni aniqlash va profilaktika choralarini ko‘rish imkonini beradi. Sayyohlik markazlari bilan bog‘liq bo‘lgan megapolislarda maxsus bo‘linma – sayyohlik politsiyasi tashkil etilgan, uning vazifasi shaharning qisqa vaqt ichida diqqatga sazovor joylariga boradigan fuqarolar bilan profilaktika tadbirlar olib borishdir.

Shahar turmush tarzi insoniyatning tobora ko‘proq qismini qamrab olmoqda. Megapolis – ko‘p millionli aholisi bo‘lgan shahar, ko‘pincha katta shahar deb yuritiladi. Dunyoda odamlarning tarqalishining bu eng katta shakli va ijtimoiy hayot uchun juda ko‘p afzalliklarga ega, ammo shu bilan birga ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shahar muhiti-insonning barcha sotsiobiologik va psixologik fazilatlari, jamiyatning fuqarolarni shakllantirish va tarbiyalaydigan yashash joyi hisoblanadi.

Antropogen landshaftni tushunish “shahar odami”ning xatti-harakatlarida ko‘p narsani farqlatadi va tushuntiradi. Uchinchi ming yillikning o‘rtalariga borib, asta-sekin urbanizatsiya o‘zgarib boradi.

1900 yilda dunyoda 10 ming shahar bor edi, 1990 yildan keyin – 276, va 2017 yilda aholisi millionlab bo‘lgan shaharlar soni 362 tani tashkil etdi, ya’ni so‘ngi yigirma yetti yil ichida har yili o‘rtacha 3 Megapolisga oshdi. Shahar aholisining o‘sishi har yili taxminan 0,35% ni tashkil qiladi, qishloqda esa migratsiya va tabiiy pasayish kuzatilmoqda. O‘zbekistonning megapolislari: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Namangan shaharlari o‘sishda davom etmoqda.

Megapolislarda odamlarni o‘ziga jalb qiladigan narsalar shuki, shaharlarning aholisida o‘ziga xoslik, erkinlik ularni nostandart fikrlashga majbur etadi. Shu bilan birga, jamiyat faol ravishda o‘zgarib, yangi imkoniyatlarga xususiyatlarga ega bo‘ladi. Megapolis hayotining ijobiy va shu bilan birga salbiy tomoni shundaki, shahar aholisining aksariyati boshqalarning fuqarolar nima qilayotgani, nima kiyganligi, kayfiyati qanday ekanligi haqida qiziqmaydi. Begonalashish, shahar aholisi uchun yangilik emas va ijtimoiy turmushimizda aniq ko‘rinib turadi. Bunday sharoitda xavfsizlik qonun va tartibni saqlash, megapolisda resurslarni adolatli taqsimlashi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Shahar turmush tarzining yuqori zichlik kabi muhim xususiyatlari shahar aholisi orasida tajovuzning kuchayishiga olib keladi, shaxslararo aloqalarning intensivligini oshiradi, boshqa shahar aholisi bilan masofani yaqinlashtiradi va o‘z makoni uchun kurashishga tayyorligini ko‘rsatadi. Dastlab, shaharlarda jamoat tartibini saqlash funksiyalarini o‘z zimmasiga olgan maxsus xizmat, politsiya tashkil etish zarurati paydo bo‘ldi (“politsiya” so‘zi qadimdan yunon tilidan kelib chiqqanligi bejiz emas. “polis”-shahar). Keyinchalik globallashuv jarayonlari fonida jinoyatchilikka qarshi milliy va transmilliy kurashning kamchiliklarini qoplash zarurati paydo bo‘ldi.

Politsiya vakolatlari birinchi navbatda shaharlarda aholi o‘rtasida tatbiq etildi va qishloq joylarda xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan aholining uzoq vaqt davomida norasmiy muhofaza qilish funksiyalarini o‘z zimmasiga olgan. Hozirgi vaqtda politsiya megapolislarda, oddiy aholi punktlarida va qishloq aholi punktlarida o‘zining vazifasini ammo bir necha million kishi yashaydigan muhitda politsiya ishini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Megapolis aholisi o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshiliklardan iborat shahar madaniyatining mohiyatini o‘z ichiga oladi. Katta shaharlarda global muammolar paydo bo‘lishi ehtimoli ko‘proq: ommaviy tartibsizliklar, madaniyatlararo ziddiyatlarning kuchayishi, diniy, irqiy va milliy nizolar, terroristik harakatlar, texnogen ofatlar va boshqalarni bo‘lishi tabiiy, davlat organlari, jamoat tashkilotlarining sa’y-harakatlari ularning bir qismini hal qiladi, ammo yangilari yuzaga kelmoqda, shaharlarning o‘sishi bilan shaxslararo qarama-qarshiliklar chuqurlashib bormoqda, bu nafaqat fuqarolarning istagi, balki kichik guruhlarning ijtimoiy muhitida ham namoyon bo‘ladi. Har bir shaxsni o‘rab turgan, tajovuzlardan himoya qilishni talab qiladigan xilma-xil, boy moddiy muhit paydo bo‘ldi. Politsiyachilar guvohlarning, atrofdagi odamlarning, qo‘shnilarning yordamiga tobora kamroq ishonishlari kerak bo‘lib bormoqda, shaharda bekorchilik ko‘p ular o‘zlarining odatlari, afzalliklari, sevimli mashg‘ulotlari haqida biron bir mazmunli ma’lumot bera olmaydilar. Bermaslikning sababi, tor oila doirasida kamdan-kam yig‘ilishadi, ovqatlanish ham jamoat ovqatlanish joylarida, muloqotga vaqt yo‘q.

Shaharda tashvish sezilarli darajada oshadi, bu jamiyatning umumiy nevrotiklanish darajasini va shahar aholisining ijtimoiy xavf bilan uchrashishga tayyorgarligini ko‘rsatadi. XXI asrning so‘nggi o‘n yilliklari yangi ijtimoiy muhitni yaratgan megapolislarning muammolarini qisman ko‘rsatadi, bu yerda ijtimoiy aloqalarni yo‘qotish, muloqotdan voz kechish, jamiyatdan ijtimoiy tarmoqlarga o‘tish bilan birga, katta shaharlar individual va ijtimoiy erkinlikning markazi hisoblanadi.

Shu bilan birga, fuqarolar xavfsizligining ta’minlashda ahamiyati shunchalik kuchayadiki, huquqni muhofaza qilish politsiyasining an’anaviy usullari yetarli emas, shahar atrof-muhitning zamon talabiga javob beradigan yangi texnologiyalarini ishlab chiqish kerak. So‘nggi o‘n yilliklarda katta shaharlarda jinoyatchilikning oldini olish choralari va uning ayrim turlari huquqni muhofaza qilishning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda megapolisdagi politsiya an’anaviy vazifalar bilan bir qatorda kommunikativ funksiyalarni ham bajaradi: fuqarolarga xohlagan manzilga borishga yo‘nalishlarini tushuntiradi, to‘g‘ri harakatlanishga yordam beradi va hokazo.

Nyu-York shahri megapolisida politsiya faoliyatini samaradorligini oshirishning qiziqarli tajribasini keltirishimiz mumkin. XX asrning oxiriga qadar ko‘cha jinoyati yuqori bo‘lgan shaharda 25 yil ichida vaziyatni o‘zgartirib, uni eng xavfsiz zamonaviy megapolislardan biriga aylantirish mumkin edi. Nyu-york rasmiylari bir yil ichida (1990 yilda) jinoyatchilar qo‘lida ikki mingdan ortiq odam halok bo‘lganidan keyin, jamoat tartibini saqlashning yangi usullarini ishlab chiqishni talab qildi. Bundan tashqari, talonchilik, jamoat joylarida giyohvand moddalar savdosi tahlikali vaziyatni yuzaga keltirdi. Vaziyatni barqarorlashtirish uchun shahar hokimiyati huquqni muhofaza qilishni tashkil etishda barcha turdagi nou-xaulardan foydalanishga qaror qildi. Politsiyaga yordam berish uchun sompstat (Somputer Statistiss) statistik kompyuter tizimi joriy etildi, bu o‘sha paytdagi texnologiyaning eng yangi yutug‘i edi. Kompyuterdagi ma’lumotlar Nyu-Yorkning katta yagona xaritasi bo‘lib, unda kompyuterga ulangan lampalar jinoyat to‘g‘risida xabar berilgan taqdirda butun shaharni ko‘rishga, ayniqsa kriminogen hududlarni, ko‘chalarni, uylarni aniqlashga imkon berdi. Bundan tashqari, interaktiv yo‘llari bilan jinoyatlarni kirishini kuzatib borish, bezovta qiluvchi omillarni qayd etish, zudlik bilan saytga, jinoyatchining jinoyat joyidan qochish yo‘llarini bashorat qilish, yashirinadigan joylarni lokalizatsiya qilish va kelajakda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish ancha osonlashdi. Kerak bo‘lsa, rahbariyat shaharning muayyan joylarida ishchilar sonini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qaror qabul qildi, patrulning yo‘nalishlari o‘zgartirildi.

Nyu-York shahrining jamoat tartibini saqlashdagi ikkinchi yangiligi sotsiologlar Jeyms Uilson va Jorj Kelling nazariyasiga asoslangan bo‘lib, keyinchalik buzilgan “derazalar nazariyasi” deb nomlangan. Ushbu nazariya kichik huquqbuzarliklarni kriminogen vaziyatning ko‘rsatkichi va umuman jinoyatchilik darajasiga ta’sir qiluvchi faol omil sifatida ko‘rib chiqildi. Shahar axlati va tartibsiz ko‘chalarning antisotsial xatti-harakatlar darajasi bilan bog‘liqlikni tushunib, shahar xizmatlari metro stansiyalari, jamoat transporti bekati, odamlarning ommaviy yashash joylari, restoran hovlilari, kinoteatrlarni axloqsizlikdan tozalash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rdilar.

Amalga oshirilgan ulkan ishlarning maqsadi aholini toza yashashga, axloqsizlik, axlat va tartibsizliklarga toqat qilmaslikka o‘rgatishdir. Metro poyezdlari, metro stansiyalari va jamoat

transporti bekatlari vagonlari har kuni grafik chizmalardan, axloqsiz so‘zlardan yuvilib, fuqarolar turli devorlarni iflos qilishni to‘xtadilar. Shu bilan birga, rasmiylar har qanday kichik huquqbuzarliklar uchun “nol tolerantlik” ni e’lon qilishdi – jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish man etildi. Shahar aholisi jarima shaklida ommaviy ravishda ma’muriy javobgarlikka tortila boshlandi, bu ko‘pchilikni takroriy huquqbuzarliklar qilishini to‘xtatdi. Ko‘chalarda xavfsizlikni oshirish jarayonida patrul xizmatini 35%ga ko‘paytirdi.

Keyin ular “to‘xtatish va qidirish” (stop va friks) tamoyilini qonuniy ravishda tasdiqlab, ko‘cha jinoyatlarining to‘liq oldini olish amaliyotini joriy qildilar. Yangi qonun “yaxshi asoslar” tushunchasini shaxsiy tekshirish va politsiyachilarga shubha tug‘diradigan shaxslarni politsiyaga yetkazish uchun sezilarli darajada kengaytirdi. Bunday vakolatlar xavfga ega bo‘lgan ko‘cha giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish uchun zarur edi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar tufayli Nyu-york shahri jinoyatchiligi past darajasi bo‘lgan shaharga aylandi. Kichik qoidabuzarliklar sonining keskin pasayishi, yotoqxonaning tartibiga, qoidalariga rioya qilinishi og‘ir jinoyatlar sonining kamayishiga olib keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu davrda aholi soni 7,3 million kishidan 8,5 million kishiga ko‘paydi.

Moskva shahridagi tajribadan foydalangan holda Rossiyaning o‘ta yirik shaharlarida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkil etilishni tahlil qilib, shuni aytishimiz mumkinki, jamoat tartibini saqlashdagi o‘xshash tamoyillari Rossiyada ham qo‘llaniladi. Megapolisda jamoat tartibini samarali himoya qilish uchun jamoat joylarida joylashgan patrul politsiyachilarning yetarli soni, shahar xizmatchilari va hokimiyat organlarining tozalik va huquqni muhofaza qilishda o‘zaro ta’siri, shuningdek shahar ko‘chalarida vaziyatni masofadan kuzatib borish imkonini beradigan kompyuter texnologiyalarining so‘nggi yutuqlaridan foydalanilmoqda.

Borgan sari zamonaviy politsiya o‘z ishlarida kuzatuv video kameralaridan foydalanmoqda. Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunda fan va texnika, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlari yutuqlaridan foydalanish faoliyat prinsipi sifatida ko‘rsatib o‘tildi. Videokuzatuv kameralari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ichki kameralari, DVR-lar hozirda “mahalla nazorati”, guvohlar va shahar sharoitida sodir etilgan huquq-tartibot qoidalarining buzilishi guvohlarning qiziqishini kuchaytiradi. Organ xodimi har bir ko‘chada, uyda va kiraverishda qatnasha olmaydi, ammo do‘konlar, banklar, maktablar, kasalxonalar, turar-joy binolarining kirish joylari va boshqalarning xavfsizlik kameralari noqonuniy xatti-harakatlarning beixtiyor guvohi bo‘lib, noqonuniy xatti-harakatlarining oldini olishga yordam beradi.

Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi “xavfsiz shahar” apparat-dasturiy kompleksini yaratishni joriy etish tashabbusi bilan chiqdi, uning maqsadi – ushbu muammolarni hal qilish uchun mas’ul bo‘lgan kuchlar va xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirishni sezilarli darajada yaxshilash orqali jamoat xavfsizligi, qonun va tartib, atrof-muhit xavfsizligining umumiy darajasini oshirish, munitsipalitetlar asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni bashorat qilish, monitoring qilish, oldini olish va bartaraf etishni ta’minlaydigan keng qamrovlik axborot tizimini joriy etish, shuningdek favqulodda vaziyatlar va huquqbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish uning navbatchi, dispetcherlik quyi tizimlarining axborot va boshqaruv harakatlarini kommunal xizmatlar munitsipalitet manfaati uchun ularning tezkor o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi.

Biz qishloqda joylashgan barcha xavfsizlikni ta’minlash muassasalaridan olingan ma’lumotlarni yagona ma’lumot manbasiga to‘plash haqida gapiramiz. Ushbu komplekslar birinchi navbatda megapolislarda talabga ega, shuning uchun Moskva “xavfsiz shahar” jinoyatchilikning oldini olishni keng qamrovlik dasturini amalga oshirishda yetakchi hisoblanadi. Umuman olganda, poytaxtda fuqarolarning zich yashash joylarida 128,500 videokuzatuv kameralaridan o‘rnatilgan bo‘lib, bu yiliga 1,5 mingdan ortiq jinoyatlarni ochishga imkon beradi. Moskva shahridagi jinoyat qidiruv bo‘limida videokuzatuv kameralari ma’lumotlardan tezkor foydalanish bo‘yicha maxsus tahliliy bo‘lim tashkil etildi. Rossiyaning boshqa megapolisitenlarida bunday apparat va dasturiy ta’minot hali yo‘lga qo‘yilmagan.

Savol tug‘iladi: jamiyatning urbanizatsiyasi megapolisda politsiyachiga qo‘shimcha vakolatlar, shu jumladan kuch ishlatish vakolatlarini berishga olib keldimi? Hozirgi vaqtda megapolisitenlarda organ xodimlarining maxsus maqomini tasdiqlovchi huquqiy asoslar mavjud emas. Organ xodimlari, xizmat joyidan qat’iy nazar, teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan, qonunda nazarda

tutilgan asoslar bo'yicha jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'q otar qurollardan foydalanish huquqiga ega. Angliyaning London shahrida politsiya faoliyati davomida patrullar an'anaviy ravishda o'qotar qurol bilan qurollanmagan, chunki rasmiy shaxslar buni keraksiz deb hisoblashgan. Qurol patrul politsiya mashinalarida joylashgan bo'lib, aholiga namoyish etilmaydi. Biroq, 2016 yil yozida Yevropada sodir bo'lgan bir qator terroristik harakatlarga javoban London ko'chalarida patrul olib borish qo'shimcha 600 ta qurolli xodim yuborildi. Politsiya boshlig'ining so'zlariga ko'ra, ularning yordami bilan sayyohlik joylari va ko'plab odamlar gavjum joylarda xavfsizlik kuchaymoqda. London politsiyasining qolgan qismi hali ham ko'chalarni qurolsiz qo'riqlamoqda.

Megapolislarda huquq tartibni muhofaza qilishni tashkil etish taktikasi uning xarakteri, tarixi, xususiyatlari, sayyohlar uchun jozibadorligiga ta'sir qiladi. Megapolislarni ikki turga ajratib ko'ramiz – "sayyohlik "yoki" mehmon", qisqa vaqt ichida ko'p sonli odamlarning jalb qilish markazlari: sayyohlar, sayohatchilar, muhojirlar, talabalar va boshqalar. Shaharda doimiy yashaydigan fuqarolar shaharning xususiyatlarini bilishadi, kriminogen vaziyatni boshqaradilar, noqonuniy tajovuz sodir bo'lgan taqdirda qayerdan yordam so'rashni biladilar.

"Turistik" megapolislarda jamoat tartibini saqlash politsiyachilarining umumiy funksiyalari shaharda qisqa vaqt ichida murakkablashdi. Ko'p sonli fuqarolarning doimiy konsentratsiyasi kriminogen vaziyatni o'zgartiradi, politsiya faoliyatida yangi tendensiyalarni keltirib chiqaradi. Misr, Hindiston, Tailand, Shri-Lanka, Turkiya, BAA, Isroil kabi mamlakatlarda sayyohlarni nazorat qilish uchun megapolislar transport majmuasining yo'lovchilar, yuk va yo'lovchi oqimlarini boshqarish, tartibga solishda ishtirok etadigan turistik politsiya bo'linmalari tashkil etildi.

Rossiyada ikkita yetakchi "mehmon" markazlari bor bular-Moskva va Sankt-Peterburgda Moskvadagi umumiy sayyohlik oqimi bugungi kunda taxminan 17,5 million kishini tashkil etdi va Sankt-Peterburgga 6,9 millionga sayyoh tashrif buyurdi, ya'ni ushbu megapolislar har yili mehmonlarni qabul qilishadi va joylashtiradilar, ularning soni doimiy yashaydigan aholi bilan taqqoslanadi, bu esa Moskva Sankt-Peterburgga bu huquqni muhofaza qilish organlarining ishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ushbu shaharlar orqali ko'plab odamlar tranzit bo'lib o'tishadi, ularning ba'zilari jinoiy tajovuz obyektiga aylanadi.

Moskvada tajriba sifatida sayyohlik politsiyasi tashkil etildi. Hozircha bu bitta batalyon, ammo kelajakda ko'proq politsiyachilar bo'lishi kerak. Turistik politsiya xodimiga qo'shimcha malaka talablari qo'yiladi: ingliz tilini bilishi, tarixiy obidalar joylashgan joylar, madaniy markazlar, ularga boradigan yo'llar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'chada bunday politsiyachilarga nafaqat chet elliklar, balki poytaxtni yaxshi bilmaydigan yerlik aholi ham murojaat qilishadi. Ehtimol, bunday bo'linma yaqin kelajakda Sankt-Peterburgda ham faoliyat olib boradi. Bunday shaharlarda sayyohlik oqimlari yo'nalishidan tashqari , huquqni muhofaza qilish organlari shahar maqomini saqlab qolish – dunyo jamoatchiligi uchun jozibali ma'muriy va sayyohlik markazi, shuningdek madaniy boyliklarning saqlanishi bilan hayratga soladi. E'tibor bering, katta shaharlarda politsiyachining ishidagi stressning kuchayishi boshqa aholi punktlarida jamoat tartibini saqlash bilan shug'ullanadigan politsiyachilarga nisbatan ko'proq haq to'lanadi.

Megapolislarda jamoat tartibini saqlash xususiyatlarini tahlil qilish uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

1. Megapolisdagi fuqarolarining hayotiy faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish jamoat joylarini, odamlarning toza va Ozoda bo'lgan joylarini saqlash bilan birgalikda yetarli miqdordagi patrul politsiyasining mavjudligi bilan ta'minlanadi.

2. Ko'chadagi jinoyatchilik darajasining pasayishi ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va ko'chalardagi fuqarolarning noqonuniy xatti-harakatlarga zudlik bilan javob berishlari natijasida yaratilgan keng qamrovli videokuzatuv tizimi tufayli yuzaga keladi.

3. Megapolis hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarning katta hajmini hisobga olgan holda, sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlarni zudlik bilan tahlil qilish va ularga javob berish zarurati paydo bo'ladi, bu esa maxsus politsiya bo'linmalarini-ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan tezkor foydalanish bo'limlarni yaratishga olib keladi.

4. Vaqtinchalik mehmonlar va migratsiya xarakteridagi katta oqimlar sayyohlik politsiyaning yaratilishiga olib keldi, ular jamoat tartibini saqlashning an'anaviy funksiyalaridan tashqari, megapolitsiya mehmonlarini madaniy

ahamiyatga ega joylarga, tarixiy obidalarga va ma'muriy obyektlarga yo'naltirishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ракитский А.В. Ценностный подход к пониманию содержания патриотического воспитания курсантов военных вузов в педагогического исследования // Человек и образование 2017. №1 (50) стр 117-120.

2.Смирнов И.Р., Челноков А.А. Обеспечение безопасность военной службы // Вестник военного образования 2020 №1 (22) стр 72-75.

3.Жамоат хавфсизлигини таъминлаш асослари / Ўқув қўлланма. Тузувчилар Рустамбаев М.Х., Миразов Д.М., Махмудов Р.М., Турғунов О.Д., Хайриев Н.И., Бердишев Ш.Ж., Қушаев Н.М., Газиев Ш.М., Т.ХТИ.2020. 316 бет.

Maxmudov R.M., Ibraximov A.R. Megapolislarda jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos xususiyatlari (Xorijiy tajribalar)

Maqolada megapolislarda jamoat tartibini saqlash, ichki ishlar organlari xodimlari va Milliy gvardiya faoliyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: megapolis, politsiya vazifalari, politsiya, shahar aholisi, xulq-atvor qoidalari, jamoat tartibini saqlash, sayyohlik politsiyasi, huquqbuzarliklarning oldini olish, ko'chalarda sodir etiladigan jinoyatlar.

Махмудов Р.М., Ибрахимов А.Р. Особенности охраны общественного порядка в мегаполисах (Зарубежный опыт)

В статье рассматривается обеспечение общественного порядка в мегаполисах в совместной, деятельность органов внутренных дел и Национальной гвардии.

Ключевые слова: мегаполис, обязанности полиции, полиция, горожане, правила поведения, поддержание общественного порядка, туристическая полиция, профилактика правонарушенийй, уличные преступления

Makhmudov R.M., Ibrahimov A.R. Features of the protection of public order in megacities (Overseas experience)

The article discusses the provision of public order in megacities, the activities of internal affairs bodies and National guards.

Key words: metropolis, police duties, police, citizens, rules of conduct, maintenance of public order, tourist police, crime prevention, street crimes

Жумаев Аълокул Журакулович,
самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ НА ТЕРРИТОРИИ ТОРГОВЫХ РЫНКОВ (НА ПРИМЕРЕ ТОРГОВОГО КОМПЛЕКСА «УРИКЗАР»)

В рамках реализуемых в стране широкомасштабных реформ особое внимание уделяется обеспечению мирной и спокойной жизни населения, а также формированию в обществе культуры законопослушания и общественной безопасности.

В частности, внедрены принципиально новые механизмы и порядки организации работы в направлении обеспечения общественной безопасности на основе принципа «Служить интересам народа», налажено целевое взаимодействие государственных органов с общественными формированиями.

В данном направлении, особую важность приобретает вопрос совершенствования системы обеспечения безопасности на территории торговых рынков, так как согласно Указа Президента Республики Узбекистан от 29 ноября 2021 года № УП-27 «О мерах по утверждению и реализации концепции общественной безопасности Республики Узбекистан» организация охраны общественного порядка на рынках в Республике Каракалпакстан, областных центрах и городе Ташкенте возлагается непосредственно подразделения Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Исходя из этого, анализ состояния торговой инфраструктуры, организации охраны общественного порядка и безопасности на территории торгового комплекса ООО «Ўрикзор савдо комплекси» с целью определения перспектив создания благоприятной и безопасной среды для посетителей и предпринимателей имеет практическую значимость.

Учитывая то, что ООО «Ўрикзор савдо комплекси» располагается на территории более 9 гектар, является крупным центром оптовой и розничной торговли со 100% государственным участием. Годовой товарооборот составляет 62,6 млрд. сум, общие ежегодные налоговые выплаты – 22,8 млрд. сум, ежедневный поток составляет около 20 тыс. человек вопрос надежного обеспечения безопасности является особо важным.

Так, изучение состояния дел в указанных направлениях показал на наличие ряда факторов инфраструктурного, техническогои организационного плана, негативно влияющих на уровень комфорта и безопасности участников торговых отношений на территории комплекса.

В частности, изучение показывает, что основным фактором вызывающим обоснованную неудовлетворенность посетителей является чрезмерная загруженность маршрута движения, ведущего к торговому комплексу.

Социологический опрос, проведенный среди 2 тыс. граждан на территории торгового комплекса (опрошено 1400 предпринимателей и 600 покупателей) показал, что 20,92% предпринимателей и 37%– посетителей указывают на ниличие проблемы дорожных заторов при подъезде в комплекс, 21,5% – сталкиваются с трудностями при размещении автомашин на временное хранение на автостоянках комплекса.

Расчёты показали, что среднесуточный транспортный поток составляет около – 9800 ед./сут. (легковой – 8 тыс. ед., грузовой – 1,8 тыс. ед.), из которых, порядка 3 тыс. ед./сут. транспорта въезжают на существующие парковочные места. Более того, из около 9 тыс. предпринимателей и персонала комплекса личный транспорт имеют около 1,5 тыс., что требует организации их более долговременного хранения (ок. 7,5 часов). Таким образом, формируется потребность в единовременном хранении 2 тыс. автомашин, при том, что одновременная вместимость 7 автостоянок комплекса составляет 660 автомашин.

Немаловажно и то, что к маршруту движения, ведущему к комплексу, прилегают линии 16 автобусных маршрутов и 3 маршрутных такси, создающие дополнительные нагрузки на траффик на данном участке.

Более того, единственный маршрут движения вдоль комплекса (расположен на съезде с ТКАД) с двумя полосами одностороннего движения не позволяет разделить (легковой, грузовой и общественный) транспортные потоки для эффективной организа-

ции дорожного движения по отдельно выделенным полосам движения.

Наряду с этим отсутствие детских игровых комнат, скамеечных зон для пассивного отдыха, визуально понятной системы навигации по территории, пунктов бесплатного проката тележек, достаточного количества санузлов не позволяет достичь должного уровня комфортной среды на территории комплекса.

Кроме того, социологический опрос мнений среди посетителей и предпринимателей показал, что 26% опрошенных неудовлетворены условиями санитарных узлов, а 24% их количетсвом, 45% – плохим качеством дорожного покрытия комплекса. В то же время, 27% респондентов предложили обеспечить бесперебойное горячее водоснабжение, 10% – разместить скамейки, 42% – оборудовать молельные комнаты на территории комплекса.

Таким образом, создание удобной для населения дорожной инфраструктуры и благоприятных условий посещения требуют принятия комплекса неотложных мер по модернизации в целом.

Также, анализ организации торговой инфраструктуры указывает на необходимость оптимизации процедур для создания современной торговой инфраструктуры удобной для покупателей и предпринимателей.

В частности складирование товаров осуществляется в основном на базе морских контейнеров и стационарных складов, расположенных на всей территории комплекса, которые создают неоправданно большой поток движения людей и товаров по территории, загружают проходы и приводят к временным затратам на осуществление торговых операций. Автоматизация процесса товародвижения – отсутствует.

Расчёты показывают, что среднее время отгрузки товара составляет от 2 до 4 часов, в часы пик на территории рынка курсирует около 200 загруженных не стандартизованных ручных тележек.

Складская инфраструктура представлена 144 нерационально размещенными морскими контейнерами объемом 6.8 тыс. метр куб, и стационарными складами, расположенных на площади 4 тыс. квадратных метров с объемом хранения 10 тыс. кубических метров, что покрывает 68 % требуемого объема хранения (требуется дополнительно около 8 тыс. кубических метров).

Кроме того, несмотря на то, что основной поток товарооборота составляют продовольственные товары, складская инфраструктура не позволяет обеспечить надлежащий режимы (температура, влажность и др.) хранения. Данное положение дел создает постоянные риски санитарно-эпидемиологического характера.

Более того, на территории комплекса отсутствует лаборатория экспресс-анализа для определения качества продуктов питания для своевременного пресечения реализации товаров, представляющих опасность для здоровья граждан.

В то же время, изучение практики организации мелкооптовой и оптовой торговли в более чем 160 странах мира в т.ч. США, странах ЕС, КНР, Японии РФ и др. показывает, что для эффективной реализации продовольственных товаров широко применяются комплексы распределительных центров, организованных по технологии кросс-докинга – сквозного хранения товаров. Данная технология позволяет многократно ускорит процесс доставки товаров и снизить затраты на их складирование на 30%.

Таким образом, нерационально распределенные по территории комплекса складские помещения, а также отсутствие эффективных механизмов и технологий организации логистической цепочки создает препятствия для комфортной торговой среды субъектам предпринимательства и их клиентам.

Наряду с этим, система охраны общественного порядка на территории комплекса требует принятия организационно-правовых и технических мер для формирования эффективной и оптимальной модели обеспечения общественной безопасности.

Симптоматично и то, что в течение 2021 г. на территории комплекса совершено 33 преступления в т.ч. 15 краж, 14 – связанных с мошенничеством, 2 – по сбыту поддельных денег, один факт получения взятки и хулиганства, составлено 1.864 административных протокола, из которых 71 % связаны с нарушением карантинно-санитарных требований.

Так, вследствие отсутствия единой координации по организации службы, маршруты патрулирования подразделений органов внутренних дел и Национальной гвардии дублируются. В то же время, посты выставлены лишь на 8 из 15 входов (ворота и калитки), которые комплектуются персоналом дежур-

ной службы объекта, и сотрудниками ОВД, тогда как на 7 входах из-за отсутствия персонала личный осмотр не проводится.

Дублирование также имеется в выполняемых функциях патрульной службы ОВД, военнослужащих Национальной гвардии, персонала дежурной службы, сотрудников автостоянки, которые в целом обеспечивают охрану имущества и безопасность на территории. Такое положение дел объясняется отсутствием нормативов, определяющих количество привлекаемых сил и средств, применительно к данному объекту, а также обоснованных критериев привлечения сил от конкретного органа.

Немаловажно и то, что персонал, задействованный для обеспечения безопасности не имеет навыков по проведению профайлинга потока на предмет выявления потенциально опасных лиц, представляющих общественную угрозу, тогда как использование стационарных металлодетекторов, из-за большого потока посетителей не представляется возможным и эффективным.

Необходимо также указать на недостаточный уровень оснащённости техническими средствами безопасности.

Средства контроля и управления доступом используются лищь на автостоянках в виде автоматических шлагбаумов.

Вызывает беспокойство отсутствие интеграции технических систем охраны, которые представлены отдельными локальными решениями, а также современной противопожарной сигнализации, техники (автомашина марки ГАЗ-66 1988 г.в.) и резервуара для хранения противопожарного запаса воды.

В целом, комплексные исследования свидетельствуют о наличии ряда проблем связанных с необходимостью реконструкции дорожной, парковочной, складской, технической инфраструктуры, а также принятия организационно-правовых мер по совершенствованию деятельности в сфере обеспечения общественной безопасности.

В то же время, отсутствие адекватных мер, направленных на создание благоприятных условий, в среднесрочной перспективе может привести к кризисной ситуации по организации дорожного движения транспорта и усугублению проблем с безопасностью на территории комплекса и прилегающей территории, что сопряжено с резким снижением предпринимательской активности и ростом социальной напряженности.

С учетом отмеченного, в целях организации комфортной и безопасной торговли и создания благоприятных условий для посетителей на территории торгового комплекса «Ўрикзор савдо комплекси» по принципу «Хавфсиз ва қулай бозор», полагали бы необходимым:

Во-первых, принят следующий комплекс мер по совершенствование системы организации дорожного движения и временного хранения транспорта, путем:

– модернизации дороги вдоль фасада комплекса путем расширение проезжей части на одну полосу движения, предназначенную только для общественного транспорта, строительства остановочного комплекса для общественного транспорта и маршрутного такси, создание пешеходной и зеленой зоны за счет упразднения временных автостоянок;

– установка камер видеонаблюдения с возможностью фиксации нарушений правил дорожного движения, а также знака «Остановка запрещена»;

– строительства парковочного комплекса общей площадью 9 тыс. кв. метров вместимостью 1400 авто мест на территории между торговыми комплексами «Ўрикзор савдо комплекси» и «Строй город»;

Согласно примерным оценкам стоимость строительства оценивается в 120 млрд. сум, общая полезная площадь 63 тыс. кв.м., срок окупаемости – 3 года и позволит создать дополнительно 300 рабочих мест.

Реализация указанных мероприятий способствует решению проблем транспортных заторов на маршруте движения, ведущего к торговому комплексу.

Во-вторых, важным является вопрос совершенствования торговой инфраструктуры комплекса для повышения статуса ООО «Ўрикзор савдо комплекси» до уровня торгово-логистического хаба мелкооптовой и оптовой торговли продовольственными и непродовольственными товарами республики. В этих целях, видится целесообразным,

– строительство распределительного центра на территории 7-го павильона комплекса на площади 1,8 тыс. кв. метров общим объёмом хранения 18 тыс. м.куб., организацию парковочного комплекса для грузового транспорта площадью 0,6 тыс. кв.м. с дифференцированными по времени тарифами.

Согласно примерным оценкам стоимость строительства оценивается в 18,4 млрд. сум, срок окупаемости проекта составит 1 год.

– внедрение цифровых технологий управления поставками, основанных на автоматизации процессов товародвижения по технологии «двухэтапный кросс-докинг»;

– создание электронной торгово-логистической платформы для формирования возможностей по оптовой покупке, отправке товаров в дистанционной форме;

– интеграция системы розничной реализации товаров с инфраструктурой Национального почтового оператора «Ўзбекистон почтаси» с внедрением специального стандартизированного сервиса по доставке розничных товаров из ООО «Ўрикзор савдо комплекси».

Реализация проекта позволить решит проблему загруженности трафика товаров по территории комплекса, создаст возможность высвободить более 5 тыс. кв.м. за счет демонтажа контейнерно-складской инфраструктуры для озеленения прилегающей к каналу территории, дополнительно сгенерировать более 200 рабочих мест в комплексе.

В-третьих, совершенствование информационно-технического комплекса путем интеграции систем видеонаблюдения, охранно-пожарной сигнализации, оповещения и визуализации информации, контроля и управления доступом и средств связи в «Единый центр управления безопасностью торгового рынка» позволит повысит уровень безопасности.

В-четвертых, полагаем необходимым формировать профессиональной и принципиальной новой организационно-штатной единицы в составе подразделений Главного управления охраны Национальной гвардии – «Сарбоз» (по аналогии службы «секьюритас» в Швейцарии), имеющих статус подразделения военизированной охраны с полномочиями осуществления патрульной и постовой службы, задержания и доставления правонарушителей, функционирующий на договорной основе.

Данная организационная мера позволит органам Национальной гвардии выполнить задачу по обеспечению общественного порядка на территории рынков, парков и скверов, определенных в качестве зон ответственности в соответствии с Указом президента Республики Узбекистан №УП-27 от 29.11.2021 г. Кроме того, позволит экономить финансовые средства на 30% и повысит уровень обеспечения безопасности.

В–пятых, с учетом социальной важности торгового комплекса, рассмотреть вопрос формирования Общественного совета торгового комплекса из числа наиболее активных граждан и субъектов предпринимательства, а также создание его сайта для приема обращений граждан по вопросам совершенствования условий торговли и защиты прав потребителей.

В целом, принятия указанного комплекса мер позволить повысить уровень комфорт и безопасности граждан на территории торговых рынков, создаст благоприятные условия и среду для посетителей и субъектов предпринимательства.

Использованная литература

1. "Методические рекомендации по обеспечению безопасности на торговых рынках и местах массового скопления людей" от Федеральной службы по надзору в сфере защиты прав потребителей и благополучия человека (Роспотребнадзор).

2. "Требования к системе безопасности торговых рынков" от Министерства экономического развития Российской Федерации.

3. "Регламент по обеспечению безопасности на торговых рынках" от Администрации города/региона, где располагается рынок.

4. "Система безопасности на торговых местах: практическое руководство" от Страны СНГ.

5. "Методы и средства обеспечения безопасности торговых рынков" от Министерства внутренних дел Российской Федерации.

6. "Организация санитарно-эпидемиологического контроля на торговых рынках" от Роспотребнадзора.

7. "Правила техники безопасности на торговых рынках" от Министерства промышленности и торговли Российской Федерации.

8. "Торговый рынок как объект инфраструктуры: устройство и эксплуатация" от Академии наук РФ.

9. "Эффективные методы защиты бизнеса на торговых рынках" от Министерства экономики Российской Федерации.

10. "Создание системы видеонаблюдения на торговых рынках" от Министерства связи и массовых коммуникаций Российской Федерации.

11. "Организация противопожарной защиты на торговых рынках" от Министерства по чрезвычайным ситуациям Российской Федерации.

12. "Обеспечение электробезопасности на торговых рынках" от Федеральной службы по экологическому, технологическому и атомному надзору (Ростехнадзор).

Jumayev A.J. Savdo majmualari hududida infratuzilmani va xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish masalalari ("O'rikzor" savdo majmuasi misolida)

Maqolada savdo bozorlari hududida qulay va xavfsiz infratuzilmani tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan. "O'rikzor" savdo bozori misolida jismoniy, texnik, yong'indan himoya qilish va jamoat tartibini ta'minlash xususiyatlari o'rganilgan va tahlil etilgan, shuningdek bu boradagi ishlarni tashkiliy-shtat va boshqa jiharlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: savdo bozori, xavfsizlik, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligi, texnik qo'riqlash uskunalari, avtoturargohlar, infratuzilma, tovar aylanmasi, qulay muhit, patrul yo'nalishlari.

Жумаев А.Ж. Вопросы совершенствования инфраструктуры и организации системы обеспечения безопасности на территории торговых рынков (на примере торгового комплекса «Урикзар»)

В статье рассмотрены вопросы особенности организации благоприятной и безопасной инфраструктуры на территории торговых рынков. На примере торгового рынка «Урикзар» изучены и проанализированы особенности обеспечения физической, технической, противопожарной охраны и обеспечения общественного порядка, даны предложения по совершенствованию организационно-штатной организации работ в данном направлении.

Ключевые слова: торговый рынок, безопасность, охрана общественного порядок, общественная безопасность, технические средства безопасности, парковочная зона, инфраструктура, товародвижение, комфортная среда, маршруты патрулирования.

Jumaev A.J. Issues of improving infrastructure and organizing a security system in the territory of trade markets (on the example of the trade market "Urikzar")

The article deals with the issues of organizing a favorable and safe infrastructure in the territory of trade markets. On the example of the trade market "Urikzar", studied and analyzed the features of providing physical, technical, fire protection and ensuring public order, proposals are made to improve the organizational and staff organization of work in this direction.

Key words: trading market, security, public order protection, public security, technical security equipment, parking area, infrastructure, commodity circulation, comfortable environment, patrol routes.

Atajanov O'tkir Mamatsalayevich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi katta o'qituvchisi

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORI FAOLIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi, mamlakatimizda har qachongidan ham dolzarb bo'lib, bunda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyati muhim o'rin tutadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktika inspektori faoliyatining yuridik tabiati va huquqiy asoslarini yoritishdan oldin, mazkur atamani tashkil qiluvchi **"jamoat xavfsizligini ta'minlash", "profilaktika", "profilaktika inspektori", "faoliyat", "yuridik tabiat"** va **"huquqiy asos"** kabilarning mohiyatini anglash muhim.

Xorijiy olimlar tomonidan "jamoat xavfsizligini ta'minlash" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, A.N.Bosxamdjiyevaning fikriga ko'ra, "**jamoat xavfsizligini ta'minlash-** davlat faoliyatining mustaqil, o'ziga xos tarmog'i bo'lib, yaqin kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarni sifat jihatidan isloh qilish hamda davlat boshqaruvining samarali, oqilona va ixtisoslashtirilgan, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarga mos keladigan xavfsizlik tizimini yaratish" [1] bo'lsa, A.M.Voronov talqinicha, "**jamoat xavfsizligini ta'minlash-** shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdidlar yuzaga kelganda ularni bartaraf qilish uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan yagona iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmui" [2] demakdir.

Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan M.X.Baratov va N.A.Qo'ldashevning "**jamoat xavfsizligini ta'minlash**- yaxlit tizim sanalib, u davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan, doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oladi" [3], degan ta'riflarini keltirish mumkin.

Yuqoridagi olimlar bergan ta'riflarni mazmun jihatdan farqlash qiyin, ammo hajmiga ko'ra **"jamoat xavfsizligini ta'minlash"** tushunchasi keng ma'noda talqin etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'ngi yillarda respublikamizda ham jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasiga davlat rahbari hamda hukumat darajasida e'tibor qaratilib, bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Ushbu normativ hujjatlarda ham yuqoridagi tushunchani ta'riflashda yagonalik yo'qligini ko'rishimiz mumkin, jumladan:

O'zbekiston Respublikasining "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni loyihasida **"Jamoat xavfsizligini ta'minlash** davlat tomonidan belgilanadigan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-huquqiy va boshqa chora tadbirlar tizimini amalga oshirish" deb ko'rsatilgan[4] bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son Farmonida "**Jamoat xavfsizligini ta'minlash** — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim" deb ifodalangan[5].

Ushbu ta'riflarni tahlil qilgan holda, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi **"Jamoat xavfsizligi to'g'risida"**gi qonun loyihasida jamoat xavfsizligini ta'minlash ta'rifini yoritish o'rniga izohda yana jamoat xavfsizligini ta'minlash iborasi ishlatilgan, bu esa uni yanada mavhumroq qilgan. Vaholanki, qonun texnikasi va uning mantiqiyligi nuqtai nazaridan mazkur tushuncha aniqroq yoritib berilishi lozim edi.

Professor I.Ismailov va M.Xalmatovlar **jamoat xavfsizligini ta'minlash** tushunchasini boshqa olimlar fikrlariga qaraganda ilmiy jihatdan kengroq va aniqroq yoritganliklarini alohida e'tirof qilish lozim, bunga ko'ra:

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, davlatning, xususan, uning organlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan: a) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni, davlat suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilish; b) qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlash; v) jamoat tartibini saqlash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni qo'riqlash va boshqa shu kabi asosiy vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur vazifalar: **birinchidan**, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni samarali

tartibga solish; **ikkinchidan**, xavfsiz bino, inshoot, tarmoq va hududlarni barpo etish; **uchinchidan**, obyektiv va subyektiv xususiyatga ega bo'lgan ichki hamda tashqi tahdid va tajovuzlarning oldini olish, zararsizlantirish, bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanmoqda[6].

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda subyektlarning profilaktika faoliyati muhim o'rin tutadi. "Vikipediya- erkin ensiklopediyasi" saytida[7] keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, «profilaktika»tushunchasi grekcha «πρόφύλακτικός» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga aynan tarjima qilinganda «saqlash, ehtiyot qilish» ma'nosini beradi. «Profilaktika» tushunchasiga «oldini olish, ehtiyot chorasi(ni) ko'rish, oldindan bartaraf qilish», «xabardor qilib qo'yish, ogohlantirish, oldini olish», «saqlash, ehtiyot qilish» so'zlari sinonim so'zlar hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu tushunchaga «odamlar sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalib ketmasligining oldini olish, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash va uzoq umr ko'rishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui» mazmunida izoh berilgan. «Profilaktika» tom ma'noda esa, «umuman, biror hodisaning oldini olish, mexanizm, mashinalarning muddatidan oldin ishdan chiqishi, buzilishidan saqlash uchun ko'riladigan choralar»[8] tariqasida tushuniladi. Shunday ekan «profilaktika» faqat oqibatni emas, balki «sabab va sharoit»ning ham oldini olishni qamrab oladi deb aytish mumkin.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda Ichki ishlar organlari asosiy subyektlardan biri hisoblanishi, ichki ishlar organlarida esa huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi asosiy subyekt **profilaktika inspektori bo'lib,** u amaldagi normativ hujjatlarga asosan qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni o'ziga biriktirilgan mahallaning ma'muriy hududida berilgan vakolat doirasida mustaqil va hamkorlikda amalga oshiruvchi ichki ishlar xodimi ekanligi qayd qilindi. Ushbu tushunchani tahlil qilganimizda: **birinchidan**, profilaktika inspektorining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF–27-son Farmonida [5]; **ikkinchidan**, huquqiy maqomi esa O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunda[9] belgilanganligi aniqlandi. Bugungi kunda respublikamizdagi mahallalarda, oliy o'quv yurtlarida, bozorlarda, turizm yo'nalishdagi temir yo'l transportida[10] profilaktika inspektorlari o'z faoliyatlarini yuritmoqdalar.

Bizningcha **jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorining faoliyati** jamoat xavfsizligiga tahdidlarni sodir bo'lganidan keyin bartaraf qilish emas, balki jamoat xavfsizligiga tahdid shakllanish xavfiga imkon beruvchi sabablar yoki shart-sharoitlar yuzaga kelmasidan oldin payqab, ularni kompleks chora-tadbirlar belgilagan holda yo'q qilishdan iborat. Shu sababli profilaktika inspektori jamoat xavfsizligiga tahdid qayerdan paydo bo'lishi mumkinligi, yoki nozik, boshqacha aytganda yetarli himoyalanmagan sohalarni aniq belgilab olib, faoliyatni tashkil qilishi muhim.

Faoliyat (arabcha فعال. faol, samarali) -bu borliqqa nisbatan faol munosabatning shaklidir, u orqali inson bilan borliq o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Faoliyat orqali kishi tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir qiladi[11].

Bugungi kunda profilaktika inspektorlari o'z faoliyatini Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida tashkil qilingan, "Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti"[12] tarkibida amalga oshiradilar.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorining faoliyati quyidagilarga yo'naltiriladi:

1) huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish(umumiy, maxsus, viktimologik, yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlari amalga oshirish);

2) jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash ;

3) huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash;

4) tergov va sud organlarining tegishli qarorlari hamda ajrimlarining ijrosini ta'minlash;

5) ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlashda ishtirok etish;

6) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ularning muammolarini hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy profilaktikani amalga oshirishda ishtirok etish. Shuni alohida qayd etish joizki, profilaktika

inspektorining mazkur yo‘nalishlardagi faoliyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birining amalga oshishiga xizmat qiladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatining **o‘ziga xos xususiyatlari** to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘linmas ekan, bu boradagi nazariy masalalar yechimi ochiqligicha qolishi mumkin. O‘zbek tilining izohli lug‘atida **xususiyat** (arabcha ميزة o‘ziga xoslik; alohidalik, ayrimlik) biror narsa yoki kimsaning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan tomoni, o‘ziga xos belgisi, deb ta’riflangan [13].

Tadqiqotlarda mavjud munozaralarni qayd qilgan holda nazariy va amaliy jihatdan jamoat xavfsizligini ta’minlashda, **profilaktika inspektori faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini** quyidagi guruhlarga ajratgan holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

- **tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog‘liq:** profilaktika inspektori faoliyatini mahallada ichki ishlar idoralarining barcha faoliyat yo‘nalishlariga xos bo‘lgan 22 ta vazifalarni bajarishga qaratilganligi [9];

- **xizmat hududi bilan bog‘liq:** har bir hududning o‘ziga xos kriminogen vaziyati, aholi soni va zichligi, hududlarning xususiyatlari va joylarda fuqarolar xavfsizligi hamda jamoat tartibini ta’minlash bilan bog‘liq boshqa shart-sharoitlar inobatga olingan holda ish tashkil qilishi[14];

- **moddiy texnik ta’minoti bilan bog‘liq** : har bir mahallada kamida bittadan profilaktika (katta) inspektor faoliyat yuritishi, xizmatni munosib va tezkor ravishda tashkillashtirish uchun o‘zi xizmat qilayotgan mahallada xizmat uyi va xizmat xonasi bilan ta’minlanganligi[15],

- **vakolati bilan bog‘liq**: ya’ni bevosita o‘z vakolati doirasida ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 24 ta moddasi bo‘yicha mustaqil jarima jazosini qo‘llashga vakolati borligi[16];

- **bajarish va rioya qilish majburiy bo‘lgan hujjatni mustaqil qabul qilish bilan bog‘liq**: rasmiy ogohlantirish berish[17], taqdimnomalar kiritish[18], himoya orderi berish[19] kabi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektorining vazifalari bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlar:

birinchidan, ushbu vazifalar qaysi normativ hujjatlarda, ya’ni qonunlarda[9,20], Prezident farmonida[5] va Prezident qarorlarida[21,22] belgilanishida namoyon bo‘lsa;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27 sonli Farmonida belgilangan 22 ta vazifalarning xususiyatlari, ya’ni;

a) **tezkor xizmatlar bilan bog‘liq**, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy va buzg‘unchilik yo‘nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlashga ko‘maklashish, jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma’lum murdalarning shaxsini aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

b) **ma’muriy amaliyot bilan bog‘liq**, bevosita o‘z vakolati doirasida ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 24 ta moddasi bo‘yicha ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirishi;

v) **jamoat tartibini saqlashiga** qarab, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida jamoat tartibini saqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini tashkil etish, fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralarini amalga oshirishda ko‘maklashishga jalb etish;

g) **huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishiga** qarab, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida aholi o‘rtasida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish;

d) **jamoat xavfsizligini ta’minlashiga** qarab, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida vakolatli davlat organlari va tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyati natijalarini umumlashtirish va yagona axborot-tahlil tizimiga kiritilishini ta’minlash, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam ravishda o‘rganib borish, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

e) **tergov va sud organlari bilan hamkorligi**, shaxsni majburiy keltirish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimini belgilangan tartibda ijro etish;

j) **migratsiya xizmati bilan** bog‘liq, biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida pasport rejimi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirishi;

z) **probatsiya xizmati bilan,** probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda probatsiya inspektorlariga ko‘maklashishda ko‘rinadi.

Yuqoridagi murakkab, serqirra va mas’uliyatli vazifalarni profilaktika inspektorlari amaldagi normativ hujjatlarda belgilangan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha va ularga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshirishlari talab qilinadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarini faoliyatini samarali tashkil qilish- bu sohaning huquqiy asoslarini muntazam tahlili va monitoringini olib borishni, ularning ijtimoiy hayotga qay darajada mosligi va amal qilishini kuzatib borishni talab etadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektorlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha samarali faoliyat olib borishlarida: **birinchidan,** xizmat faoliyatiga taalluqli bo‘lgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilishlari; **ikkinchidan,** xizmat majburiyatlarini bajarishi uchun foydalanishi talab qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar uning xizmat xonasida yoki elektron shaklda xizmat kompyuterida bo‘lishi; **uchinchidan,** profilaktika inspektori qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlaridan o‘z faoliyatini amalga oshirishda asosiy qurol (vosita) sifatida foydalanishlari zarur.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktika inspektori faoliyatining yuridik tabiati haqida huquqshunos olimlardan, masalan, **Ye.G.Komissarova** «yuridik tabiat» atamasi huquqshunoslikda qo‘llanilishi va uning ma’lum bir huquqiy hodisaga nisbatan aniqlik kiritishda ishlatilishi, biron bir huquqiy sohani o‘rganilayotganda, odatda, shu sohaning huquqiy tabiati shakllantirilishi[23], haqidagi fikrni ilgari surgan bo‘lsa, **S.S.Alekseyev** yuridik tabiat huquqiy hodisaning yuridik tavsifi bo‘lib, uning ijtimoiy tabiatiga qarab boshqa huquqiy hodisalarning tuzilishi, o‘rni va rolini aniqlash mumkin [24], deb hisoblaydi. O‘z navbatida, **I.V. Matveyev** “yuridik tabiat” termini u yoki bu yuridik fakt, protsess, hodisaga baho berishda mukammal ta’rifni beradi [25], deb izoh berganligini ko‘rish mumkin.

Xuddi shu sababdan ham ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari vazifalarini bilish orqali uning **yuridik tabiatini** tushunishga o‘tish mumkin, chunki “yuridik tabiat” murakkab, kompozitsion kategoriya bo‘lishiga qaramay, uni ilmiy muomalada qo‘llash doirasini topish va ko‘rish orqali aniqlash mumkin. “Yuridik tabiat” tushunchasining “huquqiy baholash”, “huquqiy tavsif”, “huquqiy rejim”, “funksiya” kabi atamalar bilan, shuningdek huquqiy tartibga solish usuli bilan o‘zaro bog‘liqligi uning muhim ahamiyatini belgilaydi. Shunday qilib, yuridik tabiatning ta’rifi nafaqat huquqiy hodisaning tavsifini berishga, uning o‘rni va rolini boshqalar orasida tushunishga, balki uning xususiyatlariga muqarrar ta’sir ko‘rsatadigan huquqiy ildizini aniqlashga imkon beradi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektorlari faoliyat yuritadigan “Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari” va “Mahalla huquq-tartibot maskanlari” tushunchalari va ularning ta’rifi qonun bilan[9] belgilanib, profilaktika inspektorlarining ham o‘ziga xos **huquqiy maqomi, ya’ni** huquq normalari bilan belgilab berilgan holati, uning huquq va majburiyatlari majmui shakllandi, shuningdek, tayanch punktlari [22] va mahalla huquq tartibot maskanlari [26] tashkiliy huquqiy asoslari belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin: jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyati bu- uning amaldagi normativ hujjatlarga asosan, qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni, o‘ziga biriktirilgan mahallaning ma’muriy hududida berilgan vakolat doirasida, mustaqil va hamkorlikda bajaradigan hatti-harakatlar majmuidir;

- jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari esa uning tashkiliy-huquqiy asoslari, xizmat hududi, moddiy texnik ta’minoti, vakolati, bajarish va rioya qilish majburiy bo‘lgan hujjatni mustaqil qabul qilishi, shuningdek belgilangan vazifalarni sohaviy xizmatlar ya’ni tergov, jinoyat qidiruv, probatsiya, yo‘l harakati, migratsiya xizmatlari bilan hamkorlikda amalga oshirishiga bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Босхамджиева Н.А. Современные проблемы административноправового обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации // Юридический мир. 2012. № 11. С. 26.

2. Воронов А.М. Система обеспечения общественной безопасности: проблемы оптимизации https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-obespecheniya-obschestvennoy-bezopasnosti-problemy-optimizatsii

3.M.Baratov, N.Kuldashev. Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash istiqbollari // https://uza.uz/uz/posts/jamoat-xavfsizligini-davlat-xususiy-sheriklik-asosida-taminlash-istiqbollari_349465

4.O'zbekiston Respublikasi "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni loyihasi, https://regulation.gov.uz/oz/d/16871

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27 sonli Farmoni https://lex.uz/docs/2569856

6. Ismailov I., Xolmatov M. Jamoat xavfsizligini ta'minlash obyektlari va subyektlarining o'zaro aloqadorligi. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index 166-б

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Профилактика_(значения)

8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. IV. Tartibot–Shukr / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq. O'z. Res. FA Til va adabièt in-ti. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashrièti, 2008. – 608 b.;

9. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun https://lex.uz/docs/2685456

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.03.2019 y PQ-4229 sonli "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori https://nrm.uz/contentf?doc=581471_

11.Faoliyatning psixologik tahlili, https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/ 14515-2021-07-31-06-04-05

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196 sonli farmoni

13. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati // Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashrièti, 2006. – B. 429.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2896-sonli qarori

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021 yildagi 317-son "Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika (katta) inspektorlarini 2021 — 2023 yillarda xizmat uy-joylari bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

16. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 248-moddasi 4-bandi

17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.02.2017 yildagi 60-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 sentabrdagi 565-sonli "Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori

19.O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 02 sentabrdagi"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni https://lex.uz/docs/2685467

20.O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi (14.05.2014 y.) qonuni

21.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2883-sonli qarori

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-sonli qarorlari

23.Комиссарова Е.Г. Формально логические аспекты понятия «правовая природа» Вестник пермского университета 2012 Юридические науки Выпуск 2(16) стр. 23

24.Алексеев С.С. Общие дозволения и запреты в советском праве. М.: Юридическая литература, 1998. С. 227.

25.Матвеев И.В. Правовая природа недействительных сделок. М.: Юрдитинформ,2004. С. 5.

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.06.2022 yildagi №343-sonli "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori

Atajanov O'.M. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektori faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlari faoliyati, vazifalari, huquqiy maqomi va huquqiy asoslarining holati yoritilib, uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligini ta'minlash, ichki ishlar organlari, profilaktika, profilaktika inspektori, faoliyat, yuridik tabiat, huquqiy asos, mahalla huquq tartibot maskani, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Атажанов У.М. Деятельность профилактичекого инспектора по обеспечению общественной безопасности и ее особенности

В статье освещаются деятельность, задачи, правовой статус и правовая основа инспекторов-профилакторий опорных пунктов органов внутренних дел в обеспечении общественной безопасности, анализируются ее специфические особенности.

Ключевые слова: понятие общественной безопасности, профилактика преступлений, опорные пункты органов внутренних дел, Махаллинские пункты правопорядка.

Atajanov U.M. Activies of preventive inspector in ensuring public safety and its specific features

In the article, the activities, tasks, legal status and legal basis of preventive inspectors of the base points of the internal affairs bodies in ensuring public safety are highlighted, and its specific features are analyzed.

Key words: the concept of public security, crime prevention, strongholds of the internal affairs bodies, Makhalla points of law and order.

Toshmuxammatov Asadbek Yusup o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISHDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Bugungi kunda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va turli xarakterdagi va yo'nalishdagi ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash keyingi yillarda faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi turli xil xalqaro va milliy miqyosda tadbirlarning ko'payib borishi ham, mamlakatimizga bo'lgan ishonchning ortishidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish sohasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshlang'ich nuqtalarni belgilaydi. Ushbu qoida O'zbekiston Konstitutsiyasi faqat shaxsning jamiyatdagi huquqiy maqomining asoslarini tartibga solishini anglatadi. Ushbu asoslar har qanday guruhlar yoki qatlamlarda, masalan, siyosiy imtiyozlarga ko'ra birlashgan fuqarolarning pozitsiyasida ko'rsatilgan umumiy narsalarni o'z ichiga oladi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatda va uning ma'muriy hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishga oid 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularning ijrosi doirasida:

– jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar vazifa va funksiyalari

maqbullashtirildi, tarkibiy tuzilmalar va ularning quyi bo'g'inlarda institutsional o'zgartirishlar amalga oshirildi [1];

– transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalari qaytadan va turizm xavfsizligini ta'minlash xizmatlari yangidan tashkil etildi [2];

– sutka davomida uzluksiz, xususan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya saf bo'linmalari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash kuchlarining kamida 70 foizi jalb qilingan holda soat 16:00 dan 8:00 ga qadar vaqt oralig'ida xizmat olib borish amaliyoti 2018-yil 1-iyuldan Toshkent shahrida [3], keyinchalik respublika viloyatlari markazlari va katta shaharlarida joriy etildi [4];

Toshkent viloyatining bir-biridan ancha olisda va tarqoq holda joylashgan 7 ta shahar va 15 ta tuman ma'muriy-hududlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimi 4 ta mintaqaviy hududlarga ajratilgan holda tashkil etildi [5];

Bundan tashqari "Xavfsiz shahar" [6], "Xavfsiz turizm" [7], "Obod va xavfsiz mahalla" [8] konsepsiyalarining amalga oshirilayotganligi bugungi kunda mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy texnika va texnologiyalarga, jalb etilayotgan kuch va vositalarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan markazlashgan yangi tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning mustahkam, zamon talablariga moslashuvchan bo'lgan samarali mexanizmini yaratish o'z navbatida mazkur faoliyatning nazariy asoslarini tahlil etilishini taqozo etadi.

